


Durdona Xudoyberganova

**ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK
TERMINLARINING IZOHLI
LUG‘ATI**



**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT-2024**

UO‘K: 40(03)

KBK: 81Ya21

X 83

Xudoyberganova Durдона.

Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati [Matn]:
lug‘at / D.Xudoyberganova. – Toshkent: Bookmany print, 2024.
– 112 b.

Mazkur lug‘atda o‘zbek zamonaviy tilshunosligida amal qilayotgan kognitiv tilshunoslik, pragmalingsvistika, sotsiolingsvistika, lingvomadaniyatshunoslik, psixolingsvistika, assotsiativ tilshunoslik, gender tilshunosligi, medialingsvistika, matnshunoslik, metaforashunoslik kabi lingvistik sohalar va yo‘nalishlarning asosiy terminlari izohlangan. Lug‘atdan zamonaviy tilshunoslik masalalari doirasida izlanish olib borayotgan filolog mutaxassislar, tadqiqotchilar, doktorant va magistrantlar foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Hakimov Muhammadxon

filologiya fanlari doktori, professor

Lutfullayeva Durдона

filologiya fanlari doktori, professor

O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Ilmiy kengashi majlisining 7-sonli qarori (2023-yil 4-dekabr) bilan nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9910-761-91-1

© Xudoyberganova D.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2024.

Lugʻatda qoʻllangan qisqartmalar:

fr. – fransuzcha

ingl. – inglizcha

lot. – lotin tiliga oid

medialingv. – medialingvistika

nem. – nemischa

polinez. – polinezcha

qiyos. – qiyoslang

sotsiolingv. – sotsiolingvistika

va b. – va boshqalar

yun. – yunon tiliga oid

SO‘ZBOSHI

O‘tgan asrning so‘nggi choragi va XXI asrning nihoyasiga yetay deb qolgan birinchi choragida o‘zbek tilshunosligi terminologik tizimi beqiyos darajada yangi lug‘aviy birliklar bilan boyidi. Mazkur jarayonning asosiy omillari sifatida tilshunoslarimizning o‘zbek tili tadqiqiga jahon tilshunosligining ustuvor nazariy qarashlarini tatbiq etishga bo‘lgan intilishlari, buning natijasida yangi ilmiy paradigmalarga xos yondashuvlar ko‘lamining kengayib borayotganini ko‘rsatish mumkin. Bugungi o‘zbek tilshunosligi yangi ilmiy qarashlarni dadillik bilan qo‘llayotgan, ular vositasida ona tilimizning ochilmagan qirralarini kashf etishga intilayotgan fan sohasi sifatida ko‘zga tashlanmoqda.

O‘zbek tilshunosligida shakllangan va shakllanib borayotgan yangi sohalar, yangi yo‘nalishlar natijasida ushbu fan terminologiyasidan o‘rin olgan yangi terminlarning leksikografik talqini va tadqiqini amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqot olib borayotgan filolog mutaxassislarda yangi paydo bo‘lgan terminlarning izohli lug‘atiga katta ehtiyoj bor. Bunday lug‘at oliy o‘quv yurtlari talabalar va magistrilariga ham zarur bo‘lmoqda. Qator oliy o‘quv yurtlarida zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari bilan bog‘liq fanlar, maxsus kurslarni o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu lug‘at ana shu zarurat natijasida shakllantirilgan bo‘lib, unda zamonaviy tilshunoslikka doir pragmatolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, assotsiativ tilshunoslik, psixolingvistika, lingvopersonologiya, matn tilshunosligi, diskursshunoslik, medialingvistika sohalarining asosiy terminlari izohlangan. Lug‘atni yaratishda taniqli o‘zbek tilshunoslarining asarlaridan, xorijiy ilmiy adabiyotlar, turli lingvistik terminlarning izohli lug‘atlaridagi ma’lumotlardan foydalanildi. Jumladan, A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Safarov, M.Hakimov, D.Lutfullayeva, M.Yo‘ldoshev, Sh.Usmonova, R.Davlatova M.Qurbonova, A.Yo‘ldoshev, Sh.Maxmaraimova kabi tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarga¹, shuningdek, mazkur sohalar doirasida tilshunosligi-

¹ Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 3-жилд. – 376 б.; Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти – Тошкент, 1986 –№

mizda amalga oshirilgan boshqa ilmiy tadqiqotlarga murojaat qilindi. Shuningdek, kognitiv tilshunoslik terminlarini izohlashda rus tilshunoslari N.N.Boldirev, Z.D.Popova, I.A.Sternin asarlaridagi,² lingvomadaniyatshunoslik terminlarini izohlashda V.V.Vorobyov, V.A.Maslova, V.V.Krasnix, S.V.Ivanova, Z.K.Sabitova asarlari-dagi,³ sotsiolingvistika terminlarini izohlashda Moskvada nashr qilingan “Словарь социолингвистических терминов” nomli lug‘at⁴ hamda T.V.Jerebiloning “Словарь лингвистических

6 – Б. 38-41; Шу муаллиф. Ўқитувчи нутки маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007 – 188 б.; Шу муаллиф. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16; Шу муаллиф. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 1. – Б. 3-8. Шу муаллиф. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3. – Б. 3-12; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 96 б.; Шу муаллиф. Прагмалингвистика. – Тошкент: “ЎЗМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 318 б.; Шу муаллиф. Семантика. – Тошкент: “ЎЗМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2013. – 344 б.; Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 168 б.; Шу муаллиф. Ўзбек тилида матнининг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 б.; Шу муаллиф. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 176 б.; Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.; Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 256 b.; Усмонова Ш. Лингвокультурология фанидан маърузалар курси. – Тошкент: “Университет”, 2014. – 104 б.; Шу муаллиф. Шарқ мамлакатлари социолингвистикаси: ўқув қўлланма. – Тошкент, 2016. – 152 б. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 2018. – 240 б.; Давлатова Р.Ҳ. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари: Филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 2020. – 208 б. Юлдашев А.Г. Идиоматик кўшма сўзларнинг лингвокогнитив тадқиқи. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2016. – 192 б. Махмараимова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. – Қарши, 2018. – 168 б.; Шу муаллиф. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. д-ри дисс. – Самарқанд, 2020 – 281б. Шу муаллиф. Ҳозирги ўзбек тили. Лексикология. – Тошкент: “Фирдавс – Шоҳ”, 2021 – 320б. va b.

² Болдырев Н.Н. Язык и система знаний. Когнитивная теория языка. – 2-е изд. – М.: Издательский Дом ЯСК, 2019. – 480 с.; Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 314 с.; Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО “Пилигрим”, 2010. – 486 с.

³ Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы)). – М.: РУДН, 1997. – 331 с.; Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.; Иванова С.В. Культурологический аспект языковых единиц. – Уфа, 2002. – 114 с.; Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. – М.: Гнозис, 2002. – 284 с.; Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – 508 с.

⁴ Словарь социолингвистических терминов. – М., 2006. – 312 с;

терминов” nomli lug‘atidagi ilmiy talqinlarga asoslanildi.⁵ Lug‘atda zamonaviy izohli lug‘atlardagi usullarni qo‘llagan holda, ayrim terminlar talqinida uni aniq ta’riflagan shaxsning izohidan aynan foydalanildi. Ushbu lug‘atni tuzishda muallifning 2022-yilda nashr qilingan “Antropotsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” dagi lug‘at maqolalaridan ham foydalanildi. Ko‘plab terminlarning leksikografik talqini ilk marta amalga oshirilayotganini nazarda tutgan holda ayrim terminlarga doir lug‘at maqolalariga mutaxassislarning bu boradagi muhim qarashlari qo‘shimcha ma’lumot sifatida kiritildi.

Lug‘atning tuzilishi. Lug‘atda izohlangan terminlar, asosan, o‘zbek tilidagi tilshunoslikka oid ilmiy asarlar va o‘quv-uslubiy adabiyotlardan olindi. Shu bilan birga, hali o‘zbek tilshunosligi terminologiyasidan o‘rin olmagan, ammo zamonaviy tilshunoslik sohalarining asosiy tushunchalarini ifodalovchi ayrim terminlar ham lug‘atga kiritildi.

Lug‘at maqolalari, asosan, izohlanayotgan termin va unga berilgan izohdan tashkil topgan. Ko‘pma’noli terminlarning har bir ma’nosi alohida, arab raqamlari bilan ajratilgan tarzda izohlandi. Ayrim terminlarning lug‘at maqolasida, ilmiy izohdan tashqari, uning etimologiyasi ham ko‘rsatildi. Ba’zi terminlarning izohida esa uni ilmiy muomalaga olib kirgan tadqiqotchining ism-familiyasi qayd etildi. Bunday ma’lumotlar izohlanayotgan termindan keyin qavs ichiga olingan holda berildi. Masalan: IDIOLEKT [*yun.* idios – o‘ziga xos, alohida + (dia)lekt]; NUTQIY JANR [M.M.Baxtin termini]... kabi.

Lug‘atda ayrim terminlarning izohidan so‘ng uning aniqligini dalillash maqsadida illyustrativ misollar keltirildi. Shuningdek, lug‘atdan sinonim terminlar ham o‘rin olgan bo‘lib, ular *ayn.* (*aynan*) pometasi bilan muallif tomonidan me’yoriy deb hisoblangan terminga havola qilindi. Izohlanayotgan terminga aloqador bo‘lgan, uning ma’nosini yanada aniqlashtirishga xizmat qiluvchi terminlar esa lug‘atda *q.* (*qarang*) pometasi bilan berildi. Lug‘at so‘ngida foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida kognitiv tilshunoslik, pragmatolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, sotsiolingvistika,

⁵ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО “Пилигрим”, 2010. – 486 с.

assotsiativ tilshunoslik, medialingvistika, matnshunoslik, metafora-shunoslik kabi lingvistik sohalar va yoʻnalishlarning guruhlashtirilgan tarzda koʻrsatkichi ilova qilindi.

Muallif lugʻatning texnik-amaliy ishlarini bajarishda ishtirok etgan institut kichik ilmiy xodimi Ahmedova Azizaga oʻz minnatdorchiligini bildiradi.

Mazkur lugʻatda zamonaviy tilshunoslikka oid ayrim terminlar birinchi marta izohlanmoqda. Shu sababli unda muayyan kamchiliklar, bahsli oʻrinlar ham kuzatilishi tabiiy. Biz muhtaram oʻquvchilardan bu xususidagi mulohazalarini quyidagi manzilga joʻnatishlarini soʻrab qolamiz: +998 93 3860488 raqamli telegram tarmogʻi.

D.Xudoyberganova,
filologiy fanlari
doktori, professor

A

ABADIY QADRIYATLAR *ayn. umuminsoniy qadriyatlar.*

ABORIGENLAR [*lot. aborigine – avvaldan, boshidan*] Biror mamlakat yoki muayyan hududda qadimdan yashab kelayotgan tubjoy aholi.

ADABIY TIL Umumxalq tilining ilmiy asosda qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan, ushbu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. U me'yoriylik, ko'pvazifalilik, uslubiy xususiyatlariga ko'ra farqlanganlik (vazifaviy uslublarga bo'linganlik) va til sohiblari o'rtasida ijtimoiy jihatdan obro'e'tiborga sazovorlik xususiyatlariga ega bo'ladi. Adabiy til og'zaki va yozma ko'rinishlarda amal qiladi hamda shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtirib, ularning barchasi uchun tushunarli bo'ladi.

ADRESANT [*nem. Adressant – yuboruvchi*] Nutqiy axborotni adresatga yo'llovchi shaxs, so'zlovchi (yozuvchi).

ADRESAT [*nem. Adressat – qabul qiluvchi*] Nutqiy axborotni qabul qiluvchi shaxs, tinglovchi (o'quvchi).

AFAZIYA [*yun. a – inkor qo'shimchasi + phasis – fikr*] Bosh miya po'stloq qavatidagi nutq markazining o'zgarishi, shikastlanishi natijasida, alaliyadan farqli ravishda, shakllangan nutq qobiliyatining buzilishi.

AGRAMMATIZM [*yun. agramos – so'zsiz, o'qib bo'lmaydigan*] Bosh miya yarimsharidagi nutq zonalarining zararlanishi natijasida grammatik qurilmalarning ma'nolarini noto'g'ri tushunish, gapni to'g'ri tuza olmaslik, so'zlarni noto'g'ri turlash va tushlash kabilar bilan xarakterlanuvchi nutq faoliyatining buzilishi.

AKSIOLINGVISTIKA *ayn. lingvistik aksiologiya.*

AKSIOLOGIK BAHO Voqelikka, undagi narsa va hodisalarga nisbatan qadriyatli munosabat hamda ularni qadrlash tuyg'usi asosida shakllangan hukm va xulosalar. Aksiologik baholash narsa, hodisa yoki jarayonning iqtisodiy qiymatini, foydaliligini belgilash orqali emas, balki uning subyekt ma'naviy olami uchun qanday ahamiyat kasb etishini aniqlash orqali amalga oshadi.

AKSIOLOGIK DUNYOQARASH Qadriyatli yondashuv, aksiologik munosabat, aksiologik baholash kabilardan tarkib topuv-

chi; kishilarning voqelikka qadriyatli munosabati va faoliyatining yo‘nalishini belgilaydigan aksiologik qarashlar, tamoyillar va maslamlarning jami; ijtimoiy dunyoqarashning o‘ziga xos tarkibiy qismlaridan biri.

AKSIOLOGIK ONG Qadriyatlarni anglash jarayonida hosil bo‘ladigan, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik tushuncha va xulosalarni ifodalaydigan, uni o‘ziga xos tarzda aks ettiradigan ijtimoiy ongning maxsus shakli. Q.Nazarovning fikriga ko‘ra, aksiologik ongda “qadriyatlar, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllari, ahamiyati va xususiyatlari o‘z aksini topadi.”

AKSIOLOGIYA [*yun.* axia – qadriyat + logos – fan, ta’limot) Qadriyatlarning tabiati, ularning voqelikdagi o‘rni va qadriyatlar dunyosining tuzilishi bilan bog‘liq masalalarni, turli qadriyatlarning bir-biri bilan, shuningdek, ijtimoiy va madaniy omillar va shaxs tuzilishi bilan aloqadorligini o‘rganuvchi soha; falsafa fanining bo‘limi.

AKUSTIK AFAZIYA Bosh miyadagi Vernike markazining shikastlanishi natijasida yuzaga keluvchi, fonematik eshitish qobiliyatining buzilishi bilan xarakterlanadigan afaziya turi. Bunday afaziyada bemor tovushlarni eshitadi, ammo ularni tushunmaydi va bir-biridan ajrata olmaydi, natijada nutqni to‘g‘ri qabul qila olmaydi.

ALALIYA [*yun.* a – inkor qo‘shimchasi + lalia – nutq] Bosh miya katta yarimsharlari po‘stlog‘idagi nutq zonalarining yaxshi rivojlanmasligi yoki shikastlanishi sababli bolalarning tili chiqmasligi yoki yaxshi so‘zlay olmasligi. Alaliyada bola 5-7 yoshgacha, ba‘zan 10-12 yoshgacha gapira olmasligi kuzatiladi. Alaliyaning motor alaliya va sensor alaliya turlari bor. *q. motor alaliya. q. sensor alaliya.*

ALOQAVIY TILLAR Etnoslararo verbal muloqot usullari bo‘lmagan sharoitda (hududiy-vositachi til yoki bilingvizmning yo‘qligida) paydo bo‘ladigan yordamchi tillar.

ALLOETNONIM [*yun.* allos – boshqa; har xil + etnos – qabila, xalq + onyma – nom] Biror etnosning boshqa xalq tomonidan berilgan nomi.

ALLYUZIV ANTROPONIM Allyuziv matnda allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi antroponim, allyuziv nomning bir turi. Masalan: *Ermak ekan endi L a y l o l a r, M a j n u n g‘arib*

kezgan sahrolar, Ertak ekan T o h i r-Z u h r o l a r, Bevafo ko‘p ekan dunyoda. (M.Yusuf) **q. allyuziv nom.**

ALLYUZIV KOSMONIM Allyuziv matnda allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi kosmonim, allyuziv nomning bir turi. Masalan: *Sen-ku Z u h r o s a n falakda, Intizoringman faqat, Ne ajab tolpinsa ko‘nglim, Yo‘q emish orzuda ayb.* (E.Vohidov) **q. allyuziv nom.**

ALLYUZIV MATH Allyuziya vositasida hosil qilingan matn. **q. allyuziya.**

ALLYUZIV NOM Allyuziv matnda allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi onomastik birlik, assotsiativ tarzda idrok qilinuvchi pretsedent matnning tarkibiy qismi; ikki madaniy-semiotik maydonni tutashtiruvchi vosita. **q. allyuziya ko‘rsatkichi.**

ALLYUZIV TOPONIM Allyuziv matnda allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi toponim, allyuziv nomning bir turi. Masalan: *G‘afurning do‘ppisin qo‘ndirib boshga Q a r sh i d a n chaqnadi she‘rning chaqmog‘i.* (U. Azim) **q. allyuziv nom.**

ALLYUZIV ZONIM Allyuziv matnda allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi zoonim, allyuziv nomning bir turi. Masalan: *Dovon oshib shamol bo‘lib Uchar bizning “Jiguli”. “Jiguli”mas, go‘yo Duldul, naqd B o y ch i b o r deguli.* (E.Vohidov) **q. allyuziv nom.**

ALLYUZIYA [*lot.* allusio – ishora; hazil] Muayyan til birligi vositasida biror adabiy yoki ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishdan iborat uslubiy figura. Lingvomadaniyatshunoslikda allyuziya ikki madaniy-semiotik maydonning o‘zaro munosabati nuqtayi nazari-dan o‘rganiladi.

ALLYUZIYA DENOTATI Allyuziv matnda ishora qilingan matn yoki ijtimoiy-tarixiy fakt. Masalan, quyidagi matnda Xristofor Kolumb tomonidan Amerikaning kashf qilinishi fakti allyuziya denotati vazifasida kelgan: *Va birdan sezasan: odamlar emas, Kemalar ko‘chadan o‘tmoqda suzib – Ishxonaga emas, mayxonaga emas, Amerika ochgani ketmoqda ular. Ularni hayqirib tabriklaging kelar, Va birdan anglaysan: Sen ham bir Kolumb.* (U.Azim)

ALLYUZIYA KO‘RSATKICHI Allyuziv matnda muayyan adabiy yoki ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilib keluvchi, til egalariga yaxshi tanish bo‘lgan lisoniy birlik. Allyuziya ko‘rsatkichi, odatda,

mashhur nomlar, jumlar yoki matnlar, ya'ni pretsedent birliklardan iborat bo'ladi. Masalan: *Sendagi nafratni xohlardim asti, Razillar ko'ziga boqolsam xunxor. Chunki haligacha, O t e l l o, rosti, Y a g o n i o'qitib qo'yguvchilar bor.* (A.Oripov) *Buncha uzun oh tortdingiz, o h B o b u r, Muttahamlar dunyosida shoh Bobur* (S.Sayyid).

ALLYUZIYA MANBASI Allyuziv matnda ishora qilingan adabiy yoki ijtimoiy-tarixiy fakt manbasi. O'zbek tilida badiiy, tarixiy, ilmiy asarlar, miflar, folklor asarlari tarkibidagi matnlar, Qur'oni Karim oyatlari va hadislariga allyuziya manbasi sifatida ko'p murojaat qilinadi.

AMALIY TILSHUNOSLIK Tilshunoslikning lingvistika masalalarini amaliy yo'l bilan o'rganuvchi sohasi.

ANIMALISTIK METAFORALAR *ayn. zoomorf metaforalar.*

ANIQ KONSEPTLAR Aniq predmetlar haqidagi tushunchalarni aks ettiruvchi konseptlar.

ANTROPOLINGVISTIKA 1 Shimoliy Amerikaning tub aholisi tilini tadqiq etish bilan bog'liq holda Amerika tilshunosligida yuzaga kelgan, lingvistik, madaniy va etnografik yondashuvlarni umumlashtirgan tadqiqot yo'nalishi.

2 Inson tafakkuri taraqqiyotini uning til taraqqiyoti, xususan, leksikada aks etishi bilan bog'lab o'rganuvchi soha. Antropolingvistikaning o'rganish obyekti, asosan, turli tillarning lug'aviy tizimi, birinchi navbatda, terminologiyasi hisoblanadi.

3 *ayn. etnolingvistika.*

ANTROPOMORFIZM [*yun. anthropos – odam + morphe – shakl, ko'rinish*] Hayvonlar, tabiat hodisalari, mifologik mavjudotlar va predmetlarga odamga xos ruhiy va jismoniy belgilarni ko'chirish.

ANTROPOMORF LINGVOMADANIY KOD Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan odam yoki unga tegishli harakat-xususiyatlarni anglatuvchi so'z (yoki so'zlar, so'z birikmasi) tayanch komponent bo'lgan lisoniy (nutqiy) birlik; biomorf kod turlaridan biri. Masalan: *Shum k a m p i r, shumaloq kampir, ikki beti yumaloq kampir (Tandir); Eshik orqasida beli bog'liq q u l yotar (Supurgi);*

Bahor qir-adirlarga sepinioyd kabi.

ANTROPOMORF METAFORALAR Insondan boshqa mavjudotlarga, narsa va predmetlarga insonga xos belgi, harakat-holatning ko‘chirilishi asosida yuzaga kelgan metaforalar, bazaviy metaforaning turlaridan biri. Masalan: *fasllar kelinchagi, shamollar shiviri*. *q. bazaviy metaforalar.*

ANTROPOTSENTRIK METAFORALAR Markazida inson turuvchi, uning ichki va tashqi sifatlari bilan bog‘liq bo‘lgan metaforalar. Ayrim tilshunoslarning fikriga ko‘ra, inson bilan bog‘liq bo‘lgan antropomorf, zoomorf, biomorf metaforalar antropotsentrik metaforalarning turlari hisoblanadi.

ANTROPOTSENTRIK PARADIGMA Tilni nafaqat struktura, balki kommunikatsiyaga asoslangan ochiq tizim sifatida o‘rganuvchi, uni jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat kabi boshqa tizimlar bilan aloqadorlikda tadqiq etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yo‘naltirilgan ta’limotlar va usullar majmuyi.

ANTROPOTSENTRIK TILSHUNOSLIK Antropotsentrizm asosiy tadqiq tamoyili bo‘lgan tilshunoslik sohalarining umumiy nomi. *q. antropotsentrizm.*

ANTROPOTSENTRIZM [*yun.* anthropos – odam + *lot.* sentrum – markaz] Tilshunoslikda: tilga inson omili nuqtayi nazaridan yondashish; lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika, etnopsixolingvistika, neyrolingvistika, sotsiolingvistika, lingvopersonologiya kabi sohalarda tilni tadqiq etishning asosiy tamoyili.

ARALASH BILINGVIZM 1 So‘zlovchi tomonidan ona tili va ikkinchi tilning teng huquqli kommunikativ tizimlar sifatida, o‘zaro qorishtirmagan holda qabul qilinishi

2 Bir xil ijtimoiy kontekstda ikki xil tildan muqobil foydalanish.

AREAL TILSHUNOSLIK [Matteo Julio Bartole termini] Lingvistik geografiya usullari vositasida lisoniy hodisalarning ma‘lum hududlarda tarqalishi va shu asosda tillararo aloqalarni o‘rganuvchi tilshunoslik yo‘nalishi.

ARGO [*fr.* argot – jargon] Biror ijtimoiy guruh, toifaning o‘ziga xos, boshqalar tushunmaydigan lug‘aviy unsurlardan iborat yasama tili.

ARTEFAKT [*lot.* art – sanʼat + factus – qilingan, yaratilgan > sanʼat qonunlari asosida yaratilgan] Inson ijodiy faoliyatining mahsuli.

ARXETIP 1 [*yun.* arche – boshlanish + tupos – shakl, namuna; K.G.Yung termini] Biror narsaning ilk, boshlangʻich shakli.

2 Turli madaniyatlarda keng tarqalgan turgʻun obraz. Arxetiplar turli xalqlar madaniyatida universalligini saqlagan holda milliy qiyofa kasb etadi.

ASL DEYKTIK BIRLIKLAR “Ishora” deyktik semasiga ega boʻlgan va doimiy ishora qilish vazifasini bajaruvchi til birliklari.

ASOSIY MADANIY KODLAR [V.V.Krasnix termini] Lingvomadaniyatshunoslikda asosiy madaniy kodlar hisoblangan narsa-buyum madaniy kodi, biomorf madaniy kodi, makon madaniy kodi, maʼnaviy madaniy kod, somatik madaniy kod, vaqt madaniy kodining umumiy nomi.

ASSERTIVLAR Axborotning haqiqiy, rost ekanligini tasdiqlovchi nutqiy harakatlar; J.Serl tomonidan illokutiv maqsad, bu maqsadga erishish usuli, mazmunning haqqoniyligi kabi tamoyillar asosida tasnif qilingan nutqiy aktlar guruhlaridan biri. *q. direktivlar. q. komissivlar. q. deklarativlar. q. ekspressivlar.*

ASSOTSIAT Inson xotirasida eshitilgan yoki oʻqilgan soʻzga (jumlaga, matnga) javob reaksiyasi sifatida qayta tiklanadigan lisoniy birlik.

ASSOTSIATIV PSIXOLOGIYA 18–19-asrlarda yuzaga kelgan psixologik yoʻnalish; unda assotsiatsiya ong faoliyatining asosiy yoki hatto yagona mexanizmi hisoblangan. Mazkur yoʻnalish vakillari fikrlash jarayonlarini, maʼnaviy hayotni assotsiatsiya yordamida tushuntirib berishga harakat qilganlar. Assotsiativ psixologiya gʻoyalari birinchi boʻlib Platon va Arastu tomonidan ilgari surilgan.

ASSOTSIANIZM *ayn.* **assotsiativ psixologiya.**

ASSOTSIATIV LUGʻATLAR Oʻzaro assotsiativ bogʻlangan birliklar maydoni tavsiflanuvchi, til sohiblarining tashqi olam haqidagi psixologik tasavvuri, lisoniy tafakkuri ba xotirasi asosida yaratiluvchi lugʻatlar. D.Lutfullayevaning fikriga koʻra, bunday lugʻatlar muayyan tildagi assotsiativ munosabatga kirishuvchi lugʻaviy birliklar, ularning inson xotirasida shakllangan guruhlarini, assotsiativ birliklarning leksik-semantik, lingvomadaniy,

sotsiolingvistik, genderologik, pragmalingvistik xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi lug'at turi hisoblanadi.

ASSOTSIATIV MAYDON [Sh.Balli termini]. Eng katta doiradagi assotsiativ aloqadorliklar (ijtimoiy, tarixiy, psixologik obrazli birlashmalar, o'xshashlik, qarama-qarshilik, analogiya kabilar) asosida birlashgan so'zlarni o'z ichiga olgan leksik tizim; stimul so'zga javob reaksiyalari (assotsiatlar)ning yig'indisi. Assotsiativ maydon yadro (muntazam uchraydigan reaksiyalar) va chegara qism (nisbatan kam uchraydigan reaksiyalar)ni o'z ichiga oladi.

ASSOTSIATIV-VERBAL TARMOQ Til bilimining so'zning paradigmatic va sintagmatic aloqalari murakkab kesishmasini namoyon etuvchi, ommaviy assotsiativ tajribaga asoslangan ilmiy modeli.

ASSOTSIATSIYA [*lot.* associatio – birlashtirish; qo'shish; J.Lokk termini] Alohida olingan predmet, voqea-hodisa, faktlar aloqasining inson xotirasida aks etishi va saqlanishi; bir psixik element yuzaga kelishining inson xotirasida u bilan bog'liq boshqa bir psixik element obrazining paydo bo'lishiga olib kelishi.

AXBORIY-TAHLILIIY MATNLAR Nafaqat xabar berish, balki matn mazmunini sharhlash, tahlil qilish bilan farqlanuvchi mediamatnlar. Bunday matnlarda sharhlash, fikr bildirish va baholash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

AXBOROTCHI So'rovnomalar tarqatish, intervyu olish kabi usullar vositasida sotsiolingvistikaga doir ma'lumotlarni yig'ish uchun jalb qilinadigan shaxs.

AXLOQIIY QADRIYATLAR Insonning dunyoqarashiga xos bo'lgan tizim; u voqelikdagi hamma narsani yaxshilik va yomonlik nuqtayi nazaridan baholashni, baxt, adolat va insonparvarlikni anglashni o'z ichiga oladi, insonlarning hatti-harakatlari va ijtimoiy qadriyatlarining umumiy qabul qilingan tizimi o'rtasidagi aloqani o'rnatishga imkon beradi.

AXLOQIIY TO'SIQLAR Muloqot ishtirokchilarining axloqiy qadriyatlari va me'yorlari o'rtasidagi tafovut natijasida yuzaga keladigan kommunikativ to'siqlar; madaniy to'siqlarning turlaridan biri. Masalan, suhbatdoshlardan biri muloqotda odob-axloq, to'g'riso'zlik me'yorlariga amal qilishi, ikkinchisi esa qo'pol

iboralarni ishlatishi, yolgʻon gapirishi mumkin *q. kommunikativ toʻsiq.*

AVTOETNONIM Xalqlar va qabilalarga ularning oʻzi tomondan berilgan nom. Masalan: *ostigan* – ketlarning oʻziga bergan nomi.

AVTOMATIK LUGʻAT *q. elektron lugʻat.*

AYOL NUTQI Til birliklarining ayollarga xos boʻlgan qoʻllanishi, gender farqlanishning ayollar nutqida namoyon boʻlish shakli. Bunday farqlanishlar asosan leksik sath birliklarini, ayrim tillarda esa fonologik sath birliklarini ham qoʻllashda kuzatiladi.

B

BADIIY DISKURS Muallif va oʻquvchining sanʼat asarini yaratish va idrok etishning estetik omillari hisobga olingan holda badiiy asar orqali oʻrnatiladigan oʻzaro munosabatining mahsuli boʻlgan matn.

BADIIY KONSEPTLAR Adabiy lisoniy shaxsning universal tajribasini, dunyoqarashini, qadriyatlar tizimini oʻz ichiga olgan va yangi badiiy maʼnolarning shakllanishiga hissa qoʻshadigan mazmuniy va estetik kategoriya sifatida namoyon boʻluvchi konseptlar.

BADIIY MATN M. Yoʻldoshevning taʼrifiga koʻra, “...asosiy maqsad-mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qilgan matn.”

BADIIY METAFORALAR Obrazlilik, ekspressivlik, emotsionallikni yuqori darajada ifodalovchi metaforalar.

BAZAVIY METAFORALAR Sh.Maxmaraimovanning taʼrifiga koʻra, “...mifopoetik dunyoqarash asosida shakllangan, mazmun-mohiyati, ahamiyati vaqt oʻtishi bilan ham susaymaydigan, aksincha, maʼnosi barcha madaniyatlar vakillariga birday tushunarli boʻlgan metaforalar” bazaviy metaforalar hisoblanadi. Sh.Maxmaraimova “Hozirgi oʻzbek tili. Leksikologiya” nomli oʻquv qoʻllanmasi (Toshkent, 2021) da bazaviy metaforalarning quyidagi turlarini qayd etadi: antropomorf, teomorf, biomorf, zoomorf, fitomorf, ornitomorf, naturamorf, texnomorf, reimorf metaforalar.

BELGI DEYKSI Narsa-predmet, harakat belgisiga ishorani anglatuvchi deyksis.

BEMOR TIL Turli sabablarga ko‘ra yo‘q bo‘lish xavfi mavjud bo‘lgan til. Bunga ushbu tilning vazifaviy jihatdan zaif bo‘lishi, uning amal qilish sohalarining kamligi, til sohiblarining ozchilikni tashkil qilishi, boshqa tilning kuchli ta‘siri kabi omillar sabab bo‘lishi mumkin.

BEXABITIVLAR So‘zlovchining biror kishi tomonidan sodir etilgan xatti-harakatga, odatda, nutqiy etiketlar vositasida o‘z munosabatini bildirish mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlar; J.Ostin tomonidan illokutiv fe‘llar asosida tasnif qilingan nutqiy aktlar guruhlaridan biri. *q. verdiktivlar. q. ekzersitivlar. q. komissivlar. q. ekspozitivlar.*

BILIM Kishilarning kundalik tajriba, kuzatish orqali tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan ma‘lumotlari, voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Bilim, shuningdek, olam manzarasini shakllantiradigan verbal hamda noverbal tajribani qayta ishlash mahsuli bo‘lib, nisbiylik, o‘zgaruvchanlik, rivojlanish xususiyatlariga egadir. Epistemologiyadagi qarashlarga ko‘ra, perseptiv, hayotiy va ilmiy bilim shakllari farqlanadi.

BILISH NAZARIYASI Falsafaning bilish jarayonining bosqichlari va shakllarini, bilish qonuniyatlari va imkoniyatlarini, bilimning obyektiv voqelikka munosabatini, bilishning ishonchligi shartlari va mezonlarini tadqiq qiluvchi bo‘limi.

BILINGVIZM [*lot. bi – ikki + lingua – til*] Ikki tilda so‘zlay olish, ikki tildan foydalanish holati.

BILVOSITA AKT *ayn. ikkilamchi akt.*

BIRLAMCHI AKT Sh.Safarov fikriga ko‘ra, nutqiy akt verbal tuzilishining ifodalanayotgan kommunikativ ma‘noga mos kelishi; vositasiz nutqiy harakat.

BIRLAMCHI DEYKSIS Dialog jarayonida yuzaga chiquvchi deyksis.

BIRLAMCHI INTERPRETATSIYA A.Yuldashev talqiniga ko‘ra, “Olamdagi predmet va hodisalarning birlamchi konseptual-lashtirilishi va birlamchi kategoriyalashtirilishiga doir interpretatsiya; til vositasida bilim birliklari (konseptlar)ni ajratish hamda ularni umumiy lisoniy belgisi asosida kategoriyalarga birlashtirish. Voqelikdagi obyektlarning tabiiy ravishda kategoriyalashtirilishi birlamchi interpretatsiyaning natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.”

q. lisoniy interpretatsiya.

BIR TILLILIK Faqat bitta tilda – o‘zinig etnik tilida yoki boshqa bir tilda muloqot qilish holati. Bir tillilik tushunchasi alohida individlarga, kishilar guruhlariga va lisoniy hamjamiyatlarga nisbatan qo‘llanadi.

BLENDING NAZARIYASI *ayn.* **konseptual integrallashuv nazariyasi.**

BIOMORF LINGVOMADANIY KOD Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan hayvonot va o‘simliklar dunyosiga tegishli tushunchalarni anglatuvchi so‘z (yoki so‘zlar, so‘z birikmasi) tayanch komponent bo‘lgan lisoniy (nutqiy) birlik; lingvomadaniy kod turlaridan biri. Masalan: *O l m a n i n g tagiga olma tushadi; A r p a n g n i xom o‘rdimmi?; t u l k i d a y ayyor, m u s i ch a d a y beozor, sh e r yigit; i t azobida* kabi. Ushbu kodning antropomorf kod (*q.*), zoomorf kod (*q.*) va fitomorf kod (*q.*) lardan iborat 3 ta kichik turi bor.

BIXEVIORIZM [*ingl.* behaviour – xulq-atvor; J.B.Uotson termini] Odam va hayvon xulqini tashqi muhitdan ko‘rsatiladigan ta’sir (stimul)ga javoban yuzaga keluvchi xatti-harakatlar va unga tegishli bo‘lgan nutqiy va hissiy javoblarning majmuyi sifatida talqin qiluvchi yo‘nalish. Bixeviorizm XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Amerika psixologiyasining yetakchi oqimlaridan biri bo‘lgan. Deskriptivizm asoschisi hisoblangan L.Blumfeld va struktur tilshunoslikning bir qator namoyandalari ta’limotida o‘z aksini topgan. Bixeviorizm da ong, tafakkur, iroda kabi asosiy tushunchalar chetlashtirilganligi sababli hozirgi zamon psixologiyasida jiddiy tanqid qilinadi.

BROKA MARKAZI Miyaning chap peshona pastki orqa burmasida joylashgan, nutqni motorli tashkil etishni ta‘minlovchi hamda asosan fonologik va sintaktik kodifikatsiya bilan bog‘liq qismi; nutqiy markaz. 1865-yilda uni kashf etgan fransuz antropologi va jarrohi Pol Pyer Broka nomi bilan atalgan.

BOTINIY NUTQ *ayn.* **ichki nutq.**

BOG‘LI ASSOTSIATIV TAJRIBA [D.Lutfullayeva termini] Sinaluvchilarga stimul so‘zga chegaralangan vaqtda (ko‘pincha 1 daqiqa ichida) istalgan miqdordagi bir-biriga bog‘li

assotsiatsiyalarni ifoda etish vazifa qilib beriladigan psixolingvistik tajriba. *q. lingvistik assotsiativ tajriba metodi.*

BUYRUQ-ISTAK MAZMUNLI MATN [M.Yo‘ldoshev termini] Buyruq, istak, maslahat, undash, da‘vat mazmuni yetakchilik qiluvchi matn; badiiy matnning mazmuniy turlaridan biri. M.Yo‘ldoshev fikriga ko‘ra, matnning mazkur turi asosan asar qahramonlari nutqida kuzatiladi. *q. hikoya mazmunli matn.*

BUYRUQ NUTQIY AKTI Buyruq mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlar.

D

DAVLAT TILI Muayyan mamlakatda davlat hokimiyati organlari, muassasalar, korxonalar va tashkilotlarning ish yuritishi uchun rasman belgilangan, qonun yo‘li bilan muhofaza qilinadigan, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida qo‘llanadigan, aholining ko‘pchilik qismi so‘zlashadigan va davlat ramzlaridan biri hisoblanadigan til. Odatda, ko‘p millatli mamlakatlarda qaysi til yoki tillar davlat tili ekanligi o‘sha mamlakatning konstitutsiyasida belgilab qo‘yiladi.

DENOTATIV MADANIY KONTEKST To‘g‘ridan to‘g‘ri, eksplitsit shaklda ifodalangan madaniy ahamiyatga ega ma‘lumotlar. Denotativ madaniy kontekst ma‘lum bir madaniyatga xos bo‘lgan voqelikni bildiruvchi so‘zlar bilan ifodalanadi. Bular taniqli odamlarning ismlari, siyosiy partiyalar nomlari, ko‘chalar, tarixiy joylar, me‘moriy yodgorliklar, shuningdek, u yoki bu madaniyatga xos hodisa yoki artefakti bildiruvchi so‘zlar bo‘lishi mumkin.

DEKLARATIVLAR Obyektiv voqelikdagi muayyan holatning o‘zgartirilishi mazmunidagi nutqiy harakatlar; J.Serl tomonidan illokutiv maqsad, bu maqsadga erishish usuli, mazmunning haqqoniyligi kabi tamoyillar asosida tasnif qilingan nutqiy aktlar guruhlaridan biri. *q. assertivlar. q. direktivlar. q. komissivlar. q. ekspressivlar.*

DEKODLASH Adresant tomonidan uzatilgan axborotning adresat tomonidan tushunilishi, talqin qilinishi.

DIDAKTIK MATN [M.Yo‘ldoshev termini] O‘quvchi yoki

tinglovchiga pand-nasihat qilish, uni tarbiyalash maqsadida tuzilgan matn; badiiy matnning mazmuniy turlaridan biri. **q.hikoya mazmunli matn.**

DISKURSSHUNOSLIK Til va matnga doir jarayonlarni jamiyatning turli sohalarida qo'llanilishi kontekstida o'rganadigan yo'nalish. Diskursshunoslikda og'zaki, yozma, medianutq kabi diskurs turlari tadqiq etiladi. Til va matn orqali mazmun qay tarzda shakllantirishi va yetkazishi, diskursning funksiyalari va maqsadlari, tuzilishi, uning odamlar o'rtasidagi o'zaro muloqotga, shuningdek, ijtimoiy va madaniy me'yorlar va qadriyatlarni shakllantirishga ta'siri kabilar diskursshunoslikning asosiy masalalari hisoblanadi. Ko'pchilik mutaxassislar diskursshunoslikni kommunikativ tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etadilar.

DERIVATSION ASSOTSIATSIYALAR [D.Lutfullayeva termini] So'zlarning yasalishiga asoslangan assotsiatsiyalar. Bunda so'z va u orqali hosil bo'lgan yasalmalar yoki yasalma va bu yasalmaning yasalish asosi o'rtasidagi aloqalar assotsiativ bog'lanishlarni yuzaga keltiradi. Masalan, *gul* so'zining *gulzor*, *gullamoq*, *gulchi*, *gulli*, *gulsiz* so'zlarini yodga tushirishi; *ishlamoq*, *ishchi*, *ishsiz*, *ishchan* so'zlarining *ish* so'zini eslatishi.

DESKRIPTIV BO'LMAGAN SO'ZLAR Obyektiv borliqdagi muayyan narsalar, hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlariga ishora qiluvchi, ma'nosi kontekstda, muayyan nutq vaziyatiga bog'liq tarzda anglashiluvchi so'zlar.

DESKRIPTIV SO'ZLAR [*ingl.* deskriptive – tasviriy] Obyektiv borliqdagi muayyan narsalarni, hodisalarni, belgi-xususiyatlarni, harakat-holatlarni nomlash xususiyatiga ega bo'lgan, aniq denotativ ma'noli so'zlar.

DEYKSIS So'zlovchi shaxs yoki nutq momentiga muayyan munosabatda bo'lgan shaxslar, narsalar, hodisalar va belgilarga til birliklari yoki boshqa belgilar orqali ishora qilish.

DEYKTIK BIRLIKLAR Ma'nosi nominativ birliklarning ma'nosiga tenglashtiriladigan va bilvosita aniqlanadigan til birliklari.

DEYKTIK ELEMENTLAR *ayn.* **deyktik birliklar.**

DEYKTIK IBORALAR *ayn.* **deyktik birliklar.**

DEYKTIKLAR *ayn.* **deyktik birliklar.**

DIALEKT [*yun.* dialectos – sheva, lahja] Hududiy, ijtimoiy

jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan jamoa tomonidan muloqot vositasi sifatida qo‘llaniladigan til ko‘rinishi, turlaridan biri. Dialektning sotsial dialekt (*q.*) hamda hududiy dialekt (*q.*) turlari farqlanadi.

DIALEKTAL BELGIGA ASOSLANGAN ASSOTSIATSIYALAR [D.Lutfullayeva termini] Leksemalarning dialektal belgisiga asoslangan assotsiatsiyalar. Bunda shevaga oid so‘zlar adabiy tildagi muqobillari bilan assotsiativ juftlikni hosil qiladi. Masalan: *yumurtqa – tuxum, gartak – ozgina, qaroli – olxo‘ri, checha – kelinoyi, kallapo‘sh – do‘ppi, qaytish qilmoq – o‘lmoq* kabi.

DIAXRONIK LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK Lingvomadaniyatshunoslikning biror etnosning muayyan davrdagi lingvomadaniy holatini o‘rganuvchi bo‘limi.

DIGLOSSIYA [*yun. di – ikki va glotta – til*] **1** Bir tilning ikki ko‘rinishi yoki hududiy dialektida muloqot qila olish va sharoitga ko‘ra tilning bir subkodidan ikkinchi subkodiga o‘tish; bilingvizmning muayyan ko‘rinishi yoki turi.

2 Birdan ortiq tillarni muloqot vaziyatiga ko‘ra galma-gal qo‘llay olish.

DIKTAL MA’NO Sintaktik birliklar vositasida ifodalangan obyektiv mazmun, jumlaning obyektiv voqelik bilan bog‘liq ma’nosi.

DIKTUM *ayn. diktal ma’no.*

DINAMIK AFAZIYA Peshona old qismi po‘stlog‘ining shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan nutq buzilishi. So‘zlash ishtiyoqining yo‘qligi, berilgan savollarga murakkab bo‘lmagan sodda jumlar orqali javob qaytarish va suhbatdoshining jumlarini takrorlash, uzun jumlarni yetarlicha tushunmaslik kabilar bilan xarakterlanadi.

DIREKTIVLAR Tinglovchini biror faoliyatga undash maqsadida amalga oshiriluvchi buyruq, iltimos, ogohlantirish, so‘roq mazmunidagi nutqiy harakatlar; J.Serl tomonidan illokutiv maqsad, bu maqsadga erishish usuli, mazmunning haqqoniyligi kabi tamoyillar asosida tasnif qilingan nutqiy aktlar guruhlaridan biri. *q. assertivlar. q. komissivlar. q.deklarativlar. q. ekspressivlar.*

DISKURS [*lot. discursus – suhbat; asos < fr. discourse – nutq*] Pragmatik, psixologik, ijtimoiy-madaniy kabi nolisoniy omillar bilan uzviylikda yondashiladigan bog‘lanma matn; voqeaning

kechishi nuqtayi nazaridan hamda maqsadli ijtimoiy harakat sifatida, shuningdek, odamlarning o‘zaro munosabati va ularning ongidagi kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan komponent sifatida qaraladigan nutqiy tuzilma.

DISKURS DEYKSISI Matnning muayyan tarkibiy qismiga ishorani anglatuvchi deyksis.

DISKURSIV TAHLIL USULI Muayyan matnni ommaviy muloqot ishtirokchilarining, uni yaratgan va idrok etgan odamlarning ijtimoiy manfaatlari va siyosiy qarashlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-mafkuraviy aloqalar prizmasi orqali tahlil qilishdan iborat usul.

DUNYO MANZARASI *ayn.* **olam manzarasi.**

DUNYO OBRAZI *ayn.* **olam manzarasi.**

DUNYO TASVIRI *ayn.* **olam manzarasi.**

E

EGOTSENTRIK SO‘ZLAR *ayn.* **deyktik birliklar.**

EKSPOZITIVLAR [*ingl.* – izoh, tavsif, tushuntirish] Muloqot vaqtida (suhbat, bahs kabilarda) so‘zlovchining o‘z fikrini izohlashi, tasdiqlashi yoki tushuntirishi asnosida yuzaga keladigan nutqiy harakatlar; J.Ostin tomonidan illokutiv fe‘llar asosida tasnif qilingan nutqiy aktlar guruhlaridan biri. *q.* **verdiktivlar.** *q.* **ekzersitivlar.** *q.* **komissivlar.** *q.* **bexabitivlar.**

EKSPRESSIVLAR Tabriklash, muborakbod qilish, ta’ziya bildirish kabi mazmun ifodalangan nutqiy harakatlar; J.Serl tomonidan illokutiv maqsad, bu maqsadga erishish usuli, mazmunning haqqoniyliigi kabi tamoyillar asosida tasnif qilingan nutqiy aktlar guruhlaridan biri. *q.* **assertivlar.** *q.* **direktivlar.** *q.* **komissivlar.** *q.* **deklarativlar.**

EKSPRESSIV TAGMA’NO Tagma’no ko‘rinishlaridan biri. M.Hakimov fikriga ko‘ra, so‘zlovchi nazarda tutgan niyatga uning his-tuyg‘ularining ham qo‘shib ifodalanishi.

EKZERSITIVLAR Odatda, rahbar xodimlar va hukmron shaxslar tomonidan o‘z mavqeyi va huquqidan foydalangan holda amalga oshiriluvchi buyruq, maslahat, ogohlantirish mazmunidagi

nutqiy harakatlar; J.Ostin tomonidan illokutiv fe'llar asosida tasnif qilingan nutqiy aktlar guruhlaridan biri. *q. verdiktivlar. q. komissivlar. q. bexabitivlar .q. ekspozitivlar.*

EKZOGLOSS LISONIY VAZIYAT. Har xil tillar majmuyi.

EKZOTIK LEKSIKA [*yun. exotikos – yot, kelgindi*] Boshqa tillardan o'zlashgan, nutqqa alohida tus berish uchun qo'llanadigan so'z va iboralar; muqobilsiz leksika turlaridan biri.

ELEKTRON LUG'ATLAR Elektron shaklda foydalanish uchun yaratilgan maxsus lug'atlar.

EMFATIK URG'U So'zlovchi tomonidan ifoda elementlaridan birining uzoq va yuqori ton bilan talaffuz qilinishi.

EMOTSIONAL DEYKSIS Deyksisning nutqiy muloqot ishtirokchilarining emotsional holatiga ishorani anglatuvchi turi.

EMOTSIONAL KONSEPTLAR Inson ongida emotsional kechinmalar haqidagi tasavvurlarni aksiologik baho uzvi mavjud bo'lgan universal yoki madaniy shartlangan tushunchalar shaklida in'ikos etuvchi, leksema, frazeologizm ko'rinishida voqelanuvchi mental birliklar.

ENANTIOSEMIYA Umumiy semantik belgiga ega bo'lgan, bosh va hosila ma'nolar evaziga yuzaga keladigan, bir-biriga zid bo'lgan ikki xil ma'noning bitta lug'aviy birlik vositasida ifodalanishi.

ENDOGLOSS LISONIY VAZIYAT Bir tilning tarmoqlari (subtizimlari) majmuyi.

EPISTEMOLOGIYA [*yun. episteme + logos – ta'limot*] Bilim, uning tuzilishi, amal qilishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan falsafiy-metodologik fan.

ERGONIM Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, firmalar, korporatsiyalar, sport jamiyatlari, savdo, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari nomlarini anglatuvchi onomastik tizim birligi.

ERKAKLAR NUTQI Til birliklarining erkaklarga xos bo'lgan qo'llanishi, gender farqlanishning erkaklar nutqida namoyon bo'lish shakli.

ERKIN ASSOTSIATIV TAJRIBA Sinaluvchilarga stimuly so'z bo'yicha xotiralariga kelgan birinchi javob reaksiyasini bayon etish vazifa qilib beriladigan psixolingvistik tajriba. *q. lingvistik assotsiativ tajriba metodi.*

ESPERANTO 1887-yilda polshalik vrach L.L.Zamengof tomonidan kashf qilingan, asosan, yunon-lotin tillari materiallari asosida yaratilgan xalqaro sun'iy, rejalashtirilgan va yordamchi til. Esperanto grammatikasi tabiiy tillar grammatikasiga nisbatan ancha sodda bo'lib, morfologiya va so'z yasalishiga doir 16 ta qoidasi mavjud. Shuningdek, grammatik qoidalar qat'iy me'yorlashgan, qo'shimchalar soni ham ko'p emas. Esperanto butun dunyoda, ayniqsa Yevropada mashhur sun'iy tillardan biri hisoblanadi.

ESTETIK TO'SIQLAR Muloqot ishtirokchilarining estetik didi, o'dob-axloqi, qarashlari o'rtasidagi tafovutlar sababli yuzaga keladigan kommunikativ to'siqlar; madaniy to'siqlarning turlaridan biri. *q. kommunikativ to'siq.*

ETALON Biror shaxs yoki narsani boshqa bir shaxs yoki narsaga qiyoslash uchun tanlangan nisbatan barqapop, milliy-etnik xususiyatga ega bo'lgan namunaviy obraz. Etalonlar ko'proq turg'un o'xshatishlar tarkibida mavjud bo'ladi. Masalan, chiroyli ko'z o'zbek tilida ohuning, qozoq tilida bo'taloqning, qirg'iz tilida sigirning ko'ziga o'xshatilsa, rus tilida smorodina, oyna, osmon kabilarga qiyoslanadi.

ETNIK STEREOTIP Muayyan etnos vakillarining tafakkuri, mentaliteti va xulq-atvori haqida shu etnosga mansub shaxslar yoki boshqa etnos vakillarining tarixan shakllangan tasavvurlari.

ETNOLINGVISTIKA [*yun.* ethnos – xalq + *lot.* lingua – til] 1 Tilning ma'naviy madaniyat, xalq mentaliteti, xalq ijodi bilan munosabati va aloqadorligini tadqiq etuvchi soha. Shevashunoslik, folklor tili, til tarixi (uning tarixiy shevashunoslik, xalqning etnik va madaniy tarixi bilan bog'liq jihatlari) etnolingvistika tarkibiga kiruvchi sohalar hisoblanadi.

2 Tilning madaniyat bilan, shuningdek, etnomadaniy va etnopsixologik omillar bilan munosabatini diaxronik planda o'rganuvchi soha.

ETNOPSIXOLINGVISTIKA [*yun.* ethnos – xalq + *psuche* – qalb + *lot.* lingua – til] Nutqiy amaliyotlar, nutqiy faoliyat va uning yaxlit aktlari, lisoniy ong, shuningdek, nutqiy muloqot jarayonlarining yuzaga kelishiga xos bo'lgan milliy-madaniy variantlilikni o'rganuvchi soha; psixolingvistikaning bir bo'limi.

ETNOS [*yun.* ethnos – qabila, elat, xalq] Kishilarning ma'lum

bir tarixiy davrda va ijtimoiy tuzumda tarkib topgan alohida barqaror etnik uyushmasi. Etnos ma'lum bir tarixiy sharoitda, hududiy, iqtisodiy, lisoniy va madaniy umumiylik asosida shakllanadi.

ETNOSEMANTIKA *ayn. etnolingvistika.*

EVFEMIZM [*yun. euphemismos* < *ey* – yaxshi + *phemi* – gapiraman] Narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi verbal ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol botmaydigan so'z, iborani qo'llash.

F

FATIK AKT So'zlovchi tomonidan so'z va iboralarning muayyan grammatik qoidalar asosida talaffuz qilinishi.

FAZO LINGVOMADANIY KODI Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan fazo, koinot bilan bog'liq tushunchalarni anglatuvchi so'z (yoki so'zlar, so'z birikmasi) tayanch komponent bo'lgan lisoniy (nutqiy) birlik. Masalan: *yettinchi o s m o n d a uchib yurmoq, o y yuzli, estrada y u l d u z i, y u l d u z l i onlar* kabi.

FILOLOGIK VERTIKAL KONTEKST Matn mazmunidan implikativlik vositalari orqali assotsiativ ravishda idrok qilinuvchi muayyan filologik xarakterdagi axborot. Masalan: *Asar, ayniqsa katta polotno yaratayotgan adib notanish orolga borib qolgan sayyohga o'xshaydi. Ro'parasidagi bir varaq oq qog'oz – notanish orol. Bu orolga u Robinzon Kruzoga o'xshab, adashib emas, o'z ixtiyori bilan boradi. U orolni obod qiladi, bog'-bo'ston yaratadi.* (O'.Hoshimov) *“Men odam edim-ku, inson farzandi!”* Bu – yetim *G'afurning malomat bandi* (A.Oripov).

FITOMORF LINGVOMADANIY KOD Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan o'simliklar dunyosiga tegishli tushunchalarni anglatuvchi so'z (yoki so'zlar, so'z birikmasi) tayanch komponent bo'lgan lisoniy (nutqiy) birlik; biomorf kod turlaridan biri. Masalan: *Ch i l l a k i chillakini ko'rib chumak uradi; bir qop y o n g' o q, uying b u g' d o y g a to'lgur, sh o l g' o m d a y qizarmoq* kabi.

FITOMORF METAFORALAR O‘simlik va uning belgi-xususiyatini nomlovchi so‘zlarni jonli mavjudotlar va predmetlarga nisbat berish asosida hosil bo‘lgan metaforalar, bazaviy metafora turlaridan biri. *q. bazaviy metaforalar.*

FONETIK AKT So‘zlovchi tomonidan unga ma’lum bo‘lgan tovushlarning talaffuz qilinishi.

FONETIK TO‘SIQLAR So‘zlovchi nutqining fonetik o‘ziga xosligi (duduqlanish, ayrim tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmaslik, ming‘irlab gapirish, juda tez gapirish va b.) sababli yuzaga keladigan kommunikativ to‘siqlar. *q. kommunikativ to‘siq.*

FRAZEOLOGIK KONSEPTLAR Tilda muayyan frazeologizm vositasida ifodalanuvchi konseptlar.

FREYM [*ingl.* frame – ramka; M.Minskiy termini] Birgalikda harakatlanadigan va bir-birini taqozo etadigan ma’ntiqiy idrok elementlarining o‘zaro munosabati asosida yuzaga keladigan ko‘p qismli va ko‘p tabaqali kognitiv tuzilma; muayyan tushuncha atrofida uyushgan bilimlarning mazmun birligi. N.N.Boldirev xulosasiga ko‘ra, “freym bu – strukturaviy bilim birligi bo‘lib, unda muayyan tarkibiy qismlar va ular o‘rtasidagi munosabatlar ajratiladi. Freym tez-tez takrorlanib turuvchi ma’lum bir vaziyat hamda uning tuzilishi haqidagi bilim va fikrlarni uzatuvchi kognitiv modeldir.”

G

GENDER LINGVISTIKA [*ingl.* gender – jins + lingvistika] Nutqiy faoliyatda genderga xos xususiyatlarning aks etishi, ushbu jarayon asosida qanday lisoniy mexanizmlar yotishi, shuningdek, genderning qanday vositalar va kontekstlarda namoyon bo‘lishi hamda bunda ijtimoiy omillar va kommunikativ muhitning o‘rni kabi masalalarni o‘rganuvchi yo‘nalish; sotsiolingvistikaning bir tarmog‘i.

GENDER METAFORA Faqat bir jinsga nisbatan qo‘llanuvchi metaforik ma’noli so‘z yoki birikma. Masalan, ayol jinsidagi shaxsga nisbatan qo‘llanuvchi *gul, malak, oy*; erkak jinsidagi shaxsga nisbatan qo‘llanuvchi *sher, arslon, lochin, toychoq, qo‘zichoq* kabi so‘zlar.

GENDER VARIATIVLIK Tilda gender jihatidan shartlangan muqobil til komponentlarining mavjudligi.

GENDER XUSUSIYATLI ASSOTSIATSIYALAR Leksemalarning gender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiyalar. Gender xususiyatli assotsiatsiyalar gender markerli leksemalarning boshqa shunday belgiga ega leksik birliklar bilan assotsiativ bog‘lanishlari asosida hosil bo‘ladi. Masalan: *bola – o‘g‘il bola, ayol – xotin; chol – kampir, er – xotin* kabi.

GETEROGEN LISONIY VAZIYAT Tarkibida qarindosh bo‘lmagan tillar komponent sifatida mavjud bo‘lgan lisoniy vaziyat.

GESHTALT [*nem.* Gestalt – obraz, tuzilma, shakl; X.Erenfels termini] Ongdagi alohida predmet va hodisalarning xilma-xilligi haqidagi bilimlarni tartibga soluvchi, tafakkurga xos yaxlit va murakkab funksional tuzilma; biror-bir predmet yoki hodisaning yaxlit tarzda idrok qilinishi. Geshtalt o‘zida aqliy va hissiy unsurlar qo‘shilmasini hamda aks ettirilayotgan predmet yoki hodisaning o‘zgaruvchan va turg‘un xususiyatlari birlashuvini namoyon qiluvchi yaxlit obraz hisoblanadi.

GIPERMATN (*yun.* hyper – super + matn) Giperhavolalar (elektron havolalar) vositasida boshqa elektron hujjatlarga o‘tish imkoni mavjud bo‘lgan matn.

GLOBAL [*fr.* global – umumiy < *lot.* globus – shar] Umum-bashariy, jahon ahamiyatiga ega.

GLOBALLASHUV [*fr.* global – umumiy so‘zidan] Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hodisalarning umuminsoniy miqyosga ega bo‘lishi.

GNOSEOLOGIYA *q. bilish nazariyasi.*

GOMOGEN LISONIY VAZIYAT. Tarkibida qarindosh tillar komponent sifatida mavjud bo‘lgan lisoniy vaziyat.

H

HAMKOR MENTAL MAYDONLAR Konseptual integratsiyaning asosi hisoblangan “to‘rt maydon” modelini tashkil etuvchi birinchi va ikkinchi mental maydonlarning umumiy nomi. *q. “to‘rt maydon” modeli.*

HIKOYA MAZMUNLI MATN [M.Yo‘ldoshev termini] M.Yo‘ldoshev tomonidan badiiy matnning 7 ta mazmuniy turi aniqlangan bo‘lib, hikoya mazmunli matn ana shu turlardan biri sifatida belgilangan va u “muallif yoki asar qahramoni o‘zi boshidan o‘tkazgan, eshitgan, o‘qigan yoki guvoh bo‘lgan biror-bir voqea hikoya qilib berilgan” matn tarzida ta’riflangan. (M.Yo‘ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent, 2019)

HISSIY IFODA MAZMUNLI MATN [M.Yo‘ldoshev termini] Shaxsning ichki kechinmalari, voqelikka munosabati yuqori pafos bilan ifodalangan matn; badiiy matnning mazmuniy turlaridan biri. *q. hikoya mazmunli matn.*

HUDUDIY DIALEKT Ma’lum bir hudud doirasidagina qo‘llanadigan, boshqa dialektlar va adabiy tildan o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik jihatdan muayyan farqlarga ega bo‘lgan til ko‘rinishlaridan biri.

I

IBORA Lingvomadaniyatshunoslikda: til sohiblarining milliy-obrazli tafakkur tarzini namoyon etuvchi, aksiologik munosabatini yaqqol ko‘rsatuvchi, lingvomadaniy kodlar vositasida shakllantirilgan ko‘chma ma’noli turg‘un birlik yoki gap; olam lisoniy manzarasining kichik bir qismi.

IDEALLASHGAN KOGNITIV MODELLAR (IKM) NAZARIYASI Inson miyasidagi bilimlarni tashkillashtiruvchi kognitiv tuzilmalarni modellashtirishga doir nazariya. Ushbu nazariyani yaratgan J.Lakoffning xulosasiga ko‘ra, lisoniy faoliyatda umumiy kognitiv mexanizmlardan foydalanish ushbu mexanizmlarda ishtirok etuvchi tuzilmalarni modellashtirish imkonini beradi. J.Lakoff buning quyidagi turlarini belgilagan: 1) propozitsional tuzilmalar; 2) obrazli-sxematik tuzilmalar; 3) metaforik tuzilmalar; 4) metonimik tuzilmalar.

IDIOLEKT [*yun.* idios – o‘ziga xos, alohida + (dia)lekt]
1 Muayyan shaxs nutqiga xos bo‘lgan xarakterli belgilar.

2 Individ nutqida turli til variantlari (hududiy va sotsial dialektlar, gender)ning qo‘llanilishi.

IDROK Inson miyasi (ongi)da sodir bo‘luvchi, ma’lumotlarni qabul qilib, qayta ishlash jarayoni. Idrok ijodiy jarayon hisoblanib, insonga obyektiv reallikni aks ettirish, tashqi olamdagi yangi vaziyatlarni baholash va shunga ko‘ra harakat qilish imkonini beradi.

IDROK INTIZOMI [N.Mahmudov termini] *kogn.tlsh.* Muayyan til jamoasiga tegishli bo‘lgan o‘ziga xos milliy, madaniy hamda estetik qadriyatlar ta’sirida shakllangan dunyoni qabul qilish, idrok etish tarsi va tartiboti.

IJTIMOY ASSOTSIATSIYALAR Lisoniy birliklarning ijtimoiy belgisiga asoslangan assotsiatsiyalar. Ijtimoiy assotsiatsiyalar bir-biri bilan o‘zaro aloqador kasb egalarini, shuningdek, shaxslarning sotsial muhitdagi mavqeyini ifoda etishi asosida assotsiativ bog‘lanishlarni hosil qiladi. Masalan: *direktor – direktor o‘rinbosari, ilmiy rahbar – dissertant, domla – talaba* kabi. Biror-bir sotsial guruhlar nutqiga xos leksik birliklarning shu guruh egalariga ishora qilishi ham ijtimoiy assotsiatsiya hisoblanadi. Masalan: *mullajiring – otarchi, soqqa – olibsotar* kabi.

IJTIMOY DEYKSIS Nutqiy akt ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyiga ishorani anglatuvchi deyksis.

IJTIMOY-KOMMUNIKATIV TIZIM [A.D.Shveytser termini] Muayyan lisoniy hamjamiyat tomonidan foydalaniladigan, funksional jihatdan bir-birini to‘ldiradigan va o‘zaro aloqada bo‘lgan kodlar yoki subkodlar majmuyi.

IJTIMOY KONNOTATSIYA Biror so‘z yoki jumlani talafuz qilish vaqtida paydo bo‘ladigan hamda ushbu jamiyatda umum tomonidan qabul qilingan assotsiatsiyalar haqidagi bilim. Ijtimoiy konnotatsiya ijtimoiy hamda milliy omillar bilan shartlangan bo‘lib, tilni egallashning milliy-madaniy darajasi uzvlaridan biri hisoblanadi.

IJTIMOY MAQOM Shaxsning jamiyatdagi mavqeyi, uning jamiyatning boshqa a‘zolari bilan munosabatlarini belgilaydigan turli ijtimoiy bosqichlardagi doimiy yoki vaqtinchalik o‘rni.

IJTIMOY ROLLAP Muayyan ijtimoiy pozitsiyani egallagan har bir kishidan kutiladigan, jamiyat tomonidan tartibga solinadigan, insonning ijtimoiylashuvi jarayonida o‘zlashtiriladigan xatti-harakatlar.

IJTIMOIIY-TARIXIY VERTIKAL KONTEKST Matn mazmunidan implikativlik vositalari orqali assotsiativ ravishda idrok qilinuvchi ijtimoiy-tarixiy xarakterdagi axborot. Masalan: *Biz barimiz Orol va orolchalarmiz. Toki bir-birimizni asrashni bilmas ekanmiz, bitta-bitta quriyveramiz.* (M.Yusuf) *qiyos.* **filologik vertikal kontekst.**

IJTIMOIIY TO‘SIQLAR Ijtimoiy qadriyatlarning mos kelmasligi hamda ijtimoiy rollarning nomufvofiqligi (ijtimoiy maqom, kasbiy, ilmiy salohiyatning teng emasligi kabilar) sababli yuzaga keladigan kommunikativ to‘siqlar. *q. kommunikativ to‘siq.*

IJTIMOIIY VARIATIVLIK Ijtimoiy variativlik sotsiolingvis-tikaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanib, tilda ijtimoiy shartlangan muqobil til komponentlarining mavjudligini anglatadi.

IKKILAMCHI AKT Sh.Safarov ma’lumotiga ko‘ra, “lisoniy struktura va kommunikativ maqsad o‘rtasidagi nomutanosiblik”; bilvosita nutqiy harakat. Masalan, iltimos mazmunining so‘roq gap vositasida ifodalanishi ikkilamchi aktga misol bo‘la oladi: *Ustoz, menga ilmiy ishim bo‘yicha maslahat bera olasizmi?*

IKKILAMCHI DEYKSIS Deyksisning o‘zaro nutqiy muloqotda yuzma-yuz holatda bo‘lmagan so‘zlovchi va tinglovchining muayyan o‘rin-joyga ishorasi hamda nutqiy akt jarayonini bayon qilishda yuzaga chiquvchi turi.

IKKILAMCHI INTERPRETATSIYA Muayyan insonning individual konseptual tizimidan o‘rin olgan jamoaviy bilimlar va jamoaviy kognitiv sxemalarga doir interpretatsiya. Ikkilamchi interpretatsiya insonning olam bilan munosabatida hosil qilingan shaxsiy tajribalariga asoslangan holda dunyoni anglashi, uni talqin qilish jarayoni hamda ushbu jarayonning natijasi bo‘lib, qayta konseptuallashtirish va qayta kategoriyalashtirish bilan bog‘liq tarzda kechadi. A.Yuldashev fikriga ko‘ra, avvaldan mavjud bo‘lgan hamda verbal ifodalangan predmet va hodisalarni baholash xarakteridagi bilimlar ikkilamchi interpretatsiyaning obykti hisoblanadi. Ikkilamchi interpretatsiya subyektivlik xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli tilda asosan modal va baholash kategoriyalari, emotsionallik, ekspressivlik hodisalari, funksional uslublarga oid til birliklari orqali voqelanadi. *q. lisoniy interpretatsiya.*

IKKILAMCHI NOMLAR Atoqli otlar; borliqdagi narsa va hodisalarni bevosita nomlamaydigan lisoniy birliklar.

IKKI TILLILIK *ayn.* **bilingvizm.**

ILLOKUTIV AKT [*ingl.* illokutonari akt] Biror-bir ifodani talaffuz qilish jarayonidagi kommunikativ niyat; soʻzlovchi nutqiga oid kommunikativ niyatning ochiq va yashirin shakli.

ILLOKUTSIYA KUCHI M.Hakimov fikriga koʻra, illokutsiya kuchi tushunchasi “soʻzlovchining idrok qilish qobiliyati hamda uni bayon qilishdagi illokutsion imkoniyat darajalari”ni bildiradi.

ILMIY BILIMLAR PARADIGMASI [T.Kun termini] Lingvistik hamjamiyatda keng qabul qilingan, koʻpchilik tomonidan eʼtirof etilgan muayyan yondashuv, nazariya, model yoki tadqiqot usuli.

ILMIY DISKURS Yangi, konseptual ilmiy bilimlarni bosqichma-bosqich shakllantirgan holda ularni matn vositasida ifodalash va asoslash jarayoni.

“ILTIFOT” MULOQOT STRATEGIYASI Suhbatdoshi bilan yaxshi aloqa oʻrnatish maqsadida unga manzur boʻladigan vaziyatni yuzaga keltirishni koʻzlaydigan nutqiy harakatlar asosida amalga oshiriladigan strategiya.

“ISHONTIRISH” MULOQOT STRATEGIYASI Tinglovchini oʻz tarafdori qilish maqsadida argumentlar va undash asosida amalga oshiriladigan strategiya.

ILTIMOS NUTQIY AKTI Iltimos mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlar.

IMPLIKATURA [*lot.* implicatio – bogʻlanish; A.P.Grays termini] Nutqiy aktda bevosita til birliklari bilan ifodalanmagan va uzatilgan axborotni interpretatsiya qilish natijasida anglashiladigan, soʻzlovchi nazarda tutgan yashirin mazmun; gap (matn)ning semantik-pragmatik uzvi.

INDEKSIKALLAR *ayn.* **deyktik birliklar.**

INDIKATIV BOʻLMAGAN SOʻZLAR *ayn.* **deskriptiv boʻlmagan soʻzlar.**

INDIKATIV SOʻZLAR *ayn.* **deskriptiv soʻzlar.**

INDIVIDUAL ASSOTSIALTLAR Real obyektivlikning individual tarzda idrok etilishi asosida hosil boʻladigan, yakka shaxsning hayotiy tajribasi asosida shakllangan voqelik haqidagi

bilimlari, qarashlari, ruhiyati kabilar haqida ma'lumot beradigan assotsiatsiyalar.

INDIVIDUAL BILINGVIZM Alohida bir odamda kuzatiluvchi bilingvizm.

INDIVIDUAL ILLOPERLOKUTIV AKT So'zlovchi va tinglovchi uchun ma'lum bo'lgan lingvistik akt.

INDIVIDUAL-MUALLIFIY KONSEPTLAR *ayn.* **badiiy konseptlar.**

INFORMANTLAR *ayn.* **sinaluvchilar.**

INFORMEMA Turli sathga oid lisoniy vositalarning aqliy va intellektual axborotni ifoda etuvchi ko'rinishlari.

IMPERATIVLIK Undash, ishontirish, da'vat qilish mazmunining turli lisoniy birliklar vositasida ifodalanishi.

IMPLITSIT IFODA Shaklan ixcham, mazmunan yoyiq yashirin ifoda.

INPUT *ayn.* **hamkor mental maydonlar.**

INSTITUTIONAL DISKURS Ma'lum bir jamiyat me'yorlariga muvofiq muloqot qilishi lozim bo'lgan odamlar o'rtasida amal qiluvchi maxsus, turg'unlashgan muloqot turi. Bunday diskursda muloqot ishtirokchilarining muayyan ijtimoiy institut vakili sifatidagi xususiyatlari asosiy o'ringa chiqadi.

INTERFERENSIYA [*lot.* inter – o'rtada, orada *va* ferens – tashuvchi] **1** Ikki tilni egallagan shaxslar nutqida kuzatiladigan hodisa: bilingvizmda til tizimlarining o'zaro ta'siri natijasida o'sha tillardan birida lisoniy me'yordan chetga chiqish holati.

2 Ona tili ta'sirida ikki tilni egallagan shaxsning ikkinchi tildagi og'zaki yoki yozma nutqida lisoniy me'yordan chetga chiqish holati

INTERLINGVISTIKA R.Dekart tadqiqotlarida ilgari surilgan qarashlar asosida shakllangan, tilshunoslikning xalqaro maydonda amal qiluvchi muloqot tili muammolari va turli yordamchi tillarning faoliyati bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi bo'limi. Jamiyatning tilga ongli ta'siri, til siyosati va tilni rejalashtirish, ilmiy va texnik nomenklaturaning xalqaro standartlashtirilishi masalalari ham interlingvistikaning tadqiqot obyekti hisoblanadi.

INTERMATN [*lot.* inter – oraliq + matn] *ayn.* **intertekstual matn.**

INTERMATNLIK *ayn.* **intertekstuallik.**

INTERPRETATSIYA 1 Individual shaxsning lingvistik-kognitiv faoliyati. Mazkur faoliyat natijalarida shaxsning interpretatsiya obyektini yoki uning alohida xususiyatlari haqidagi subyektiv tushunchasi namoyon bo‘ladi.

2 medialingv. Xabar yuboruvchi va qabul qiluvchi faoliyatini o‘z ichiga olgan ikki tomonlama jarayon; jumladan, xabar yuboruvchi tomonidan bu – muayyan mazmuni yaratish va shakllantirish jarayoni, qabul qiluvchi tomonidan bu – muayyan mazmun bilan tanishish, uni anglash jarayoni.

INTERTEKSTUALLIK [*lot.* inter – oraliq + *lot.* textus – mato; to‘qish; aloqa, uyg‘unlik] Biror matn tarkibida boshqa matn yoki uning unsurlarining ochiq yoki yashirin tarzda mavjud bo‘lishi. Lingvomadaniyatshunoslikda intertekstuallikka ikki madaniy-semiotik maydonning “dialogi” sifatida yondashiladi.

INTERTEKSTUAL MATN Tarkibida to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki assotsiativ tarzda anglashiluvchi o‘zga matn yoki uning unsurlari mavjud bo‘lgan matn; intertekstuallik mahsuli.

INTERTEKSTUAL METAFORA Ikki xil semiotik belgi (ko‘pincha matn) ning aloqadorligi asosida hosil bo‘luvchi metaforalar. Metaforaning bu turida pretsedent nomlarning metaforik ma’no kasb etishi ko‘p uchraydi. Masalan, *Majnun* nomining oshiq ma’nosida, *Don Juan* nomining shilqim erkak ma’nosida qo‘llanishi va b.

INTERVYU Axborot beruvchining nutqi haqida reja asosidagi obyektiv ma’lumotlarni olish, uning spontan nutqi haqida tasavvurga ega bo‘lish maqsadida sotsiolingvistika mutaxassisi bilan axborot beruvchi o‘rtasida tashkil qilinadigan bevosita suhbat; sotsiolingvistik axborotlarni to‘plash usullaridan biri.

INTRODUKTIV AKT Tinglovchi tasavvuriga muvofiq bo‘lmagan noaniq lingvistik akt.

INVEKTIV LEKSIKA Shaxsning sha’ni, qadr-qimmatiga putur yetkazadigan noadabiy so‘zlar. Bunday so‘zlarning haqoratlilik xususiyati matniy qurshov hamda nutqiy vaziyatdan kelib chiqib aniqlanadi.

ISMLAR MADANIYATI Chaqaloqni nomlash, ism tanlash, ismlarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, ularni to‘g‘ri yozish va talaffuz qilishda amal qilinadigan me’yoriy qoidalar majmuyi.

ISMNING ETNOGRAFIK MA'NOSI Bolani nomlashda etnos amal qiluvchi turli odatlar, udumlar, ishonchlar haqida ism anglatuvchi tushuncha va tasavvur.

ISTAK NUTQIY AKTI Istak, xohish mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlar.

ISTE'MOLCHILAR ISHTIROKIDAGI REKLAMA Iste'molchilarning muayyan mahsulotning afzalligini tasdiqlashiga asoslangan reklama; reklama matnining kommunikativ modellari-dan biri.

IZOH MAZMUNLI MATN [M.Yo'ldoshev termini] Bayon qilinayotgan fikrning ishonarli bo'lishi uchun turli dalil va izohlar keltiriladigan matn; badiiy matnning mazmuniy turlaridan biri.
q.hikoya mazmunli matn.

J

JAMIYAT Kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmuyi. Jamiyatnig asosiy mazmunini insonlarning ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga muvofiq keluvchi munosabatlar tashkil etadi.

JARGON [*fr.* jargon] Biror guruhga mansub shaxslarning o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralari.

K

KATEGORIAL TAHLIL USULI Tilni kognitiv aspektda tadqiq etishning mazkur usulidan muayyan lisoniy kategoriyaning konseptual asoslari, tuzilishi hamda shakllanishi tamoyillarini aniqlash maqsadida foydalaniladi. N.N.Boldirev konseptual-kategorial tahlil usulini amalga oshirishning quyidagi bosqichlarini qayd etgan: lisoniy birliklarni tegishli kategoriyaga birlashtiruvchi umumiy konseptual asosni aniqlash; ushbu asosni uning asosiy xususiyatlari ro'yxati va ularning darajalanishi shaklida sxemalashtirish; mazkur xususiyatlar ifodalangan lisoniy birliklar ma'nosini tahlil qilish asosida kategoriya unsurlari tarkibini aniqlash; kategoriya

unsurlarining birlashish tamoyillarini aniqlash; kategoriyaning ichki tuzilishini o‘rganish, uning markaziy va periferik unsurlarini ajratish.

KATEGORIYALASHTIRISH Voqelikning kognitiv bo‘linishi; butun ontologik makonni turli kategorial sohalarga ajratish. Kategoriyalashtirish jarayonida tushunchalarning eng muhim xususiyatlari asosida ularning pog‘onaviy munosabati o‘rnatiladi.

KECHIRIM NUTQIY AKTI Kechirim so‘rash mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlar.

KINESIKA [*yun.* kinesis – harakat] Adresatning mimika, imoishora, pantomimaga xos hatti-harakatlar vositasida biror ma‘no (mazmun) ni ifodalashi; noverbal vositalardan biri.

KIYIM-KECHAK LINGVOMADANIY KODI Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan kiyim-kechakka tegishli tushunchalarni anglatuvchi so‘z (yoki so‘zlar, so‘z birikmasi) tayanch komponent bo‘lgan lisoniy (nutqiy) birlik; lingvomadaniy kod turlaridan biri. Masalan: *Ko‘k k o‘ y l a k k a g‘o‘za yoydim (Osmon, yulduzlar), bir y o q a d a n bosh chiqarmoq, t o‘ n i n i teskari kiymoq, d o‘ p p i s i yarimta, ikki oyog‘ini bir e t i k k a tiqmoq* kabi.

KOD [*fr.* code < *lot.* codex – qonunlar majmuyi] *sotsiolingv.*
1 Axborotni saqlash, uzatish va qayta ishlashda vosita bo‘luvchi shartli belgilar va ularning kombinatsiyalari tizimi.

2 Muloqot vositasi vazifasini bajaruvchi har qanday til va uning turli ko‘rinishlari.

KODLAR ALMASHINUVI So‘zlovchining, muloqot vaziyatidan kelib chiqib, bir til yoki uning subkodidan boshqa til yoki uning subkodiga o‘tishi. Kodlar almashinuviga adresatning mazkur tilni bilmasligi, muloqot mavzusining almashishi, muloqot ishtirokchilari ijtimoiy rolining o‘zgarishi kabi holatlar sabab bo‘lishi mumkin.

KOGNITIV BAZA Muayyan lingvomadaniy hamjamiyat tomonidan egallangan eng asosiy va zaruriy bilimlar yig‘indisi. Kognitiv baza kognitiv tuzilmalar shaklida kodlanadigan va saqlanadigan, o‘zida dunyo haqidagi, shuningdek, til haqidagi bilimlarni mujassam qilgan axborotlar vositasida shakllanadi.

KOGNITIV FAN *ayn.* **konitologiya.**

KOGNITIV GRAMMATIKA 1 Tillarni tavsiflashda lisoniy hodisalarning kognitiv jihatlari (idrok, xotira, fikrlash, diqqat va b.) ni tadqiq etishga yo‘naltirilgan grammatik konsepsiyalar va grammatik modellar.

2 ayn. kognitiv tilshunoslik.

KOGNITIV INQILOB O‘tgan asrning 50-yillari oxiri va 60-yillarining boshlarida Amerika tilshunosligida yuz bergan tub o‘zgarishlar.

KOGNITIV METAFORA Sh.Maxmaraimovanning fikriga ko‘ra, “nutqiy metaforaning noverbal in’ikosi, uning yuzaga chiqishining bosh omili; neyrofiziologik faollikning neyronlar faollashuvi darajasidagi jarayonlar bilan bog‘liq mexanizm, bosh miyaning neyrofiziologik substrati.”

KOGNITIV SEMANTIKA. Inson tomonidan obyektiv borliq qay tarzda qabul qilinishi va idrok etilishi hamda uning bilish tajribasi lisoniy birliklar orqali qay tariqa voqelanishini tadqiq etuvchi nazariy yo‘nalish, konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishning umumiy nazariyasi. N.N.Boldirevning fikriga ko‘ra, kognitiv semantikaning o‘ziga xos jihati shundaki, u ko‘p qatlamli ma’no nazariyasi hisoblanib, bunda lisoniy birliklarning ma’nolari insonning nafaqat til haqidagi bilimlari, balki uning barcha bilim va tajribalari kontekstida tahlil qilinadi. Kognitiv semantikada antropotsentrik yondashuv ustuvor bo‘lib, inson omiliga kognitsiya sohibi – konseptuallashtiruvchi va kategoriyalashtiruvchi shaxs, lisoniy birliklar ma’nosini shakllantiruvchi hamda muayyan vaziyatni ifodalash maqsadida ularni tanlovchi subyekt sifatida yondashiladi. Kognitiv semantika yo‘nalishi semantikani mazmuniy qurilish va bilimlar ifodasidan iborat ikki sathdan iborat deb hisoblaydi. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar asosan leksikologiya doirasida amalga oshirilgan.

KOGNITIV TASNIFLAGICHLAR Muayyan kategoriyani tashkil qiladigan konseptlarni o‘z atrofida birlashtiradigan konseptlar. Masalan, PAXTA, SUT, QOR, BO‘Z konseptlari o‘zbek tilida “oq rangli obyektlar” kategoriyasini tashkil qiladi. Bunda OQ RANG konsepti mazkur kategoriyani uyushtiruvchi, ya’ni kognitiv tasniflagich maqomida bo‘ladi. Kognitiv tasniflagichlar xalq tajribasining uning tafakkurida aks etishi natijasi bo‘lib, muayyan til birliklari

vositasida moddiylashadi hamda til sohiblarining voqelikni kategoriyalashtirishidagi milliy o‘ziga xoslikni namoyon etadi.

KOGNITIV TILSHUNOSLIK [*lot. cognitio – bilim*] Til vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini, til va ong munosabatini, olamni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish, bilish jarayonlarida va tajribalarni umumlashtirishda tilning o‘rni kabi masalalarni tadqiq etuvchi soha. Kognitiv tilshunoslik tilni umumiy kognitiv mexanizm, axborotni kodlash va transformatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydigan kognitiv vosita sifatida o‘rganadi. N.N.Boldirev “Kognitiv semantika” (Tambov, 2021) nomli kitobida quyidagilarni kognitiv tilshunoslikning eng muhim xususiyatlari sifatida qayd etgan: kognitiv tilshunoslik kognitiv va lisoniy tuzilmalar munosabatini o‘rganuvchi fan hisoblanadi; kognitiv tilshunoslik tilni kognitiv qobiliyat sifatida tadqiq etadi; bilimlarni qabul qiluvchi va ularni ifodalash maqsadida til vositalarini ongli tarzda tanlab qo‘llovchi inson omili ushbu sohaning markaziy tushunchalaridan biridir; kognitiv tilshunoslik fanlar kesimida yuzaga kelgan integrativ soha hisoblanadi; kognitiv tilshunoslik kognitiv fan (kognitologiya) hamda nazariy tilshunoslik sohalarini bog‘lovchi “ko‘prik” vazifasini o‘taydi.

KOGNITIV USLUB Shaxs tomonidan foydalanilgan bilish strategiyalarida voqelanuvchi, uning bilish jarayonlariga oid bo‘lgan nisbatan barqaror individual xususiyatlari.

KOGNITOLOGIYA [*lot. cognitio – bilish + yun. logos – fan, ta’limot*] Tabiiy va sun’iy tizimlarda bilimning jamlanishi, qayta ishlanishi va qo‘llanishi muammolarini tadqiq etuvchi; bilish nazariyasi, kognitiv psixologiya, kognitiv tilshunoslik, sun’iy intellekt nazariyasi, neyrofiziologiya sohalarini kesishuvida yuzaga kelgan oraliq fan. Mutaxassislar, shuningdek, kognitologiyani axborotni qabul qilish va taqdim etish tizimini, aqliy jarayonlarni boshqarishning umumiy tamoyillarini o‘rganadigan fan sifatida ham e’tirof etadilar.

KOGNITSIYA 1 Axborotni qayta ishlash uchun xizmat qiluvchi obyektiv reallikni anglash, kategoriyalashtirish, fikrlash, nutq tuzish kabi mental jarayonlar majmuyi; bilish jarayoni. Kognitsiya jarayonida miyadagi hissiy idrok natijasida qabul qilingan signallar turli tipdagi mental tuzilmalar (obrazlar, propozitsiyalar, freymlar,

skriptlar, ssenariylar) shaklida qayta hosil qilinadi. N.N.Boldirevning fikriga ko'ra, kognitsiya tushunchasining bilish tushunchasidan farqi shundaki, kognitsiya ham bilish jarayonlarini, ham ushbu jarayonlarning natijasini anglatadi. Kognitologiya doirasidagi fanlarda kognitsiya turli aspektlarda tadqiq etiladi. "Kognitiv terminlarning qisqacha izohli lug'ati"da esa kognitsiya psixik va tafakkur jarayoni, dunyoni idrok etish, uni kategoriyalashtirish, shuningdek, inson tomonidan hissiy-idrokiy tarzda yoki avval amalga oshirilgan talqinlar shaklida qabul qilinuvchi axborotni qabul qilish va qayta ishlashga xizmat qiluvchi bilish jarayoni sifatida tavsiflangan.

2 Axborotni ramzlar ko'rinishida qayta ishlash, uni bir ko'rinish (kod, tuzilma) dan ikkinchi ko'rinish (kod, tuzilma) ga aylantirish.

KOMISSIVLAR So'zlovchiga ba'zi harakatlar qilish majburiyatini yuklash mazmuni ifodalangan nutqiy aktlar: va'da, qasam, ishontirish; tahdid, taklif nutqiy aktlari; J.Ostin tomonidan illokutiv fe'llar asosida tasnif qilingan nutqiy aktlar guruhlaridan biri. Mazkur tasnifiy guruh J.Serl tomonidan ham qayd etilgan. *q. verdiktivlar. q. ekzersitivlar. q. bexabitivlar. q. ekspozitivlar.*

KOMMUNIKANT [*lot.comunicare* – muloqot qilmoq] Kommunikativ akt ishtirokchisi, nutq yaratuvchi va uni idrok qiluvchi; axborot (nutq) uzatuvchi va uni qabul qiluvchi.

KOMMUNIKATIV AKT 1 Insonlarning axborotni til vositalari yordamida kodlash va dekodlashdan iborat psixofiziologik faoliyati.

2 So'zlovchining o'z fikrini ifodalash usuli, strategik rejani amalga oshirish birligi.

KOMMUNIKATIV FON *medialing*. Mediamatnni yaratish, tarqatish va idrok etish shartlari va xususiyatlarining jami.

KOMMUNIKATIV ONG Insonning kommunikativ faoliyatini ta'minlaydigan kommunikativ bilimlar va kommunikativ mexanizmlarning jami.

KOMMUNIKATIV PRESUPPOZITSIYA Adresatga tasvir obyekti bo'lgan vaziyat haqida ma'lumot beruvchi presuppozitsiya.

KOMMUNIKATIV QADAM Dialog jarayonida so'zlovchining o'z suhbatdoshi jim turgan vaqtida amalga oshiradigan har qanday verbal va noverbal harakatlari.

KOMMUNIKATIV STRATEGIYA *ayn. muloqot strategiyasi.*

KOMMUNIKATIV TAGMA'NO M.Hakimov fikriga ko'ra, kommunikatsiya ishtirokchilarining ichki maqsadi assosida ifodalangan mazmunning o'zaro individual bayoniga xos ifodalar; tagma'no ko'rinishlaridan biri.

KOMMUNIKATIV TAKTIKA *ayn. muloqot taktikasi.*

KOMMUNIKATIV TO'SIQ Verbal kommunikatsiyada tabiiy, ijtimoiy, psixologik omillar sababli yuzaga keluvchi va samarali muloqotni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi holatlar. Kommunikativ to'siqning quyidagi turlari farqlanadi: tushunmaslik bilan bog'liq to'siqlar, shaxsiy to'siqlar, madaniy to'siqlar, ijtimoiy to'siqlar, tashkiliy to'siqlar va obyektiv to'siqlar.

KOMMUNIKATIV XULQ-ATVOR Alohida shaxs yoki shaxslar guruhining muloqot sotsiumiga xos muloqot me'yorlari va an'analari bilan bog'liq bo'lgan verbal yoki noverbal xulq-atvori.

KOMMUNIKATIV SHAXS Kommunikativ ehtiyojlari, shaxsiy xususiyatlari, bilish jarayonida shakllangan kognitiv darajasi, kommunikativ qobiliyati, muayyan vaziyatda axborotni maqsadli uzatish hamda muvofiq tarzda qabul qilish, ya'ni kommunikativ kodni tanlay olish qobiliyatlarining jami namoyon bo'lishi nuqtayi nazaridan qaraladigan shaxs.

KOMPYUTER LEKSIKOGRAFIYASI *q. kompyuter lug'atshunosligi.*

KOMPYUTER LUG'ATSHUNOSLIGI Elektron lug'atlarni tayyorlash va amaliy qo'llash; amaliy tilshunoslik bo'limlaridan biri.

KONTEKST [*lot. contextus* – yaqin aloqa, birikish] Mazmunan tugallangan, nutq vaziyatini ham o'z ichiga olgan, tarkibidagi so'zlar, jumalarning ma'nolarini belgilash imkonini beruvchi nutq parchasi.

KONTENT-TAHLIL Muayyan matnning mazmunini tahlil qilish orqali ijtimoiy voqelikning holatlari va xususiyatlari, nashr matnining manbayi to'g'risida ma'lum bir xulosalar chiqarish uchun foydalaniluvchi taqiqot usuli.

KOORDINATIV BILINGVIZM *ayn. muvofiqlashgan bilingvizm.*

KONSEPT [*lot. conceptus* – tushuncha; S.A.Askoldov-Alekseyev termini] Inson tafakkurining jamiyat kognitiv faoliyati

natijasini namoyon qiladigan va aks ettirilayotgan narsa-buyum yoki hodisalar haqida keng qamrovli qomusiy axborot beradigan, ushbu axborotning ijtimoiy ong tomonidan qay tarzda talqin qilinishini hamda mazkur predmet yoki hodisaga uning munosabatini namoyon etadigan, nisbatan tartibli ichki tuzilishga ega bo'lgan asosiy birligi, diskret mental tuzilma.

2 Kognitiv tilshunoslikda: xotira, mental leksikon, konseptual tizim va miya tilining, shuningdek, inson ongining mental va ruhiy imkoniyatlari, uning bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tizimining operativ mazmuniy birligi.

3 Lingvomadaniyatsyunoslikda: mentallik xususiyatiga hamda lisoniy ifodaga ega bo'lgan, etnomadaniy o'ziga xoslik bilan ajralib turuvchi jamoa ongi birligi.

4 Psixolingvistikada: insonning bilish va muloqot faoliyatida yuzaga keladigan, uning ruhiyati qonuniyatlariga bo'ysunuvchi harakatchan persektiv-kognitiv-affektiv tuzilma.

KONSEPTLAR TIPOLOGIYASI Tilshunoslikda konseptlarning turlari bo'yicha amalga oshirilgan tasniflarda belgilangan konsept turlari. (Jumladan, konseptlarning quyidagicha tasniflari mavjud: aniq-hissiy obraz, taqdimot, sxema, tushuncha, prototip, propozitsiya, freym, geshtalt, ssenariy (skript) (N.N.Boldirev); yuqori darajadagi konseptlar, oddiy konseptlar (S.G.Vorkachev); birlamchi konseptlar, ikkilamchi konseptlar, metakonseptlar, mutanosib konseptlar, shakllangan konseptlar, shakllanayotgan konseptlar, chegaraviy konseptlar, boshlang'ich lingvomadaniy konseptlar (G.G.Slishkin); parametrik konseptlar, noparametrik konseptlar (V.I.Karasik); kichik fikriy manzaralar, sxema, giperonim, freym, insayt, ssenariy, kaleydoskopik konseptlar (A.P.Babushkin); obrazlar, g'oyalar, ramzlar, madaniy konseptlar (M.V.Pimenova); tushuncha, taqdimot, ssenariy, sxema, freym, geshtalt, verballashgan konseptlar – noverbal konseptlar, universal konseptlar – milliy konseptlar, guruhliy konseptlar – shaxsiy konseptlar, aniq konseptlar (naturfakt va artefaktlar) – mavhum konseptlar (mentefaktlar) (Z.D.Popova, I.A.Sternin). Shuningdek, N.N.Boldirev konseptlarni mazmuniga ko'ra madaniy, lisoniy, huquqiy, iqtisodiy va emotional konseptlar guruhlariga, verballashtirish vositalariga ko'ra esa fonologik konseptlar, leksik konseptlar, frazeologik konseptlar,

onomastik konseptlar, grammatik konseptlar, matniy konseptlar, matndan katta birliklar vositasida ifodalangan konseptlar guruhlariga tasnif qilgan.)

KONSEPTNING ASOSIY STRUKTURAVIY UZVLARI

Konseptning obrazli uzvi, konseptning informatsion mazmuni hamda konseptning interpretatsiya maydoni konseptning asosiy strukturaviy uzvlari hisoblanadi.

KONSEPTNING INFORMATSION MAZMUNI Konseptning informatsion mazmuni konseptuallashtirilayotgan predmet yoki hodisaning eng asosiy va eng muhim kognitiv xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi kognitiv uzv hisoblanadi. Mazkur xususiyatlar predmet yoki hodisaning farqlovchi va zaruriy qismlarini ifodalab, unda nozaruriy, tasodifiy yoki baholovchi belgilar o'z aksini topmaydi. Konseptning informatsion mazmuni konseptning asosiy mohiyatini aks ettiradi va ko'p hollarda mazkur konsept ifodalaydigan so'zning leksikografik tavsifiga to'g'ri keladi. *q.* **konseptning asosiy strukturaviy uzvlari.**

KONSEPTNING INTERPRETATSIYA MAYDONI

Konseptning interpretatsiya maydoni konseptning asosiy informatsion mazmunini u yoki bu jihatdan sharhlaydigan, o'zida ayrim xulosaviy bilimlarni aks ettiradigan yoki uni baholaydigan kognitiv xususiyatlardan tashkil topgan kognitiv uzv hisoblanadi. Z.D.Popova, I.A.Sternin tomonidan konseptning interpretatsiya maydoni kognitiv xususiyatlarni mazmunan birlashtiruvchi bir necha maydonchalarni o'z ichiga oladi, degan fikr ilgari surilgan va bunday maydonchalar sirasiga quyidagilar kiritilgan: baholovchi maydoncha, ensiklopedik maydoncha, amaliy maydoncha, tartibga soluvchi maydoncha, ijtimoiy-madaniy maydoncha, paremiologik maydoncha. *q.* **konseptning asosiy strukturaviy uzvlari.**

KONSEPTNING KOGNITIV INTERPRETATSIYASI

Z.D.Popova hamda I.A.Sternin xulosasiga ko'ra, ushbu termin ostida konsept mazmunini modellashtirishning yakuniy bosqichini amalga oshirish maqsadida mazkur lisoniy vositalar ma'nolari yoki ma'no uzvlari vositasida voqelangan konseptni nomlovchi lisoniy birliklar ma'nolari tavsifini abstraksiyaning eng yuqori darajasida fikran umumlashtirish tushuniladi.

KONSEPTNING NOMINATIV MAYDONI Konseptni verballashtiruvchi til vositalarining jami. Konseptning nominativ maydoni soʻzlarning leksik-semantik guruhlar, leksik-semantik maydonlar, sinonimik qatorlar hamda assotsiativ qatorlardan mazkur guruhlar unsurlarini ham oʻz tarkibiga olishi bilan farqlanadi.

KONSEPTNING NOMINATIV ZICHLIGI [V.I.Karasik termini] U yoki bu konseptni verballashtirishda tegishli tilda mavjud boʻlgan imkoniyatlarning reallashishi, muayyan konseptni til vositalari orqali detallashtirib tavsiflash darajasi. V.I.Karasik fikriga koʻra, tilda muayyan konseptni verballashtiruvchi leksemalar yoki iboralar qanchalik koʻp boʻlsa, ushbu konseptga xos belgilar shunchalik batafsil va detallashtirilgan holda ochib beriladi. Masalan, xitoy tilida SAYOHATCHI konseptini verballashtiruvchi soʻzlar miqdori koʻp, bu tilda *sayohatchi imperator* yoki *sayohatchi aristokrat* tushunchasi ham alohida soʻz bilan ifodalanadi, rus tilida esa mazkur konseptni verballashtiruvchi bitta soʻz (*нынешественник*) mavjud.

KONSEPTNING OBRAZLI UZVI Konseptning konseptualashtirilayotgan predmet yoki hodisaning xususiyatlarini bir xil darajada aks ettiradigan perseptiv obraz (sezgi organlari vositasida hosil boʻluvchi obraz: *q i z i l gul, b a l a n d ovoz, q a t t i q jism, x u sh b oʻ y hid, l a z z a t l i taom* kabi) hamda kognitiv yoki metaforik obraz (mavhum konseptni moddiy dunyoga yoʻnaltiruvchi obraz: *dil t u b i, xayol d e n g i z i, ishq oʻ t i* kabi) lardan tashkil topuvchi uzvi.

KONSEPTOSFERA [*lot. conceptus* – tushuncha + *sphaere* – koptok; yadro; D.S.Lixachyov termini] Biror-bir xalq (millat)ga oid konseptlarning tartibga solingan yigʻindisi, tafakkurning informat-sion bazasi. D.S.Lixachyovning fikriga koʻra, millat madaniyati, folklori, adabiyoti va sanʼati, fani, dini va tarixiy tajribasi qanchalik boy boʻlsa, uning konseptosferasi ham shunchalik boy boʻladi. Mutaxassislarning qayd etishicha, konseptosfera oʻz koʻlamining kengligi bilan semantik maydondan farqlanadi.

KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV. [J.Fokonye va M.Terner termini] Turli aqliy sohalar unsurlarining oʻzaro aralashuvi hamda birlashuvi natijasida inson ongida yangi mental

maydonlar qo‘shilmasining yuzaga kelish jarayoni va ushbu jarayon mahsuli.

KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV NAZARIYASI [J.Fokonye va M.Terner termini] Mental maydonlar integratsiyasi haqidagi kognitiv tilshunoslikka oid nazariya. *q. konseptual integrallashuv.*

KONSEPTUALLASHTIRISH 1 Insonning bilish faoliyati – uzatilayotgan axborotni idrok etishga yo‘naltirilgan va inson miyasida konseptlar, konseptual tuzilmalar va barcha konseptual tizimlarning hosil bo‘lishini ta‘minlaydigan jarayon. Ushbu konseptlarning asosiy qismi muayyan so‘zlarning ma‘nolari sifatida til tizimidan o‘rin oladi hamda olingan bilimlarning saqlanishi va avloddan avlodga o‘tishiga imkon beradi.

2 Kategoriyalashtirilgan, qayta ishlangan, standartlashtirilgan madaniy konseptlarning xalq ongida aks etgan majmuyi.

KONSEPTUAL MAYDON Umumiy mazmuniy unsur vositasida bog‘langan, pog‘onaviy tuzilishga ega bo‘lgan konseptlar zanjiri.

KONSEPTUAL METAFORA [J.Lakoff va M.Jonson termini] Obyektiv reallikni bilish, konseptuallashtirish, tushuntirish va baholash usuli; bir konseptual soha haqidagi bilimlarning boshqa konseptual soha bilan kesishishi mahsuli. Sh.Maxmaraimovanning fikriga ko‘ra, “...manba va nishon konseptual sohalari o‘rtasidagi mental proyeksiyalarni namoyon etuvchi, tushunchalar, mulohaza va xulosalash bilan kechuvchi, inson tafakkuriga xos bo‘lgan jarayon.” Konseptual metafora kognitiv metaforadan konseptual sathga tegishli ekani bilan farqlanadi.

KONSEPTUAL TAHLIL USULI Konseptlar va ularning strukturaviy hamda mazmuniy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan usullar tizimi, tilni kognitiv aspektda tadqiq etishning eng asosiy usuli. Konseptual tahlil jarayonida modellashtirish hamda konseptlarni tavsiflashdan iborat metodologik usullar qo‘llanadi. Konseptual tahlil amaliyotida esa ko‘pincha lug‘at ta‘riflari va matniy qurshov tahliliga asoslangan tahlillardan foydalaniladi.

KONSEPTUAL-TAKSONOMIK TAHLIL USULI Konseptlarning pog‘onaviy munosabatlarini tadqiq etish usullari tizimi; tilni kognitiv aspektda tadqiq etish usullaridan biri. Mazkur tahlilda

konseptual-taksonomik modellashtirish amalga oshiriladi hamda lisoniy birliklar vositasida voqelangan muayyan konseptual sohaning har bir pogʻonasiga tegishli konseptlarning asosiy xususiyatlari tavsiflanadi.

KONSEPTUAL TIZIM Inson tajribasini aks ettiruvchi dunyo haqidagi qarashlar va bilimlarning tartibli tarzda birlashgan tizimi, uning ongidagi barcha tushunchalarning umumiyligi.

KONSEPTUAL QOʻSHILMA *ayn.* **konseptual integral-lashuv.**

KORRELYATSION TAHLIL Til hodisalari va ijtimoiy parameterlar oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrnatish maqsadida qoʻllanuvchi usul; sotsiolingvistikaning asosiy tadqiq usullaridan biri.

KOYNE [*yun.* koina < koine dialektos – umumiy] **1** Tilning turli dialektlar (etnolektlar) vakillari yoki til sohiblari oʻrtasidagi muntazam ijtimoiy aloqalar sharoitida kundalik muloqotning asosiy vositasi sifatida foydalaniladigan funksional turi.

2 Bir necha oʻzaro yaqin lahjalarning aralashuvidan hosil boʻladigan va natijada ularning barchasini almashtiradigan, shu lahjalar oʻrnida qoʻllanadigan til.

KREOL TIL Shakllanishiga pidjin tillar asos boʻlgan va pirovardida ona tiliga aylangan til. Kreol til pidjindan lugʻat boyligining salmogʻi, turgʻun grammatik tizimi hamda nisbatan koʻpvazifaliligi bilan farqlanadi.

KREOLIZATIV MATN *q.* **uygʻun matn.**

KROSS-MADANIY YONDASHUV [J.P.Murdok termini] Ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya, lingvomadaniyatshunoslik, antropologiya kabi fanlarda qoʻllanadigan, turli xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy qarashlarini chogʻishtirish, ushbu qarashlarning muayyan jamiyat aʼzolarining ongi, xulqiga taʼsir doirasini oʻrganish asosida olamning madaniy jihatdan asoslangan manzaralarini aniqlash hamda madaniy farqlar haqidagi farazlarni sinab koʻrishdan iborat boʻlgan tajriba metodi.

KOʻPTILLILIK Muayyan jamiyatda bir nechta tillardan foydalanish. Koʻptillilikning milliy va individual turlari farqlanadi. Milliy koʻptillilik, odatda, koʻp millatli davlatlarda kuzatiladi. Bunda turli til shakllari (adabiy tillar, dialektlar, ijtimoiy va professional

jargonlar va b.) ma'lum bir pog'onaviy nisbatda o'rinlashadi. Ko'ptillilikning individual ko'ptillilik deb nomlangan turida shaxsning o'z kundalik muloqotida kamida uch tildan foydalanishi nazarda tutiladi. Individual ko'ptillilik kundalik muloqot vositasi ekanligiga ko'ra shaxsning bir necha xorijiy tillarni egallaganlik holatidan farqlanadi.

L

LAKUNA [*fr.* lacune – bo'shliq, chuqurlik; J.P.Vine va J.Darbelen termini] Muloqot jarayonida muayyan madaniyatning boshqa madaniyat vakili tomonidan to'liq yoki qisman anglashilmaydigan o'ziga xos milliy unsuri.

LEKSIK-GRAMMATIK ASSOTSIATSIYALAR [D.Lutfulayeva termini] Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga asoslangan assotsiatsiyalar. Masalan, *borsam – bormasam, sariq – sapsariq* kabi.

LEKSIK KONSEPTLAR Tilda muayyan leksika vositasida ifodalanuvchi konseptlar.

LEKSOPRAGMATIKA Pragmalingvistikaning lug'aviy birliklarning pragmatik xususiyatlarini o'rganuvchi bo'limi.

LINGVA FRANKA [*ital.* lingua franca – frank tili] Tilning ijtimoiy aloqalarning cheklangan sohalarida turli tillarda so'zlashuvchilar o'rtasida aloqa vositasi sifatida ishlatiladigan funksional turi. Lingva franka, odatda, og'zaki shaklda qo'llanadi. Lingva franka sifatida mazkur hududdagi xalqlardan birining tili, undan foydalanuvchi etnik guruhlardan hech biri uchun ona tili hisoblanmagan til yoki pidjin qo'llanishi mumkin.

LINGVISTIK AKSILOGIYA Qadriyatlar tizimiga doir tushunchalarning tilda aks etish mexanizmlari va usullarini o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishi.

LINGVISTIK ASSOTSIATIV TAJRIBA METODI Muayyan lingvistik maqsadlar (assotsiativ qatorlarni aniqlash, ularni tahlil qilish, me'yoriy assotsiativ lug'atni tuzish kabilar) ni amalga oshirish uchun stimuly so'z (so'z birikmasi, gap, matn) yozilgan so'rovnomashaklidagi materiallarni sinaluvchilarga tarqatish va ularning javob

reaksiyalarini yozma (ba'zan og'zaki) tarzda olishni ko'zda tutuvchi psixolingvistik metodlardan biri. Lingvistik assotsiativ tajriba metodining erkin assotsiativ tajriba (*q.*), yo'naltirilgan assotsiativ tajriba (*q.*) hamda bog'li assotsiativ tajriba (*q.*) turlari mavjud.

LINGVISTIK GEOGRAFIYA *ayn. lingvogeografiya.*

LINGVISTIK NISBIYLIK NAZARIYASI XX asrning 30-yillarida B.L.Uorf hamda E.Sepir tomonidan shakllantirilgan nazariya. Unga ko'ra, muayyan til strukturasi shu tilda gaplashuvchilarning tafakkuri va dunyoni idrok etish usullari tarzini belgilaydi.

LINGVISTIK O'LCHOVDAGI PERSONOLOGIYA Nutq egasining lisoniy imkoniyatlarini o'rganish orqali lisoniy shaxs, lisoniy shaxs tiplarini belgilash muammolari bilan shug'ullanuvchi yo'nalish.

LINGVOGEOGRAFIYA Tilshunoslikning til hodisalarining hududiy tarqalishini o'rganadigan bo'limi. Lingvogeografiya XIX asrning oxirida dialektologiyadan ajralib chiqqan. Maqsad va vazifalariga ko'ra areal tilshunoslik bilan chambarchas bog'liq.

LINGVOKOGNITIV KONSEPT *ayn. konsept 2.*

LINGVOKONSEPTSHUNOSLIK Lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslikdagi qarashlar asosida madaniy konseptlarni o'rganuvchi soha.

LINGVOKRIMINALISTIKA 1 Matnni yuridik maqsadlarda o'rganadigan tilshunoslik bo'limi.

2 Sud lingvistik ekspertizalarini tuzishni o'rgatadigan tilshunoslik bo'limi.

3 Kriminal submadaniyatning sotsiolingvistik jihatlarini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi.

LINGVOKULTUREMA *ayn. lingvomadaniy birlik.*

LINGVOKULTUROLOGIYA *ayn. lingvomadaniyatshunoslik.*

LINGVOMADANIYAT Lisoniy belgilarda mujassamlangan va lisoniy/nutqiy jarayonda voqelanuvchi madaniyat.

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK Tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniy konseptlar bilan uzviy jihatlarini, madaniy tushunchalar, madaniy modellar, madaniy kategoriyalar va madaniy metaforalarning tilda qay tarzda aks etishini o'rganuvchi

soha.

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK MAKTABLARI XX asr oxirida Moskvada shakllangan, lingvomadaniyatshunoslik sohasi bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy markaz va guruhlar: Y.S.Stepanov maktabi, N.D.Arutyunova maktabi, V.N.Teliya maktabi, V.V.Vorobyov va V.M.Shaklein va b. maktabi.

LINGVOMADANIY BIRLIK. Lisoniy belgining ma'nosi va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topuvchi, madaniy muhit bilan til o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi, semantikasida madaniy axborot yaqqol namoyon bo'luvchi til birliklari. Jumladan, frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg'un o'xshatishlar, nutqiy etiketlar, urf-odat va marosimga doir so'zlar, topishmoqlar, milliy realiyalar, arxetiplar, mifologemalar, lakunalar, pretsedent birliklar va b. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, lingvomadaniy birliklar til birliklariga nisbatan chuqurroq darajadagi birlik hisoblanadi. Lingvomadaniy birlik so'z, so'z birikmasi, gap va matn vositasida ifodalanishi mumkin. Lingvomadaniy birliklarga konnotativlik xos bo'lib, u mazkur birlikni yaratgan xalqning madaniy kontekstiga bog'liq ravishda anglashiladi.

LINGVOMADANIY HAMJAMIYAT Yagona til va madaniyat vakillarining jami.

LINGVOMADANIY KOD Madaniy kodning verballashgan shakli.

LINGVOMADANIY KONSEPT *ayn.* **konsept 3.**

LINGVOMADANIY LEKSIKOGRAFIYA Lingvomadaniyatshunoslik va lingvomamlakatshunoslikka oid lug'atlar tuzish bilan shug'ullanuvchi yo'nalish; lingvomadaniyatshunoslik bo'limlaridan biri.

LINGVOMADANIY LUG'AT Muayyan lingvomadaniyatga xos bo'lgan konseptlarning lingvomadaniy tavsifi berilgan lug'at.

LINGVOMADANIY SALOHIYAT Shaxsning til vositasida ifodalanuvchi madaniy qadriyatlarga doir egallagan bilimlari yig'indisi.

LINGVOMADANIY TIP O'z xarakteri va xulq-atvori bilan lingvomadaniyatga ta'sir o'tkazuvchi, jamiyatning etnik yoki ijtimoiy o'ziga xosligini namoyon qiluvchi shaxslarning umumlashma obrazi. Masalan, *ziyoli* lingvomadaniy tipi, *xaker* lingvomadaniy

tipi.

LINGVOMAMLAKATSHUNOSLIK Xorijiy tillarni o'rganadigan shaxslarning kommunikativ salohiyatini oshirish maqsadida o'quv jarayonida nutqiy muloqotning milliy-madaniy o'ziga xosligi haqidagi ma'lumotlarni saralab olish va taqdim etish amaliyotini amalga oshiradigan fan. Lingvomamlakatshunoslikda tilning milliy-madaniy semantikasiga, muayyan til amal qiluvchi mamlakat haqidagi ma'lumotlarni o'rganishga alohida e'tibor beriladi.

LINGVOPERSONOLOGIYA [lot. lingua – til + persona – shaxs+ yun. logos – fan, ta'limot] Nutq (matn) orqali til sohiblari shaxsiy xususiyatlarining ularning nutqida in'ikos etishi muammosini tadqiq etish, lisoniy shaxs tiplarini belgilash bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik yo'nalishi. Lingvopersonologiyada tilga ijtimoiy hodisa sifatida yondashilib, u insonning ijtimoiy mavqeyi, jinsi, millati, ruhiyati, milliy-madaniy qarashlari kabi nolisoniy omillar bilan uzviylikda o'rganiladi.

LINGVOPRAGMATIK LISONIY ZIDDIYAT Siyosiy notenglik (biror etnik guruhning ijtimoiy va siyosiy jihatdan ustun bo'lishiga sharoit yaratilishi) natijasida yuzaga kelgan lisoniy ziddiyat, bir tilning ikkinchisiga nisbatan yuqori qo'yilishi.

LINGVOSOTSIOLOGIYA [L.B.Nikolskiy termini] Til hodisalarini ijtimoiy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida, tilni esa iqtisodiy, mafkuraviy va b. omillar qatorida ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida o'rganuvchi maxsus tadqiq yo'nalishi.

LISONIY HAMJAMIYAT Umumiy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar orqali bog'langan va kundalik hayotda o'zaro, shuningdek, turli xil ijtimoiy institutlar bilan bir yoki bir necha tillar vositasida muloqot qiladigan odamlarning jami.

LISONIY JARAYONLAR Etnik guruh yoki etnos nutqiy repertuaridagi til assimilyatsiyasi, ikkitillilik, ko'ptillilik, tilni qayta tiklash, semilingvizm kabi jarayonlardan birining voqelanishidan iborat bo'lgan o'zgarishlar.

LISONIY FAOLLIK [N.Xomskiy termini] Ona tilini o'zlashtirgan til sohibining til bo'yicha egallagan bilimlarini kundalik faoliyatda qo'llay olishi.

LISONIY IJTIMOIYLASHUV Tilni jamiyatda o‘zaro ijtimoiy ta’sirni ta’minlaydigan muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirish. Bunda muayyan til strukturasi va lisoniy birliklardan tashqari mazkur til qo‘llanadigan ijtimoiy muhitning nutqiy me’yorlari, nutq odobi hamda stereotiplari ham o‘zlashtiriladi. Lisoniy ijtimoiylashuv shaxs ijtimoiylashuvining tarkibiy qismi va ayni vaqtda uni egallashning vositasi hisoblanadi. Lisoniy ijtimoiylashuv insonning butun umri mobaynida, xususan, uning bolalik davrida intensiv tarzda davom etadigan jarayon bo‘lib, insonning olamni bilishi, uning har tomonlama rivojlanishi, jamiyatdagi axloq normalarini egallashida muhim ahamiyat kasb etadi.

LISONIY INTERPRETATSIYA [N.N.Boldirev termini] Til vositasida olam va odam haqidagi bilimlarni tushuntirish, talqin qilish; insonning olamni, o‘zini anglashi va talqin qilishi jarayoni hamda shu jarayon mahsuli; ijtimoiy xarakterdagi yangi bilimlarni olishga yo‘naltirilgan har qanday tafakkur amaliyoti. Lisoniy interpretatsiya jamoaviy-lisoniy yoki individual-lisoniy ongda olam proyeksiyasi hamdir. Sxemalashtirish, tasniflash, konseptual-lashtirish, kategoriyalashtirish, umumlashtirish, aniqlash kabi inson tafakkurining turli funksiyalari lisoniy interpretatsiyaning mohiyatini tashkil qiladi. N.N.Boldirevning fikriga ko‘ra, lisoniy interpretatsiya shu ma’noda lisoniy-kognitiv faoliyatdan kengroq tushuncha hisoblanadi.

LISONIY LAKUNA Tilning lug‘aviy tizimida biror tushunchani ifodalovchi lug‘aviy birlik (yoki grammatik shakl)ning mavjud bo‘lmasligi (boshqa tilga qiyosan olganda), uning semantik xaritasidagi “oq dog‘lar”.

LISONIY KOMPETENSIYA *ayn.* lisoniy qobiliyat.

LISONIY MADANIYATSHUNOSLIK *ayn.* lingvomadaniyatshunoslik.

LISONIY ONG Inson ongining nutq yaratilishi, idrok etilishi, tilning ongda saqlanishi kabi lisoniy (nutqiy) faoliyat mexanizmlarini ta’minlovchi qismi.

LISONIY PROGNOZLASH Alohida til, uning ichki tuzilishi va muayyan jamiyatdagi lisoniy vaziyat rivojlanishining o‘ziga xos istiqbollarni o‘rganish va tadqiq etish. Mutaxassislar tomonidan lisoniy prognozlashning quyidagi yo‘nalishlari belgilangan:

dunyodagi tillarning rivojlanishi; alohida tillarning taqdiri; tillarning ijtimoiy vazifalarining rivojlanishi; tillarning tizimli rivojlanishi; tillarning o‘zaro ta’siri.

LISONIY QOBILIYAT 1 N.Xomskiyning insonning lisoniy qobiliyati va nutqiy faoliyati interpretatsiyasida taklif qilingan competence/performance (qobiliyat/amalga oshirish) dixotomiyasining bir qismi sifatida qayd etilgan termin. N.Xomskiyning lisoniy qobiliyat xususidagi qarashlarida tilni egallashning sof lingvistik jihatlari nazarda tutilib, ijtimoiy omillar hisobga olingan emas.

2 Tilning lug‘aviy tarkibi, grammatik qonun-qoidalari va uslubiy imkoniyatlarini bilishning haqiqiy lingvistik darajasi.

LISONIY VARIATIVLIK Bir xil ma‘noga ega bo‘lgan lisoniy belgilarning shakli va tashqi ko‘rinishiga xos bo‘lgan har xillik.

LISONIY VAZIYAT Muayyan etnik birliklar yoki ma‘muriy-hududiy birlashmalarda nutqiy kommunikatsiya izchilligini ta‘minlaydigan bir yoki birdan ortiq tillarning amal qilish shakllari majmuyi. Tillar, hududiy va sotsial dialektlarlar, funksional uslublar, hududiy koynelar lisoniy vaziyatning komponentlari bo‘lishi mumkin. Diglossiya, bilingvizm va ko‘ptillilik lisoniy vaziyatning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

LISONIY SHAXS [V.V.Vinogradov termini] Tarkibiy-lisoniy murakkablik darajasi, voqelikni aks ettirishdagi o‘ziga xosligi hamda muayyan maqsadli yo‘nalishi bilan farqlanuvchi matnlar yaratilishi va idrok etilishini ta‘minlovchi qobiliyatlar va xususiyatlar majmuyini o‘zida mujassam etgan shaxs. Lisoniy shaxsda muayyan til egalarining asosiy milliy-madaniy prototipi o‘z aksini topadi.

LOGOEPISTEMA [yun. logos – so‘z, nutq, ta‘limot + episteme – bilim; N.D.Burvikova hamda V.G.Kostomarov termini] Muayyan vaziyat yoki matnga ishora qiluvchi va o‘zida madaniy axborotni saqlovchi, mazkur axborotning tushunarli bo‘lishi uchun retsiyent ongida muayyan til haqidagi bilimlardan tashqari shu til sohiblarining dunyoqarashi, an‘analari, urf-odati, tasavvurlari va irim-sirimlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning ham mavjud bo‘lishini taqozo etuvchi til birliklari. Logoepistemalar so‘z, birikma, gap va matn shaklida ifodalanib, nutqqa tayyor holda kiritiladi va intertekstuallik ko‘rsatkichi vazifasini bajaradi.

LOKAL ALOQADORLIK Matnda yonma-yon kelgan gap-larning mazmunan bog‘lanishi. *qiyos.* **global aloqadorlik.**

LOKUTIV AKT [*ingl.* lokution akt] Tovush va so‘zlarni ayni birliklar mansub bo‘lgan tilning qonun-qoidalari va grammatik xususiyatlariga muvofiq tarzda talaffuz qilish.

LUG‘ATNING ELEKTRON VERSIYASI *q.* elektron lug‘at.

M

MADANIY ARTEFAKT Odamlar tomonidan yaratilgan va uni yaratuvchilar va foydalanuvchilarning madaniyati haqida ma’lumot beruvchi narsa; ma’lum fizik xususiyatlarga va ramziy ma’noga ega bo‘lgan har qanday sun’iy yaratilgan obyekt.

MADANIY JARAYON Madaniy hodisalar tizimiga kiruvchi unsurlarning o‘zaro aloqadorligi.

MADANIY NOQULAYLIK Shaxsning o‘zga madaniy muhitga tushib qolishi natijasida yuzaga keluvchi emotsional, shuningdek, xatti-harakatga oid noqulayliklar.

MADANIY KOD Muayyan shaklda kodlangan madaniy axborot; olam manzarasidagi naturfaktlar (*q.*), artefaktlar (*q.*) hamda insonning ichki ruhiy olamini anglatuvchi tushunchalarni kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimi. Madaniy kodni mutaxassislar madaniy mazmun va uning shakli o‘rtasidagi aloqani ta’minlovchi vosita, madaniyatni tushunish kaliti sifatida ta’riflab, uni xalq psixologiyasini beglilovchi omillardan biri deb hisoblaydilar. Madaniy kodlar lingvomadaniyat vakillari ongidagi muayyan tushunchaga bog‘liq bo‘lgan obrazlarni belgilab beradi, shu sababli ma’lum bir madaniyatga xos obrazning mazmunini tushunish uchun uning kodini anglash zarur bo‘ladi .

MADANIY KONNOTATIVLIK [V.N.Teliya termini] Denotativ yoki obrazli-motivlashgan ma’no jihatlarining madaniyat kategoriyalari nuqtayi nazaridan talqini.

MADANIY MAKON Har qanday madaniyat tashuvchisini o‘rab olgan muhit.

MADANIY MOSLASHUV Muayyan etnik madaniyat yoki etnosga mansub til sohiblarining ko‘p hollarda o‘z joyini

o'zgartirishi natijasida o'zga muhitning ijtimoiy, etnik, madaniy, lisoniy shart-sharoitlariga moslashuvi. Bunda madaniy moslashuv oqibati sifatida individual yoki jamoaviy bilingvizm, nutqiy xulq-atvorning yangi ko'rinishlari, til almashishi, ikki tomonlama madaniy yoki lisoniy ong shakllanishi hodisalari yuzaga kelishi mumkin.

MADANIY NATURFAKT Foydalanuvchilarining madaniyati haqida ma'lumot beruvchi, ramziy ma'noga ega bo'lgan har qanday tabiiy narsa, obyekt.

MADANIY NUTQNING ASOSIY KOMMUNIKATIV SIFATLARI Madaniy nutqni shakllantiruvchi nutqiy omillar: nutqning to'g'riligi, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyligi, nutqning sofligi, nutqning boyligi, nutqning jo'yaliligi, nutqning ifodaliligi. N.Mahmudovning fikriga ko'ra, o'zida yuqorida qayd etilgan kommunikativ sifatlarni mujassamlashtirgan nutq madaniy nutq hisoblanadi.

MADANIY SEMALAR Muayyan leksemaning biror lingvo-madaniyatga xos ekanligini bildiruvchi semalar.

MADANIY UNIVERSALIYALAR Kishilik taraqqiyotining barcha bosqichlarida umuminsoniy mohiyat kasb etuvchi me'yorlar, qadriyatlar, qoida va an'analar.

MADANIY VORISLIK Muayyan madaniyat uchun ahamiyatli bo'lgan madaniy qadriyatlar va axborotlarning avloddan avlodga o'tishi.

MADANIY ZAXIRA U yoki bu madaniyat vakili tomonidan egallangan milliy va umuminsoniy madaniyatga doir bilimlar majmuyi.

MADANIYAT 1 Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy va aqliy harakatlar uchun kishilar tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy amaliyot usullari; alohida individ, ijtimoiy guruh yoki jamiyatning hayot faoliyati usuli. Madaniyat g'oyalar, qadriyatlar, urf-odat, e'tiqod, axloqiy me'yorlarni qamrab oladi, rivojlanib boradi va avloddan avlodga meros sifatida o'tadi.

2 Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi va shu yutuqlarning darajasi.

MADANIYAT EKOLOGIYASI Insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy, ma'naviy boyliklar, qadriyatlarni tajovuzkor kuch,

g'oya ba tahdidlardan asrash, keyingi avlodlarga meros sifatida yetkazish.

MADANIYAT KONSTANTALARI [*lot. constans* – doimiy, o'zgarmas; Y.S.Stepanov termini] Tilda doim yoki uzoq vaqt mavjud bo'luvchi konseptlar.

MADANIYATLARARO MULOQOT Turli lingvomadaniyat vakillari o'rtasidagi muloqot.

MADANIYATSHUNOSLIK Tarixiy va zamonaviy madaniyat, uning tuzilishi, vazifalari, rivojlanish istiqbollari o'rganuvchi fan.

MADANIY KONTEKST Matnda mavjud bo'lgan barcha madaniy ma'lumotlarning darajalar bo'yicha tuzilgan to'plami.

MADANIY TO'SIQLAR Turli madaniy muhitga mansub muloqot ishtirokchilarining bir-birining madaniy o'ziga xosliklari, milliy urf-odatlar, odob-axloq qoidalari, hayotiy qadriyatlar tizimini yaxshi bilmaslik natijasida yuzaga keladigan kommunikativ to'siqlar. *q. kommunikativ to'siq.*

MAHALLIY TIL 1 Ko'p millatli davlatlarda ikki tilli mayda millat vakillarining tili.

2 Yagona millatli davlatlardagi hududiy dialektlar va so'zlashuv tili.

MAKON LINGVOMADANIY KODI Lingvomadaniyatshunoslikda: muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirishida milliy-madaniy jihatdan makon, o'rin-joyni anglatuvchi so'z (yoki so'zlar, so'z birikmasi) tayanch komponent bo'lgan lisoniy (nutqiy) birlik; lingvomadaniy kod turlaridan biri. *Issiq o'rni n i n i sovitmoq, hushini j o y i g a keltirmoq, ch a p ko'z bilan qaramoq kabi.*

MAKON DEYKSISI Deyksisning voqelikning yuzaga chiqish o'rni, muloqot ishtirokchilari turgan makonga ishorani anglatuvchi turi.

MANBA MAYDONI [J.Lakoff va M.Jonson termini] Inson tafakkurida metaforik hosila ma'no shakllanishi jarayonida foydalaniladigan tilning lug'at tarkibidagi mavjud birliklar va egallangan bilimlardan iborat bo'lgan kognitiv maydon, konseptual metaforalar nazariyasining asosiy tushunchalaridan biri.

MANTIQUIY TO‘SIQLAR Suhbatdoshlarning mantiqiy harakatlari va xulosalarining nomuvofiqligi natijasida yuzaga keladigan kommunikativ to‘siqlar. *q. kommunikativ to‘siq.*

MAKROMATN Yaxlit nutqiy asarga nisbatan qo‘llanuvchi termin.

MAKROSOTSIOLINGVISTIKA Tilda sodir bo‘ladigan va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan jarayon va munosabatlarni o‘rganuvchi yo‘nalish. Makrosotsialingvistika tilni normallashtirish va kodlashtirish muammolari; til siyosati va tilni rejalashtirish; lisoniy vaziyatlar; ijtimoiy-kommunikativ tizimni tashkil etuvchi komponentlar; kodlar va subkodlar; turli tillarda so‘zlashuvchilar sonining nisbati; tillarning funksiyalarini chegaralash; interferensiya va uning turlari kabi muammolarni tadqiq etadi. Keyingi davrda tillarning o‘zaro munosabati masalasi makrosotsiolingvistikaning dolzarb muammolaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

MAKROPROPOZITSIYA Diskursni tashkil etgan gaplarda ifodalangan propozitsiyalardan hosil qilingan umumiy propozitsiya; matnda ifodalangan obyektiv mazmun.

MAQOL Lingvomadaniyatshunoslikda: til sohiblarining milliy-obrazli tafakkur tarzini va aksiologik munosabatini namoyon etuvchi, aksariyat hollarda lingvomadaniy kodlar vositasida shakllantirilgan, ixcham poetik shakldagi hikmatli ibora; olam lisoniy manzarasining kichik bir qismi.

MASLAHAT NUTQIY AKTI Maslahat mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlar.

MATN M.Yo‘ldoshevning ta’rifiga ko‘ra, matn – “... gaplar ketma-ketligining bog‘lanishlilik asosida og‘zaki yoki yozma shaklda yuzaga keladigan struktur, mazmuniy va kommunikativ yaxlitligi tarzidagi butunlik, til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi”.

MATN DEYKSISI *ayn. diskurs deyksisi.*

MATN-METAFORA Ikki tushuncha yoki vaziyatning o‘xshashligiga yashirin tarzda ishora qiluvchi, mazmuni assotsiativ ravishda idrok qilinadigan matn; metaforik birliklarning bir turi. Masalan: *Oq buloqni izladim, Qora buloq duch keldi. Qora buloq suvidan ichdim, yoronlar, oq buloqni topguncha.* (A.Suyun)

MATNNING ASSOTSIATIV MAYDONI [Y.N.Karaulov termini] Retsipiyent ongida matn vositasida qo‘zg‘atilgan, qo‘llanish chastotasi yuqori bo‘lgan assotsiatlar o‘rin olgan yadro hamda qo‘llanish chastotasi past bo‘lgan assotsiatlar o‘rin olgan chegaraviy qismlardan tashkil topgan, maydon tamoyillari asosida tashkillashtirilgan lisoniy birliklar tizimi.

MATNNING PRETSEDENT SHAKLI [D.Xudoyberganova termini] Matnning tilning muayyan uslublarida qat‘iylashgan va til sohiblari xotirasida saqlanuvchi, ular tomonidan takroriy ravishda qo‘llanadigan mazmuniy-kompozitsion qolipi. Matn-o‘xshatishlar, segmentli matnlar, parsellyativ matnlar, maqolni izohlash asosida tuzilgan matnlar, shuningdek, ish yuritish hujjatlari kabilar matnning pretsedent shakliga misol bo‘la oladi.

MATNORTI BILIMLARI Kommunikativ akt ishtirokchilari tomonidan til belgilari orqali ifodalangan moddiy turmush realiyalari, konnotativ realiyalar hamda nutqiy vaziyatni idrok qilish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bilim. Matnorti bilimlari, xususan, madaniyatlara muloqot jarayonida kommunikativ akt ishtirokchilari turli til sohiblari va turli madaniyat vakillaridan iborat bo‘lganida muhim rol o‘ynaydi.

“MAQTOV” MULOQOT STRATEGIYASI Suhbatdoshining shaxsiy fazilatlari, Faoliyatini ijobiy baholashdan iborat nutqiy harakatlar asosida amalga oshiriladigan strategiya.

MATN PROYEKSIYASI Ma‘lum bir matnni tinglash yoki o‘qish natijasida retsipiyent xotirasida hosil bo‘lgan semantik-sintaktik butunlik; matnning retsipiyent ongidagi individual in‘ikosi.

MATN ATRIBUTSIYASI Muayyan matnning biror shaxsga tegishli ekanligi yoki tegishli emasligini aniqlash. Asosan lingvistik kriminalistika va manbashunoslikda qo‘llanadi.

MATN-O‘XSHATISH Mazmunan ikki tushuncha yoki vaziyatning o‘zaro o‘xshashligi ifodalangan matn; o‘xshatish birliklarining bir turi. Masalan: *Kimdir kattaroq asar yozib tugatgan adibni yeli chiqib ketgan pufakka o‘xshatgan ekan. Haqiqatan, yig‘ilgan hayotiy material, ko‘rgan-kechirganlar, o‘ylagan o‘ylar – hammasi shu asarga sarf bo‘ladi-yu, qalbi bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoladi kishi.* (O.Yoqubov)

MAVHUM KONSEPTLAR Mavhum tushunchalarni aks ettiruvchi konseptlar.

MAZMUNYIY IDROK Tinglovchi (o'quvchi) tomonidan muayyan axborot mazmunining yetarli darajada tushunilishi, idrok qilinishi.

MAZMUNYIY PERSEPSIYA *ayn. mazmuniy idrok.*

MASHINA LUG'ATI *q. elektron lug'at.*

MA'NAVYIY QADRIYATLAR Insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalar va tamoyillar. Ma'naviy qadriyatlar tarixan shakllanadi, avloddan avlodga o'tadi va vaqt o'tishi bilan to'ldirib boriladi.

MA'NAVYIYAT Inson (xalq, millat)ning falsafiy, ilmiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy va shu kabi tasavvurlari va tushunchalarining jamini o'z ichiga olgan ruhiy va aqliy olami.

MA'NAVYIY LINGVOMADANIY KOD Axloqiy qadriyatlar, muayyan madaniyatga xos etalonlar, uning muhim qarashlari bilan bog'liq bo'lgan kod. Ma'naviy lingvomadaniy kodda boshqa barcha madaniyat kodlari aks etadi.

MA'NO QOBIG'I BO'SH SO'ZLAR Olmoshlar va atoqli otlar.

MA'NONING EMPIRIK KOMPONENTI Sh.Maxmaraimova fikriga ko'ra, ifodalanayotgan predmet yoki hodisaning hissiy-tasviriy obrazi. Mazkur komponent har bir lug'aviy birlikning tarkibida doimiy mavjud bo'ladi va predmet yoki hodisa nomi tilga olinganda, uning obrazi shaxsning ongostida gavdalanadi.

MEDIADISKURS Turli mediakanallar orqali ommaviy auditoriya e'tiboriga havola qilinadigan mediamatnlar tizimi; nutqiy faoliyatning ommaviy kommunikatsiyada voqelanuvchi turlaridan biri.

MEDIALINGVISTIK TAHLIL USULI Verbal va media vositalarning o'zaro ta'sir qonuniyatlarini aniqlash va tavsiflashdan; media darajasidagi belgilardan foydalanish xususiyatlarini, shuningdek, barcha mediamatn shakllari unsurlari uyg'unlashishining turli xil ko'rinishlari (so'z – tovush – rasm, so'z – grafik dizayn – rasm va b.)ni o'rganishdan iborat usul.

MEDIALINGVISTIKA Bosma, audivizual va ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilgan zamonaviy ommaviy

kommunikatsiyalar tilini o‘rganadigan lingvistika yo‘nalishi.

MEDIAMATN Ma’lum bir media formatida aktuallashtirilgan va umumiy mazmun atrofida birlashtirilgan og‘zaki va media darajadagi belgilarning izchil kombinatsiyasi.

MEDIAMATN KANALI Mediamatn yaratilgan va qo‘llanadigan ommaviy axborot vositasi (gazeta, jurnal, radio, internet kabilar)

MEDIAMUHIT Ommaviy kommunikatsiyalar (matbaa, radio, televideniye, video, kino, kompyuter kanallari, Internet va boshqalar) vositasida media madaniyati faoliyat ko‘rsatadigan sharoitlar majmuyi.

MEDIANUTQ Ommaviy axborot vositalarida qo‘llanuvchi, amal qiluvchi nutq.

MEDIATOPIK Ommaviy axborot vositalari tomonidan muntazam ravishda yoritiladigan barqaror mavzulardan biri (masalan, sport, siyosat, biznes, madaniyat mavzulari)

MENTAL [lot. mens – aql, tafakkur, fikrlash tarzi] Aql bilan, aqliy qobiliyat, aqliy faoliyat bilan bog‘liq.

MENTAL AKT M.Hakimovning ko‘rsatishicha, “so‘zlovchi nazarda tutgan kommunikativ niyat bilan tinglovchi tasavvurining o‘zaro mosligi, ya’ni verbal ifoda vositasi bilan tinglovchi tasavvuriga kira olish.”

MENTAL MAYDONLAR. Diskursiv faoliyat davomida real vaqtda shakllanadigan, muntazam o‘zgarib turadigan va so‘zlovchining qisqa vaqtli xotirasida saqlanadigan kognitiv tuzilmalar; J.Fokonye va M.Terner tomonidan kognitiv tilshunoslikka kiritilgan mental maydonlar nazariyasi va konseptual integrallashuv nazariyasining markaziy tushunchasi.

MENTALITET [lot. mens – aql, tafakkur, fikrlash tarzi]
1 Jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati. Mentalitet milliy an’analar, urf-odatlar, diniy e’tiqodni ham qamrab oladi.

2 Muayyan shaxs, ijtimoiy yoki etnik guruh tomonidan voqelikni qabul qilish va idrok qilishning o‘ziga xos usuli.

MENTEFAKT Madaniyatning umumiy g‘oyalari, qadriyatlari va e’tiqodlari. (Din, til va g‘oya kabilarni o‘z ichiga oladi).

METAFORA [yun. metaphora – ko‘chirish] Bir obyekt nomini

ikkinchi obyektga o'xshatish asosida ko'chirish; konseptuallashtirish turlaridan biri. Metaforalar tildada so'z, birikma, gap va matn shaklida voqelanadi.

METAFORIK TAGMA'NO Tagma'no ko'rinishlaridan biri. M.Hakimov fikriga ko'ra, so'zlovchining bir predmetni boshqa bir predmetga o'xshatishni ifodalovchi propozitsiyani berish vositasida nazarda tutilgan yashirin axborotga ishora qilish.

METAFORASHUNOSLIK Tilshunoslikning metaforalarni o'rganuvchi yo'nalishi.

METAFOROLOGIYA *ayn.* metaforashunoslik.

METAFTONIMIYA [L.Gussens termini] Ham metafora, ham metonimiyaning xususiyatini o'zida aks ettiruvchi kognitiv mexanizm, konseptual metafora hamda konseptual metonimiyaning o'zaro integrallashuvi. Masalan, A.Yo'ldoshev *bo'rikalla* so'zini metaftonimiyaga misol sifatida keltirib, ushbu so'zning hosil bo'lishida *bo'ri* so'zi metaforik, *kalla* so'zi esa metonimik ma'no ko'chishiga uchraganligini va bunda metonimiyadan metafora kelib chiqqanini, mazkur ikki kognitiv mexanizm birlashuvidan O'SIMLIK konsepti hosil bo'lganini qayd etadi.

ME'MORCHILIK LINGVOMADANIY KODI Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan me'morchilikka oid tushunchalarni anglatuvchi so'z (yoki so'zlar, so'z birikmasi) tayanch komponent bo'lgan lisoniy (nutqiy) birlik; lingvomadaniy kod turlaridan biri. Masalan: *M u h a b b a t - n i n g s a r o y i k e n g e k a n , y o ' l n i y o ' q o t d i m - k u ...* (Cho'lpon).

MIFOLOGEMA [*yun.* muthos – so'z; nutq; hikoya] Dunyo xalqlari madaniyatida keng tarqalgan, universallik va globallik xususiyatiga ega bo'lgan ilk mifologik syujetlar, obrazlar va ko'rinishlar. Masalan: *Dunyo og'ochi* mifologemasi, *Boyterak* mifologemasi.

MIFONIM [*yun.* muthos – so'z; nutq; hikoya + onyma – nom] Afsonalar, epopeyalar va ertaklarda uchraydigan xayoliy-to'qima obyektlar va mavjudotlar nomi: *Semurg'*, *Ko'hi Qof*, *Bog'i Eram* kabi.

MIKROMATN Mikromatnning eng kichik qismi. *q.* makromatn.

MIKROSOTSIOLINGVISTIKA Sotsiolingvistikaning tilning kichik, ichki doiralarda amal qilishini o‘rganuvchi bo‘limi. Mikro-sotsiolingvistika ijtimoiy psixologiyaning ijtimoiy rol, kichik guruh, birlamchi/ikkilamchi guruh, lider/tobe shaxs kabi asosiy tushunchalaridan foydalangan holda inson va uni o‘rab turgan muhitni tadqiq markaziga qo‘yadi. Mazkur yo‘nalishda turli ijtimoiy rollarga mansub bo‘lgan muloqot ishtirokchilari (vrach va bemor, er va xotin, ustoz va shogird) ning muloqot xulqi mexanizmlarini yoritish maqsadida nutqiy muloqot dialoglar, poliloglar misolida tadqiq etiladi.

MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATI Ikki millat, ikki madaniyat va ikki tilga mansub kishilar orasida yuzaga keluvchi, shaxsning boshqa madaniyat vakili bilan muloqotida namoyon bo‘luvchi madaniyat.

MILLIY MENTALITET 1 Millat an‘analari, madaniyati, ijtimoiy tuzilmasi, turmush tarzi asosida shakllangan milliy ong va faoliyatning o‘ziga xos xarakteri.

2 Millat kognitiv stereotiplari bilan belgilanadigan voqelikni idrok qilishning milliy usuli.

MILLIY PRETSEDENT NOMLAR Biror xalq lingvomadaniyatiga xos bo‘lgan, nutqning turli ko‘rinishlarida ko‘p murojaat qilinadigan mashhur nomlar. Masalan: *Amir Temur, Afrosiyob, Alisher Navoiy, Alpomish, Tohir, Zuhra, Nasriddin Afandi, Bogi Eram* kabi o‘zbek lingvomadaniyatiga xos bo‘lgan nomlar.

MILLIY QADRIYATLAR Muayyan xalq, millat, elat hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma‘naviyati, urf-odat va an‘analari, o‘tmishi va kelajagi, ayni vaqtdagi ijtimoiy muhiti bilan bog‘liq bo‘lgan, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, xatti-harakatlar majmuyi; shaxslar va ijtimoiy guruhlar faoliyatini tegishli me‘yorga soladigan ma‘naviy hodisa.

MILLIY REALIYALAR Muayyan xalqning hayoti, turmushi, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti uchun xarakterli bo‘lgan predmetlar, hodisalar va obyektlarni nomlovchi, boshqa xalqlar uchun unchalik tanish bo‘lmagan yoki begona bo‘lgan, ularning tillarida aniq muqobili bo‘lmagan, milliy koloritni ifodalovchi so‘zlar yoki so‘z birikmalari; muqobilsiz leksika turlaridan biri.

MILLIYLIK Tarixan tashkil topgan barqaror ijtimoiy-etnik birliklarni, ya'ni millatlar va elatlarni boshqa barqaror ijtimoiy birliklardan farqlovchi ma'naviy, ruhiy va madaniy o'ziga xosliklar va tafovutlar majmuyi.

MILLIY-MADANIY ASSOTSIATSIYALAR [D.Lutfullayeva termini] Leksemalarning milliy-madaniy belgisiga asoslangan assotsiatsiyalar. Bunda assotsiativ bog'lanish muayyan lingvomadaniy birlik asosida yuzaga keladi. Masalan, *to'y (nikoh to'yi)* so'zi o'zbek kishilari lisoniy xotirasida *oqo'rar, nikoh, kelin-kuyov, quda, sarpo, to'yxona, tantana, karnay-surnay, qo'shiq, raqs, xonanda* kabi to'y bilan bog'liq leksemalardan iborat assotsiativ qatorni yuzaga keltiradi.

MILLIY-MADANIY KONNOTATIVLIK [V.N.Teliya termini] Lisoniy birliklar ma'no uzvlarining madaniyat qoidalari, me'yorlari, stereotiplari rakursidagi talqini, milliy nigoh, turg'unlashgan madaniy qarashlar prizmasidagi ma'no qirralari.

MILLIY-PSIXOLOGIK LAKUNALAR Biror lingvomadaniyat vakillariga xos milliy-madaniy xususiyatlarning boshqa lingvomadaniyat vakillariga xos emasligi. Masalan, koreyslar uchun o'zaro salomlashganda *Ovqat yedingizmi?* deb so'rash odat tusiga kirgan bo'lsa, o'zbeklar muloqoti uchun bu holat notabiiy hisoblanadi.

MILLIY STEREOTIP *ayn. etnik stereotip.*

MINNATDORCHILIK NUTQIY AKTI Minnatdorchilik mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlar.

MIQDOR DEYKSISI Deyksisning narsa-buyum, harakat miqdoriga ishorani anglatuvchi turi.

MODDIY QADRIYATLAR Inson mehnati natijasida yaratilgan moddiy dunyo predmetlari, shuningdek, o'tmish madaniy merosi predmetlari.

MODUS *ayn. modal ma'no.*

MONOLINGVIZM *ayn. bir tillilik.*

MORFOPRAGMATIKA [M.Hakimov termini] Pragmatolingvistikaning morfologik birliklarning pragmatik xususiyatlarini o'rganuvchi bo'limi.

MORTAL METAFORALAR Jonli narsalarni jonsiz tarzda ifodalovchi metaforalar.

MOTOR AFAZIYA Bemorning nutq jarayonida kerakli soʻzlarni topa olmasligi; afaziyaning bir turi.

MOTOR ALALIYA Bolaning nutqni tushunsa-da, kam va notoʻgʻri gapirishi, ayrim tovushlarni talaffuz qilgani holda tovush birikmalarini oʻzlashtira olmasligi bilan xarakterlanuvchi alaliya turi. Bunda bola koʻp hollarda butun soʻz oʻrniga uning bir qismini aytishi kuzatiladi.

MUALLIF LEKSIKOGRAFIYASI Alohida mualliflar (adiblar, publitsistlar, siyosatchilar, faylasuflar kabi) asarlarining lugʻatini tuzish nazariyasi va amaliyoti.

MUALLIFSIZ MEDIAMATN Maʼlum bir muallif yoki bir guruh odamlar tomonidan tuzilgan boʻlishidan qatʼi nazar, ommaviy auditoriyaga butun jamoa yoki tashkilot, masalan, gazeta tahririyati, radiostansiya, televizion dastur, axborot agentligi nomidan eʼlon qilinadigan mediamatn.

MULOQOT STRATEGIYASI Muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshirishga yoʻnaltirilgan nutqiy harakatlarning rejalashtirilishi.

MULOQOT TAKTIKASI Muloqot strategiyasini amalga oshirish maqsadida nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda qoʻllanadigan oʻziga xos usullar, nutqiy harakatlar.

MULOQOTNING AKUSTIK TIZIMI Nutqiy muloqot jarayonida kommunikantlarning axborot uzatishi yoki almashishida ishtirok etadigan prosodik komponentlar hamda noverbal vositalar (tomoq qirish, kulgu, yoʻtal v.b.) ning birlashuvi.

MULOQOTNING OLFAKTOR SISTEMASI Yoqimli va yoqimsiz hidlar orqali axborot uzatish hamda bu axborotni qabul qiluvchi hid bilan bogʻliq sezgi organlari. M.Burxanova fikriga koʻra, olfaktor sistema elementlari ham muloqotning noverbal vositalari qatoriga kiradi.

MULTILINGVIZM *ayn. koʻptillilik.*

MUQOBILSIZ LEKSIKA Muayyan xalq taraqqiyotining maʼlum davrida tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa shart-sharoitlar zahirida vujudga kelgan, maʼlum xalq urf-odatlarini, anʼanalari, madaniyati, mentalitet, turmush tarziga xos predmet va tushunchalarni ifodalovchi, boshqa tillarning lugʻaviy tizimida muqobili boʻlmagan, oʻzga tillarga tarjima qilib

bo'lmaydigan so'z va birikmalar.

MUVOFIQLASHGAN BILINGVIZM Zullisonayn shaxsning lisoniy ongida parallel ravishda mavjud bo'lgan va nutqiy muloqotda bir-biri bilan aralashib ketmaydigan ikki til tizimidan teng darajada samarali foydalanish.

N

NABOTOT LINGVOMADANIY KODI Lingvomadaniyatshunoslikda: muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan nabotot bilan bog'liq tushunchalarni anglatuvchi so'z (yoki so'zlar, so'z birikmasi) tayanch komponent bo'lgan lisoniy (nutqiy) birlik; biomorf kod turlaridan biri. Masalan: *d e n g i z d a y mavjlanmoq, sh a m o l d a y yelmoq, qovog'idan q o r y o g ' m o q, umr b a h o r i* kabi.

NARSA-BUYUM LINGVOMADANIY KODI Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan narsa-buyumlarni anglatuvchi so'z (yoki so'zlar, so'z birikmasi) tayanch komponent bo'lgan lisoniy (nutqiy) birlik. Masalan, *o'choq* so'zining "biror narsa paydo bo'ladigan va tarqaladigan joy" ma'nosi asosida shakllangan birliklar: *bilim o'chog'i, madaniyat o'chog'i* kabi.

NATURFAKT 1 Arxeologiyada: inson tomonidan hech qanday ishlov berilmagan arxeologik qazilma namunasi.

2 Madaniy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan har qanday tabiiy narsa va obyekt.

NATURMORF METAFORALAR Real mavjud bo'lgan predmetlar, ko'pincha tabiiy obyektlar nomi vositasida insonning ichki dunyosi, ruhiyatini ifodalashga asoslangan metaforalar, bazaviy metafora turlaridan biri. *q. bazaviy metaforalar.*

NEYROLINGVISTIKA [*yun.* neuron – tomir, nerv] Psixologiya, psixolingvistika, tilshunoslik fanlari integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan, nutqiy faoliyatining mexanizmlarini va mahalliy miya shikastlanishlarida yuzaga keladigan nutq jarayonlaridagi o'zgarishlarni o'rganuvchi fan sohasi. Neyrolingvistikaga doir dastlabki tadqiqotlar XIX asrning oxirgi choragida amalga oshirilgan.

NISHON MAYDONI [J.Lakoff va M.Jonson termini] Inson tafakkurida qiyoslash natijasida yuzaga kelgan yangi metaforik ma'nodan iborat bo'lgan kognitiv maydon; konseptual metaforalar nazariyasining asosiy tushunchalaridan biri.

NOBADIY MATN M.Yo'ldoshevning ta'rifiga ko'ra, "...asosiy maqsad-mohiyatida kommunikativ vazifa yetakchilik qilgan matn."

NOIMPERATIV SHAKL Imperativ mazmunning to'g'ridan to'g'ri emas, nisbatan yumshoqroq tarzda ifodalanishi.

NOMINATIV METAFORA Yangi lug'aviy birlik hosil qiluvchi metafora.

NOVERBAL KONSEPTLAR Verbal ifodaga ega bo'lmagan yoki sharoit talabiga ko'ra (masalan, tahlil, tajriba jarayonlarida) sun'iy tarzda ifodalanadigan konseptlar; konseptlarning tilda ifodalanishiga ko'ra tasnifga kiruvchi turlaridan biri. (Ushbu tasnifga ko'ra konseptlar verbal konseptlar hamda noverbal konseptlar guruhlariga bo'linadi). Tilshunoslikda ko'p hollarda milliy urf-odat va marosimlarda amalga oshiriladigan harakatlar, imo-ishoralar noverbal konseptlarga misol sifatida keltiriladi.

NOVERBAL TO'SIQLAR Talaffuz qilingan nutq birliklari va ularga hamroh bo'luvchi paralingvistik vositalarning nomuvofiqligi sababli yuzaga keluvchi kommunikativ to'siqlar. *q. kommunikativ to'siq.*

NUTQIY AKT 1 Muayyan jamiyatda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli nutqiy harakat; pragmatik vaziyat doirasida ko'rib chiqiladigan me'yoriy ijtimoiy-verbal xatti-harakatlar birligi. Tilshunoslikda mo'ljallanganlik, maqsadga yo'naltirilganlik, konvensionallik nutqiy aktning asosiy xususiyatlari sifatida belgilangan. M.Hakimov nutqiy akt komponentlari sifatida so'zlovchi, tinglovchi, nutq obyekti – faktik material hamda nutqiy vaziyat ishtirok etishini qayd etadi. M.Qurbonova esa mazkur komponentlar qatoriga nutq ishtirokchilarining umumiy til bilimi va til ko'nikmasini ham kiritish lozim, degan fikrni ilgari surgan.

2 Alohida nutq akti; so'zlovchi (yozuvchi) ning tinglovchi (o'quvchi)ni nazarda tutgan holda amalga oshiradigan nutqiy harakati.

NUTQIY MANIPULYATSIYA Psixolingvistik mexanizmlar vositasida adresatning ruhiyatidan begona istaklar va maqsadlarning o‘rin olishi maqsadida amalga oshiriladigan nutqiy harakatlar.

NUTQIY ETIKET Insonlarning muloqot vaziyatlarida ijtimoiy belgilangan va madaniy o‘ziga xos nutqiy xulq-atvor qoidalari.

NUTQIY FAOLIYAT Fikrni moddiylashtirish jarayoni; muayyan maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan nutqiy harakatlar; o‘zida ijtimoiylik va individuallik xususiyatlarini namoyon etuvchi, til va nutq munosabati yaxlitligidan tashkil topuvchi butunlik. Nutqiy faoliyat inson ijtimoiy faoliyatining turlaridan biri hisoblanib, nutqiy aktlardan tashkil topadi.

NUTQIY JANR [M.M.Baxtin termini] Jumlar yoki matnlarning mavzuiy, kompozitsion va stilistik jihatdan nisbatan barqaror turi; nutq funksional uslublarining kichik ko‘rinishi. Nutqiy janrlar og‘zaki yoki yozma muloqotning tegishli sohasida va vaziyatida qo‘llaniladi. Har bir nutqiy janr muayyan vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan va ma‘lum bir mazmuni yetkazish uchun mo‘ljallangan ifoda usullariga ega. Masalan, qasamyod nutqiy janri, ilmiy ma‘ruza nutqiy janri va b.

NUTQIY METAFORALAR Nutqda turg‘unlashib, qotib qolgan, obrazlilik darajasi kuchsiz bo‘lgan metaforalar. Masalan: *t o‘ g‘ r i gap, o q fotiha kabi.*

NUTQNING JO‘YALILIGI [N.Mahmudov termini] Til vositalarini to‘g‘ri tanlash va bir-biri bilan to‘g‘ri bog‘lash natijasida nutqning muayyan muloqot maqsadi va sharoitlariga to‘liq javob beradigan tarzda tarkib topishi. N.Mahmudovning ta‘kidiga ko‘ra, “...nutqning jo‘yalilik sifatini ta‘minlash uchun nutq tuzuvchi nutqiy vaziyatni, o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan mazmuni, tinglovchining turli xususiyatlarini, muloqotning ijtimoiy-madaniy, axloqiy-estetik jihatlarini yetarli darajada tasavvur etmog‘i lozim.” (O‘qituvchi nutqi madaniyati, – T., 2007).

NUTQ ONTOGENEZI Bola (yoki, umuman, inson tomonidan) hayoti davomida og‘zaki va yozma nutq (til)ning egallanishi, uning kommunikativ qobiliyati, lisoniy tafakkuri hamda adabiy ijodiga oid ko‘nikmalarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar va bosqichlarning jami.

NUTQ PATOLOGIYASI [*yun.* pathos – kasallik] Nutq meʼyorlaridan chetga chiqish. Nutq patologiyasiga quyidagilar kiradi: aqliy funksiyalar taʼsiri natijasida kelib chiqadigan jarayonlarning buzilishi, miyaning mahalliy shikastlanishidan kelib chiqadigan nutq buzilishi (motor va sensor afaziya), sensor tizimlarning disfunktsiyasi bilan bogʻliq nutq buzilishi (masalan, koʻr, kar va kar-soqovlarning nutqi), aqliy zaiflik bilan bogʻliq buzilishlar, nutq aʼzolari harakatini amalga oshirishdagi qiyinchiliklar bilan bogʻliq nutq buzilishlari.

O

OAV TILI 1 Ommaviy axborot vositalari tomonidan hosil qilinadigan va tarqatiladigan matnlarning butun korpusi.

2 Ommaviy axborot vositalarining har biriga xos boʻlgan ogʻzaki va audiovizual komponentlarning maʼlum nisbatiga ega boʻlgan maxsus aralash turdagi belgilar tizimi: bosma nashrlar, radio, televideniye, Internet; oʻz lingvostilistik xususiyatlariga ega boʻlgan barqaror ichki lisoniy tizim.

OBRAZLI TAFAKKUR Xotiradan olingan yoki tasavvurda hosil qilingan obrazlar yordamida fikrlash jarayoni. Odatda, tafakkurning bu turi badiiy ijodkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi odamlarga xos boʻladi. Obrazli tafakkur atrofdagi olamni aniq va subyektiv aks ettirish imkonini beradi.

“OBROʻSIZLANTIRISHDAN HIMOYALANISH”

MULOQOT STRATEGIYASI Shaxsning oʻz obroʻsini tiklash maqsadida oʻzini oqlovchi dalillar keltirish, qarshi hujumga oʻtish taktikalari asosida amalga oshiriladigan strategiya.

“OBROʻSIZLANTIRISH” MULOQOT STRATEGIYASI Raqibning obroʻsini toʻkish maqsadida uning kamchiliklarini fosh qilish, masxara qilish, ayrim hollarda haqorat qilishdan iborat nutqiy harakatlar asosida amalga oshiriladigan, koʻpincha siyosiy matnlarda foydalaniladigan strategiya.

OBJEKTIV TOʻSIQLAR Vaqt, texnika, noqulay joylashuv, diqqatni boʻluvchi ortiqcha jihozlar kabi tashqi muhit, noqulay

sharoit bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan kommunikativ to‘siqlar.
q. kommunikativ to‘siq.

OGOHLANTIRISH NUTQIY AKTI Ogohlantirish mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlar.

OHANGDOSHLIK ASOSIDAGI ASSOTSIATSIYALAR [D.Lutfullayeva termini] Leksemalarning hamohangligiga asoslangan assotsiatsiyalar. Masalan: *baxt – taxt, tun – kun, bog‘ – tog‘* kabi.

OKULESIKA Muloqotning noverbal vositalaridan biri hisoblangan ko‘z ifodalari, ko‘z “tili” anglatadigan axborotlarni tadqiq etuvchi soha.

OLAM MANZARASI [G.Gers termini] Kishilik jamiyati yoki alohida olingan insonning obyektiv reallik xususidagi, shuningdek, unda insonning o‘rni, bilish va yaratishga doir imkoniyatlari, hayot mazmuni haqidagi yaxlit va tizimlashgan bilimlari, g‘oyalari va qarashlari majmuyi.

OLAM MODELI *ayn. olam manzarasi.*

OLAMNING BEVOSITA MANZARASI [Z.D.Popova va I.A.Sternin termini] Insonning obyektiv voqelikni sezgi a‘zolari hamda abstrakt tafakkur qilish vositasida to‘g‘ridan to‘g‘ri bilishi natijasida hosil bo‘lgan, madaniyat ta‘sirida ongda shakllangan stereotiplar va konseptosferalar majmuyidan iborat bo‘lgan olam manzarasi.

OLAMNING BILVOSITA MANZARASI [Z.D.Popova va I.A.Sternin termini] Konseptosferaning kishi ongidagi olamning bevosita (kognitiv) manzarasini moddiylashtiruvchi ikkilamchi belgilar tizimi (til birliklari) orqali aks etishi. Z.D.Popova hamda I.A.Sternin olamning lisoniy manzarasi va olamning badiiy manzarasini olamning bilvosita manzarasi tarkibiga kiritganlar.

OLAMNING FRAZEOLOGIK MANZARASI Olam lisoniy manzarasining frazeologik birliklar vositasida in‘ikos etuvchi bir qismi. Olamning frazeologik manzarasi xalqning ruhiyati, milliy mentaliteti, uning olamni idrok qilishiga doir egallagan ijtimoiy-madaniy tajribasini emotsional-ekspressiv tarzda aniq va yorqin aks ettirib, nisbatan turg‘un, shuningdek, muayyan xalqning o‘zigagina xos bo‘lgan, maxsus manzara hisoblanadi.

OLAMNING GENDER MANZARASI Individual hamda ijtimoiy ongda mavjud bo'lgan, jinslar o'rtasidagi farqlarni aks ettiradigan qadriyatlar, g'oyalar, stereotiplarning tartibli, nisbatan qarama-qarshi bo'lmagan hamda o'zaro bog'langan majmuyi; ijtimoiy-madaniy fenomen. Olamning gender manzarasi o'z tarkibida ikki jins vakillarining voqelikdagi o'rnini baholash asosi bo'lgan ayollar va erkaklarning ijtimoiy-madaniy o'ziga xosliklariga nisbatan qadriyatli munosabatni saqlaydi.

OLAMNING ILMIIY MANZARASI Insonga ma'lum bo'lgan dunyoni, olam tuzilishining umumiy tamoyillari va qonunlari haqidagi g'oyalarning yaxlit tizimini tavsiflovchi ilmiy nazariyalar; olam haqidagi umumiy bilimlar tizimi.

OLAMNING KOGNITIV MANZARASI Z.D.Popova hamda I.A.Sterninlarning fikriga ko'ra, ushbu termin ostida inson yoki xalqning kognitiv ongi vositasida shakllangan, voqelikning sezgi organlari orqali hosil bo'lgan empirik aksi, shu bilan birga tafakkur jarayonida yuzaga kelgan, uning ongli tarzidagi in'ikosi bo'lgan mental obrazi tushuniladi.

OLAMNING KONSEPTUAL MANZARASI 1 Inson faoliyatida aks etadigan bilimlar, fikrlar, g'oyalarning jami.

2 O'z tarixining ma'lum bir davrida jamiyat ongida mavjud bo'lgan va inson dunyoqarashi asosida yotadigan dunyoning global qiyofasi.

OLAMNING LISONIY MANZARASI [L.Vaysgerber termini] Muayyan til jamoasi ongida tarixan shakllangan va uning tilida in'ikos etgan va ayni jamoa uchun xos bo'lgan olam haqidagi tasavvurlar majmuyi, olamni idrok etish va konseptuallashtirishning muayyan usuli. L.Vaysgerber fikriga ko'ra, olamning lisoniy manzarasi, bir tomondan, etnos va uning tili tarixiy taraqqiyotining natijasi sifatida shakllangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning keyingi taraqqiyot yo'lining o'ziga xosligini ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasi kelajak avlodga etnosning tilda muhrlangan dunyoqarashi, axloqqa doir qonun-qoidalari hamda yashash tarzi orqali uzatiladi.

OLAMNING LISONIY TASVIRI *ayn.* **olamning lisoniy manzarasi.**

OLAMNING ODDIY MANZARASI Olam konseptual manzarasining voqelikni hissiy va amaliy o‘zlashtirish natijasida shakllangan, o‘zida xalqning turmush tajribalarini aks ettiruvchi hamda milliy o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan ko‘rinishi (turi). Mutaxassislar olamning oddiy manzarasini jo‘n manzara sifatida talqin qilish noto‘g‘ri ekanligini ta’kidlaydilar.

OLAMNING SODDA MANZARASI *ayn.* **olamning oddiy manzarasi.**

OLFAKSIYA M.Burxanovaning ta’rifiga ko‘ra, “olfaksiya noverbal kommunikativ sistemada borliq va uning elementlari bilan muloqotni amalga oshiruvchi hidlar tili haqidagi soha, fan hisoblanadi.”

OLFAKTOR METAFORA Hid bildiruvchi so‘zlar ma’nosining o‘xshashlik asosida ko‘chishi. Masalan: *qo‘lansa gap, hijron isi* kabi.

ONA TILI Insonning bolalik davrida u bilan birga yashaydigan kattalarga taqlidan o‘zlashtirgan birinchi tili. Ona tili, odatda, ota-ona yoki ulardan birining tilidan iborat bo‘ladi.

ONOMAPOETIKA Lingvopoetikaning badiiy matnda lingvopoetik maqsadda qo‘llangan onomastik birliklarni o‘rganuvchi bo‘limi.

ONOMASTIK METAFORA Onomastik birliklarning o‘xshatish asosida ko‘chma ma’noda qo‘llanishi. Masalan, *Har gal, Har she’rimda, Har tepganda qalb O‘zim o‘z qalbimning bo‘lsam Kolumbi* (O.Matjon) misralarida qo‘llangan *Kolumb* antroponimi onomastik metaforaga misol bo‘ladi.

ONOMASTIK METONIMIYA Onomastik birliklarning aloqadorlik asosida ko‘chma ma’noda qo‘llanishi. Masalan, *Sahna uzra porladi chiroq, Notalardan qo‘zg‘aldi Motsart* (X.Davron) misralarida qo‘llangan *Motsart* antroponimi onomastik metonimiyaga misol bo‘ladi.

ONTOGENEZ [*yun.* ontos – borliq + ...genesis – tug‘ilish; kelib chiqish, paydo bo‘lish] Organizmning individual rivojlanishi, uning shakllanish davridan boshlab hayotining oxirigacha sodir bo‘ladigan ketma-ket o‘zgarishlarning jami.

ONTOLINGVISTIKA Nutq ontogenezi va bolalar nutqi, bola nutqiy qobiliyatining shakllanishi, individual nutq rivojlanishi,

individ nutqining yoshga doir o'zgarishlari kabi muammolarni tadqiq qiluvchi yo'nalish; psixolingvistikaning bir bo'limi.

ONTOLOGIK METAFORALAR [J.Lakoff va M.Jonson termini] Insonning xususiyatlar haqidagi tasavvurlariga asoslangan holda hodisalar, harakatlar, his-tuyg'ularning muayyan predmet yoki biror jism sifatida konseptuallashtirilishi; konseptual metafora turlaridan biri. *q. konseptual metafora.*

ONTOLOGIYA [*yun.* on, ontos – borliq + logos – fan, ta'limot; R.Goklenius termini] Falsafaning borliq, uning tuzilishi va asoslari, tamoyillari va qonuniyatlarini o'rganadigan bo'limi.

OPERATORLAR *ayn. deyktik birliklar.*

ORNITOMORF METAFORALAR Qush va parrandalar hamda ularning belgi-xususiyat hamda harakatlarini nomlovchi so'zlarning jonli mavjudotlar va predmetlarga nisbat berilishi asosida yuzaga kelgan metaforalar, bazaviy metaforaning turlaridan biri. *q. bazaviy metaforalar.*

OZIQ-OVQAT LINGVOMADANIY KODI Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan oziq-ovqatni anglatuvchi so'z (yoki so'zlar, so'z birikmasi) tayanch komponent bo'lgan lisoniy (nutqiy) birlik; lingvomadaniy kod turlaridan biri. Masalan: *t u z i n i ichib, tuzlug'iga tupurmoq, n o n sindirmoq.*

ONG 1 Inson ruhiy faoliyatining eng oliy shakli, uning fikrlash qobiliyati; idrok, aql.

2 Inson miyasida obyektiv reallikning uning (insonning) butun ruhiy faoliyatini o'z ichiga olgan va muayyan maqsadga yo'nalgan holda in'ikos etishi.

P

PARALINGVISTIKA 1 Noverbal vositalarning kommunikativ xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi.

2 Nutqiy muloqotda alohida yoki verbal vositalar bilan paralell qo'llanadigan noverbal vositalarning jami.

PARALINGVISTIK ENANTIOSEMIYA [Y.Odilov termini] Muayyan paralingvistik birlik orqali ifodalangan ma'nolar o'rtasidagi

zidlik. Masalan: *bosh irg'amoq* iborasining "tasdiqlamoq" va "inkor etmoq" ma'nolarida namoyon bo'lishi. Qiyoslang: *Boya Matluba imtihon topshirganida bu odam yo'q edi, shuning uchunmi, boshqami, Matluba iymanib ko'z qirini tashlar ekan, oq sochli odam ximiya domlasiga "ma'qul" degan ma'noda bosh irg'aganini ko'rib qoldi* (O.Yoqubov); – *Kim yozibdi chaquvni, bilsam bo'ladimi?... Rektor bosh irg'adi. – Buni oshkor qilolmayman* (G.Karimiy). (Lingvomadaniyatshunoslikda milliy-madaniy o'ziga xoslikni namoyon etuvchi paralingvistik birliklar o'rganiladi).

PARALINGVISTIK LAKUNALAR Biror lingvo-madaniyat vakillari imo-ishorasi orqali ifodalanuvchi mazmunning boshqa lingvomadaniyat vakillari uchun neytralligi yoki boshqa ma'noni ifodalashi. Masalan, o'zbeklarda qo'lni oldinga uzatib, ko'rsatkich barmoq bilan ishora qilish (*Bu yerga kel*) odamga nisbatan qo'llansa, koreys va yaponlarda mazkur paralingvistik vosita bunday vazifani bajarmaydi.

PATOPSIXOLINGVISTIKA Psixolingvistikaning nutq jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishidagi patologik holatlarni o'rganuvchi bo'limi.

PEDAGOGIK DISKURS Tarixiy va ijtimoiy-madaniy an'analar bilan tartibga solinadigan, muayyan qadriyatlar, bilimlar va xulq-atvor modellarini yaratish va tartibga solishga qaratilgan nutqiy faoliyat.

PERLOKUTIV AKT So'zlovchining tinglovchiga nutqiy ta'sir ko'rsatishi bilan xarakterlanuvchi nutqiy akt turi.

PERSEPSIYA [*lot.* perception – idrok] Hissiy idrok; narsalar, hodisalarning ongda sezgi organlari orqali aks etishi.

PERSONOLOGIK O'LCHOVDAGI LINGVISTIKA Til, nutqiy faoliyatni personologik yondashuvda o'rganuvchi, til hodisalarini inson shaxsi bilan uzviylikda tadqiq etuvchi yo'nalish.

PIDJIN [*ingl.* pidgin] Etnoslararo hech qanday verbal muloqot vositasi bo'lmagan vaziyatda (bilingvizm, vositachi tilning yo'qligi) o'zaro axborot almashish zarurati bilan mahalliy tillarning chatishuvidan paydo bo'ladigan aloqaviy til turi. Pidjin etnik sohibi bo'lmasligi, lug'at boyligi va ijtimoiy vazifalari cheklanganligi hamda beqaror grammatik tuzilishga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Muayyan sharoit tufayli pidjin biror etnosning ona tiliga aylanib, kreol tillar qatoriga o'tishi mumkin.

POETONIM Badiiy matnda lingvopoetik maqsadda qo'llangan onomastik birlik.

POL GRAYS MAKSIMALARI *ayn.* **Pol Grays tamoyillari.**

POL GRAYS TAMOYILLARI Implikaturalar nazariyasi asoschisi G.P.Grays ta'limotiga binoan kommunikativ faoliyat asosini tashkil qiluvchi "Hamkorlik tamoyillari" deb nomlangan ta'limotning 4 ta qoidasi. Bu qoidalar: 1) miqdor tamoyili (berilayotgan axborotning miqdori me'yoriy bo'lishi, axborot mazmunining tushunilishiga salbiy ta'sir qilmasligi lozim); 2) sifat tamoyili (berilayotgan axborot haqiqatga mos bo'lishi, unda yolg'on axborot bo'lmasligi lozim); 3) mavzuga oidlik tamoyili (axborot mavzusi-dan chetga chiqmaslik lozim); 4) muloqot uslubi (tarzi) tamoyili (berilayotgan axborot aniq, tushunarli, mantiqqa muvofiq bo'lishi lozim) dan iborat.

POLILINGVIZM *ayn.* **ko'ptillilik.**

PRAGMALINGVISTIKA Sh.Safarov ta'rifiga ko'ra, pragmalingvistika – tilshunoslikning "muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladigan" alohida sohasi.

PRAGMATIKA Tilshunoslikda: *ayn.* **pragmalingvistika.**

PRAGMATIK ASSOTSIATSIYALAR Leksemalarning pragmatik belgisiga asoslangan assotsiatsiya. Bunda ko'pincha leksemalarga xos umumiy pragmatik ma'nolar assotsiativ juftliklarni hosil qiladi. Masalan, bosiq – yengiltak, yuksak – tuban, olijanob – pastkash kabi assotsiativ juftliklar til sohiblarining ijobiy va salbiy munosabati, voqelikka aksiologik munosabati asosida hosil bo'lgan assotsiativ juftliklar hisoblanadi.

PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYA Nutqiy muloqotning samaradorligini ta'minlovchi presuppozitsiya.

PRAGMATIK TO'SIQ Reallashishi lozim bo'lgan proposit-siyaga to'sqinlik qiluvchi, uning mazmunini noaniqlashtiruvchi, so'zlovchining fikrlashi hamda talaffuziga aloqador bo'lgan hodisa.

PREDMET DEYKSISI Borliqdagi narsa-predmetlarga ishorani anglatuvchi deyxsis.

PREDMETLI KOD *ayn.* narsa-buyum lingvomadaniy kodi.

PRESUPPOZITSIYA N.Mahmudovning fikriga ko‘ra, ushbu termin ostida nutqiy kommunikatsiyaning to‘g‘ri, real amalga oshishini ta‘minlaydigan, kommunikantlarga avvaldan tanish bo‘lgan muayyan faktlar, umumiy vaziyat bilan bog‘liq bilimlar tushuniladi.

PRETSEDENT JUMLALAR Predikativ yoki nopredikativ xarakterdagi, ko‘pincha uzvlari yig‘indisining mazmuni umumiy mazmuniga to‘g‘ri kelmaydigan, til sohiblari nutqida qayta-qayta murojaat qilinadigan mashhur birliklar. Masalan, iqtibos, maqol, matal, ibora, turg‘un o‘xshatishlar.

PRETSEDENT MATN Lingvomadaniy hamjamiyat vakillariga mazmuni juda yaxshi tanish bo‘lgan, ular tomonidan qayta-qayta murojaat qilinadigan, intertekstual matn tarkibida asl shaklida yoki ayrim o‘zgarishlar bilan qo‘llaniluvchi matn.

PRETSEDENT NOMLAR Mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar, shuningdek, muayyan sifatlarning namunaviy yig‘indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlar. Masalan: *Alpomish, Majnun, Suqrot, Hotam, Napoleon, Rim, Samarqand, Kolumb.*

PREZUMPSIYA *ayn.* presuppozitsiya.

PROKSEMIKA Kommunikatsiya maydoni, uning vazifalari hamda tuzilishi haqidagi yo‘nalish.

PROPOZITIV DEYKISIS Deyksisning obyektiv borliqdagi vaziyatga, voqelikka ishorani anglatuvchi turi.

PROPOZITSIONAL AKT Nutq predmeti haqidagi hukmni sintaktik birliklar vositasida ifodalovchi nutqiy akt.

PROTOTIP [*yun.* prototypon – dastlabki belgi, obraz] Kognitiv psixologiya va kognitiv tilshunoslikda: muayyan kategoriyaning tipik namunasi (yorqin misoli) haqidagi tasavvur; ijtimoiy stereotip.

PROTOTIPLAR NAZARIYASI Kategoriyalashtirish hodisasini tushunchaning prototiplar maqomida keluvchi unsurlariga ishora qiluvchi tizim sifatida o‘rganadigan yo‘nalish. *q.* **prototip.**

PSIXOFAKT *q.* mentefakt.

PSIXOLINGVISTIKA [*yun.* psuche – qalb + *lot.* lingua – til; J.Kantor termini] Nutqiy faoliyatni psixologik va lingvistik yondashuvlar uyg‘unligida tadqiq qiluvchi tilshunoslik sohasi. Psixolingvistikaning tadqiq markazida nutqiy faoliyat subyekti bo‘lgan til

sohibi – kommunikatsiyaga kirishuvchi shaxs turadi. Nutqni idrok etish, uni rejalashtirish, tildan foydalanish, bolaning rivojlanish davrida tilni o‘zlashtirish mexanizmlari, bundagi patologik jarayonlar, tilni o‘zlashtirishning yosh bilan uzviy jihatlari psixolingvistikaning asosiy masalalari hisoblanadi. Amaliy psixolingvistika, ontolingvistika, ijtimoiy psixolingvistika, patopsixolingvistika, etnopsixolingvistika kabi yo‘nalishlari bor.

PSIXOLOGIK KONTEKST Suhbatdoshlarning avvalgi tajribalariga asoslangan real bilimlari; kontekst turlaridan biri. M.Hakimovga ko‘ra, mazkur kontekst tushunchasini izohlashda nutq ishtirokchilarining ruhiyati, kayfiyati, xotirasi, bilimi va o‘zini tutishi kabi omillar ham hisobga olinishi kerak.

Q

QADRIYATLAR Real voqelikning namoyon bo‘lish shakllari, undagi narsa, hodisa va jarayonlar, shuningdek, insoniyat, jamiyat, odamlar, ularning hayoti, faoliyatining ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati va qadrini anglatadigan umumaksiologik kategoriya; inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar.

QADRIYATLAR FALSAFASI *ayn. aksiologiya.*

QADRIYATSHUNOSLIK *ayn. aksiologiya.*

QIYOSIY LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK Lingvomadaniyatshunoslikning alohida, lekin til jihatidan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan etnoslarning lingvomadaniyati tadqiqi bilan shug‘ullanuvchi yo‘nalishi.

QIYOSIY REKLAMA Reklama qilingan mahsulotni shunga o‘xshash, ammo boshqa firma va tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan mahsulot bilan qiyoslashga asoslangan reklama; reklama matnining kommunikativ modellaridan biri.

QO‘L YOZUV EKSPERTIZASI Lingvokriminalistikada: shaxsning nutqiy qobiliyati hamda yozish uslubini o‘rganish orqali matn muallifini aniqlash.

R

RAD ETISH NUTQIY AKTI Rad etish mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlar.

RAMZ Dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalaniluvchi belgi. Masalan, kabutar – aksar madaniyatlarda tinchlik ramzi; oq rang – ezgulik, yaxshilik, qora rang esa yovuzlik, yomonlik ramzi hisoblanadi.

RASMIY TIL 1 *Davlat tili* terminining siyosiy-yuridik sinonimi.

2 Xalqaro doiralarda, xalqaro tashkilotlarda foydalaniladigan tilning yuridik maqomi.

RAQAMLI LINGVOMADANIY KOD Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan raqamlarni anglatuvchi soʻz (yoki soʻzlar, soʻz birikmasi) tayanch komponent boʻlgan lisoniy (nutqiy) birlik. Masalan: *t o' q q i z- t o' q q i z, b i r i i k k i b o' l m a y d i, m a r h u m n i n g y e t t i s i (y i g i r m a s i, q i r q i), b e s h k u n l i k d u n y o* kabi.

RANG-TUS LINGVOMADANIY KODI Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan rang-tusni anglatuvchi soʻz (yoki soʻzlar, soʻz birikmasi) tayanch komponent boʻlgan lisoniy (nutqiy) birlik; lingvomadaniy kod turlaridan biri. Masalan: *Yusufbek hoji xatmi qur'on qilib yurtga osh berdi, O'zbek oyim q o r a k i y i b t a' z i y a o c h d i.* (A.Qodiriy). *Tekshiramiz: o q n i o q q a, q o r a n i q o r a g a a j r a t a m i z.* (S.Ahmad).

REFERENSIAL TAGMA'NO Soʻzlovchinning oʻz ichki maqsadi bilan bogʻliq referensial belgilar xususida soʻz yuritishi; tagma'no koʻrinishlaridan biri.

REIFIKATSIYA [*ingl.* reification – predmetlashtirish] Biror-bir ideal hodisani moddiy mavjudlik sifatida tasavvur etish, mavhum gʻoya va tushunchalarni predmetlashtirish.

REKLAMA-DIALOG Savol-javob shakliga asoslangan, javoblarda reklama qilinayotgan mahsulotning afzalliklari namoyon boʻladigan reklama; reklama matnining kommunikativ modellaridan biri.

REKLAMA-KO'RSATMA Iste'molchining reklama qilinayotgan mahsulotni yaxshi bilib olishiga yo'naltirilgan, u bajarishi lozim bo'lgan harakatlarning ketma-ketligi izchil ko'rsatilgan reklama; reklama matnining kommunikativ modellaridan biri.

REKLAMA MATNI O'quvchi tomonidan reklama obyektiga (g'oyalar, tovarlar va xizmatlar)ga bo'lgan munosabatning o'zgartirilishi yoki mustahkamlanishiga nutqiy ta'sir o'tkazish maqsadida tuzilgan matn; reklama qilinayotgan obyektini taqdim etish va targ'ib qilish shakli.

REPREZENTATIVLAR Adresantning taklif mazmuni (xabar, taxmin, tushuntirish va hokazo) haqiqiy ekanligiga ishonchini ifoda etuvchi nutqiy akt turlaridan biri.

RESPONDENTLAR *ayn. sinaluvchilar.*

RETSIPIYENT Nutqni idrok etuvchi shaxs.

S

SEMANTIK ASSOTSIATSIYALAR Ma'nodagi yaqinlik, aloqadorlik, zidlik kabilar asosida yuzaga keluvchi assotsiatsiyalar. Bunday assotsiatsiyalar sinonimik, antonimik, enantiosemik, giperonimik munosabatdagi so'zlar doirasida yuzaga keladi. Masalan: *chiroyli – go'zal; uzoq-yaqin; kir (yuviladigan kiyim-kechaklar) – kir (yuvilgan kiyim-kechaklar); sa'va –qush* kabi.

SENSOR ALALIYA Bolaning atrofida gilarining nutqini yaxshi tushunmasligi yoki mutlaqo tushunmasligi; alaliyaning bir turi.

SENG [*ingl. slang*] *sotsiolingv.* Ijtimoiy guruhlar, masalan, yoshlar yoki biror kasb egalari tomonidan qo'llanadigan, emotsional-ekspressivligi va yumoristikligi bilan xarakterlanuvchi jargonlar.

SINTAKSOPRAGMATIKA *ayn. sintaktik pragmatika.*

SINTAKTIK PRAGMATIKA Pragmalingvistikaning sintaktik birliklarning pragmatik xususiyatlarini o'rganuvchi bo'limi.

SEMANTIK INERSIYA Matnda metaforik ma'noda qo'llanilgan so'z ta'sirida boshqa birliklarning ham ko'chma ma'no kasb etishi.

SEMANTIK PRESUPPOZITSIYA Tinglovchi uchun tushunarli bo'lgan va u haqiqiy, rost deb hisoblashi lozim bo'lgan hukm

ifodalanuvchi presuppozitsiya.

SEMANTIK TO'SIQLAR Nutqiy muloqotda qo'llangan lisoniy belgilarning ma'nosini noto'g'ri tushunish natijasida yuzaga keladigan kommunikativ to'siqlar. *q. kommunikativ to'siq.*

SEMIOTIKA [*yun.* semeiotikon – belgi] Tilshunoslikda: tabiiy va sun'iy tillarni belgilar tizimi sifatida o'rganuvchi soha.

SENSOR AFAZIYA Bemorning unga qaratilgan so'zlar, jum-lalar ma'nosini anglab yetmasligi hamda o'z nutqini nazorat qila olmasligi; afaziyaning bir turi.

SINALUVCHILAR Lingvistik assotsiativ tajribalarda so'rov-nomada qayd etilgan vazifalarni bajaruvchi shaxslar, shunday tajribaning ixtiyoriy ishtirokchilari.

SINTAKTIK KONSEPTLAR Tilda muayyan sintaktik quril-ma vositasida ifodalanuvchi konseptlar.

SIYOSIY DISKURS Odamlar hayotining siyosiy sohasi bilan bog'liq bo'lgan, maxsus nutq vositalari bilan ifodalangan matn.

SKRIPT [*ingl.* script – qo'lyozma, yozuv] Inson tafakkurida aks etayotgan borliqdagi sabab-oqibat munosabatlari asosida tizimiy bog'langan, stereotip takrorlanuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan voqelarning me'yoriy ketma-ketligi namunasi, kognitiv tuzilma turlaridan biri. Sh.Safarov fikriga ko'ra, skript tarkibiy tuzilishi jihatidan ssenariyga juda ham yaqin turadi, ba'zan uni to'lig'icha takrorlaydi ham.

SLOTLAR [*ingl.* slot – bo'lim; katakcha] Kognitiv tuzilmalar tarkibidagi kichik mazmunli qismlar.

SOF BILINGVIZM *ayn.* muvofiqlashgan bilingvizm.

SOMATIK LINGVOMADANIY KOD Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihat-dan inson organizmi a'zolarini anglatuvchi so'z (yoki so'zlar, so'z birikmasi) tayanch komponent bo'lgan lisoniy (nutqiy) birlik; lingvomadaniy kod turlaridan biri. Masalan: *b u r n i n i tiqmoq, q o' l i uzun, besh q o' l barobar emas, j i g a r i d a n urmoq* kabi.

SOTSIAL DIALEKT *ayn.* sotsiolekt.

SOTSIAL JARGON *ayn.* sotsiolekt 1.

SOTSIOFAKT Shaxslararo o'zaro ta'sirlar va ijtimoiy tuzil-malar; ijtimoiy xulq-atvorga ta'sir etuvchi madaniy xarakterdagi tuzilmalari va tashkilotlar. (Oilalar, ta'lim tizimlari, diniy guruhlar

kabilarni o‘z ichiga oladi.)

SOTSIOLEKT [*lot.* *socialis* – jamiyat + (*dia*)l *ekt*] **1** Muayyan ijtimoiy guruh (kasbiy, tabaqaviy, yoshga ko‘ra va h.k.) nutqiga xos bo‘lgan xususiyatlar majmuyi; ijtimoiy dialekt. Bunda birinchi navbatda leksik va uslubiy xususiyatlar e‘tiborga olinadi. Masalan, jinoyatchilar nutqida qo‘llanuvchi jargonlar, yoshlar nutqiga xos slenglarni sotsiolektlarga misol tariqasida keltirish mumkin. Sotsiolektlar ijtimoiy chegaralangan kishilar guruhining kommunikativ ehtiyojlari natijasida yuzaga keladi.

2 Til mavjudligining asosiy shakllari (hududiy dialektlar, adabiy til, xalq tili va b.).

SOTSIOLINGVISTIK TADQIQOT USULLARI Sotsiolingvistikada ishlatiladigan usullar uchta asosiy guruhga bo‘linadi: 1) sotsiolingvistik ma‘lumotlarni to‘plash usuli. Bunda bevosita kuzatish, intervyu olish, so‘rovnomalar tarqatish, test savollarini tarqatish, tahlil qilish kabi usullar qo‘llanadi; 2) materiallarni qayta ishlash usullari; 3) olingan ma‘lumotlarning ishonchliligini baholash usullari.

SOTSIOLINGVISTIKA [*lot.* *socialis* – ijtimoiy + *lingvistika*] Tilning ijtimoiy tabiati, jamiyat hayotidagi o‘rni, ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta‘siri kabi muammolarni tadqiq etuvchi soha, tilshunoslikning bir bo‘limi.

SOTSIUM *ayn.* **jamiyat.**

SSENARIY [*lot.* *scenarius* – sahnaga oid] Kognitiv tilshunoslikda: muayyan tipik hodisaga xos bo‘lgan o‘zaro bog‘liq faktlarning uzviyligini aks ettiruvchi namunaviy tuzilma; kognitiv tuzilma turlaridan biri. Sh.Safarov fikriga ko‘ra, mazkur namunaviy tuzilma ma‘lum voqelik parchasiga oid bo‘lgan harakatlar va holatlarning uzviy munosabatlaridan iborat bo‘ladi.

STEREOTIP [*yun.* *stereos* – qattiq + *tupos* – tasvir; U.Lippman termini] **1** Lingvomadaniyatshunoslikda: predmet va vaziyatlar haqidagi turg‘unlashgan milliy-madaniy tasavvurlar va ularning tilda aks etuvchi shakllari; olam konseptual manzarasining bir qismi, kichik mental manzara.

2 Kognitiv tilshunoslikda: ijtimoiy guruhlar yoki alohida shaxslar, predmetlar haqidagi qoliplashgan tushuncha, qarashlar; axborotni qayta ishlash shakllaridan biri.

STIMUL MATN Assotsiativ tajriba metodida sinaluvchilar reaksiyasini aniqlash uchun foydalaniladigan matn.

STIMUL SO‘Z Eshitish yoki o‘qish natijasida inson xotirasida boshqa lisoniy birliklarning yodga tushishiga turtki beruvchi so‘z. Stimul so‘zdan assotsiativ tajriba metodida sinaluvchilar reaksiyasini aniqlash uchun foydalaniladi.

STRATEGIK DASTUR Kommunikantning asosiy maqsadini amalga oshirish bilan bog‘liq holda kommunikativ strategiyalardan birining yetakchilik qilishi va boshqa strategiyalarning mazkur strategiyaga bo‘ysunishi bilan xarakterlanuvchi jarayon.

STRUKTURAVIY METAFORALAR [J.Lakoff va M.Jonson termini] Muayyan murakkab, mavhum tushunchaning boshqa aniq tushuncha vositasida konseptuallashtirilishi; konseptual metafora turlaridan biri. *q. konseptual metafora.*

SUBKOD [*lot. sub – quyida + fr. code, lot. codex – qonunlar majmuyi*] 1 Tilning mavjudlik shakli.

2 *sotsiolingv.* Qo‘llanish doirasi va hajmi kodga nisbatan kichik bo‘lgan quyi kommunikativ tizim; tilning har qanday turi. Sh.Usmonova hozirgi o‘zbek milliy tilining subkodlari sifatida adabiy til, hududiy dialektlar, ijtimoiy jargonlar va shahar (Toshkent) koynesini qayd etgan.

SUBMADANIYAT [*lot. sub – quyida + madaniyat*] Umumiy madaniyat tizimiga kiruvchi kichik madaniy tizim. Masalan, yoshlar madaniyati.

SUBYEKTIV BAHO So‘zlovchi tomonidan obyektiv borliqqa va o‘z nutqiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatning ifodalaniishi.

SUBYEKTIV INTERPRETATSIYA *ayn. ikkilamchi interpretatsiya.*

SUBYEKTIV-TAHLILIIY STRATEGIYA Matn yaratuvchining subyektiv munosabati ustuvorlik qiluvchi kommunikativ strategiya.

SUD LINGVISTIKASI Sud jarayoni bilan bog‘liq matnlarni lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish, tahlil qilishdan iborat lingvistik ekspertiza.

SUN‘IY BILINGVIZM Bilingvizmning ikkita tilda so‘zlashuvchi shaxsning ikkinchi tilni o‘sha til sohiblari bilan tabiiy

ravishda muloqot qilish orqali emas, o'qituvchi (darslik) yordamida o'rganishi natijasida sodir bo'ladigan ko'rinishi.

SUN'IY TIL 1 Ma'lum bir maqsad bilan yaratiladigan va tabiiy tillarning o'rnida qo'llanadigan shartli belgilar tizimi. Masalan, 1879-yilda Germaniyada I.M.Shleyxer tomonidan yaratilgan volapyuk, 1887-yilda Polshada L.L.Zamengof tomonidan yaratilgan esperanto, shuningdek, matematik yordamchi tillar, informatsion tillar va b. Sun'iy tillar muayyan maqsadlar uchun yaratilgan maxsus tillar (masalan, matematikada foydalaniladigan ramzlar tili) hamda insonlarning o'zaro muloqotida foydalanish uchun mo'ljallangan nomaxsus (rejalashtirilgan) tillar tarzida ikkiga ajratiladi. Sun'iy tillar tabiiy tilni qo'llash samarasiz bo'lgan yoki uni qo'llash mumkin bo'lmagan vaziyatlarda foydalanish maqsadida yaratiladi. Bunday tillarni yaratish g'oyasini fransuz olimi R.Dekart va nemis olimi G.Leybnits ilgari surganlar.

2 Shakllanishi va rivojlanishiga insonning ongli ta'siri yuqori darajada bo'lgan tabiiy tillarning quyi tizimlari. Masalan, mavjud dialektlarning sintezini ifodalovchi adabiy tillar; professional va maxfiy tillar mutaxassislar tomonidan sun'iy tillar qatoriga kiritiladi.

SYUJETLI REKLAMA Biror mahsulotni ma'lum bir syujet vositasida reklama qilish; reklama matnining kommunikativ model-laridan biri. (Ko'pincha televideniya da foydalaniladi).

SO'ROQ NUTQIY AKTI So'roq mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlari.

SO'ZLASHUV TILI Millatlar shakllanishi davrida kommunikativ ehtiyoj sababli verbal aloqa vositasi sifatida shakllangan, tilning kundalik muloqotda foydalaniladigan og'zaki turi. So'zlashuv tilida, bir tomondan, yangi lisoniy shakllarning yuzaga kelishi kuzatilsa, ikkinchi tomondan, u klishelar, andozalar va stereotiplardan ko'p foydalanishi bilan xarakterlanadi. So'zlashuv tili turli milliy tillarda va turli davrlarda adabiy tilning og'zaki shakli sifatida xizmat qiladi.

SO'ZNING ICHKI SHAKLI [A.A.Potebnya termini] Voqelikdagi u yoki bu predmetni nomlashga asos bo'lgan nuqtayi nazar. So'zning ichki shakli muayyan so'zning dastlabki ma'nosi yoki uni tashkil etgan morfemalarning motivlashuvi orqali aniqlanadi. Masalan, o'zbek tilidagi *muzqaymoq* so'zi **muz** va **qaymoq**

tushunchalari bilan; rus tilidagi *мороженое* soʻzi **морозить** - **muzlatmoq** tushunchasi bilan; ingliz tilidagi *ice-cream* soʻzi esa **muz** va **krem** tushunchalari bilan bogʻliq. Soʻzning ichki shaklida xalqning milliy tafakkuri, borliqqa munosabati, olamning lisoniy manzarasini yaratishdagi oʻziga xosligi namoyon boʻladi.

T

TABU [*polinez.* tapu – taqiqlash] Diniy eʼtiqod, irim, qoʻrqish, noxushlikni paydo qilish kabilar taʼsirida man qilingan, taqiqlangan harakat yoki soʻzlar. Masalan, oʻzbeklarda *chayon* soʻzini tilga olish, cheti uchgan idishda suv yoki ovqat ichish, supurgini tik qoʻyish, chillasi chiqmagan chaqaloq bor xonadonga kechki payt borish (ayrim hududlarda) taqiqlanadi.

TAFAKKUR Predmet va hodisalarning umumiy va muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular oʻrtasidagi qonuniy bogʻlanishlarni aks ettiradigan va tilda bevosita voqe boʻladigan bilishning ratsional bosqichi.

TAGMAʼNO M.Hakimov fikriga koʻra, “nutq ishtirokchilari tomonidan ochiq ifoda etib boʻlmaydigan matn ostidagi ichki yashirin fikr”; propozitsiya vositasida ishora qilinadigan hukm ichidagi hukm.

TAKLIF NUTQIY AKTI Taklif qilish mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlar.

TALAB NUTQIY AKTI Talab qilish mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlar.

TASAVVUR Ayni vaqtda insonning sezish aʼzolariga taʼsir etmayotgan predmet yoki hodisalar obrazining fikran qayta tiklanishi.

TASAVVUR ASOSIDAGI MATNLAR Propozitiv tuzilishi real voqelikni emas, tasavvur asosidagi voqelikni ifodalaydigan matnlar.

TASVIRIY MATN [M.Yoʻldoshev termini] Tinglovchi uchun nomaʼlum boʻlgan shaxs, predmet, joy yoki voqea-hodisa batafsil tasvirlangan matn; badiiy matnning mazmuniy turlaridan biri. **q.hikoya mazmunli matn.**

TASHKILIY TO‘SIQLAR Boshqaruv tizimidagi kamchiliklar sababli, odatda, xodimlar o‘rtasida yuzaga keladigan kommunikativ to‘siqlar. *q. kommunikativ to‘siq.*

TASHQI NUTQ Ovozli, tovushlar orqali talaffuz qilinadigan nutq.

TEMPORAL LINGVOMADANIY KOD *ayn. vaqt lingvomadaniy kodi.*

TEXNOMORF METAFORA Insonni, narsa va hodisalarni texnik qurilmalar va mexanizmlar, texnologik jarayonlar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan predmetlar bilan qiyoslash orqali shakllantiriladigan metafora.

TIBBIYOT DISKURSI Tibbiyot bo‘yicha mutaxassisning matnni yaratish vaqtidagi tibbiyot bilan bog‘liq bo‘lgan hamda tibbiyot bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxslar (bemor, uning yaqin kishilari)ga qaratilgan nutqiy fikrlash jarayoni.

TIBBIYOT LINGVOMADANIY KODI Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan tibbiyotga tegishli tushunchalarni anglatuvchi so‘z (yoki so‘zlar, so‘z birikmasi) tayanch komponent bo‘lgan lisoniy (nutqiy) birlik; lingvomadaniy kod turlaridan biri. Masalan: *K a s a l n i yashirsang, i s i t m a s i oshkor qiladi, 20-asr v a b o s i, y a r a s i n i tirnamoq, b e z g a k tutganday qaltiramoq, cho‘ntak k a s a l kabi.*

TIL 1 Til sohiblarining lisoniy xotirasida saqlanuvchi muayyan tilga oid lug‘aviy birliklar, ularning ma‘nolari, leksik va sintaktik derivatsiya qoliplarini o‘z ichiga olgan tizim; nutqiy faoliyatga kirishish imkoniyati.

2 Insonlar o‘rtasidagi muloqotning muhim vositasi, ijtimoiy-ruhiy hodisa.

3 Semiotikada: belgilar tizimining muayyan turi.

4 Sotsiolingvistikada: muayyan vaqtda, muayyan makonda, muayyan jamiyatda foydalaniladigan, o‘zida umumiy ma‘noda qaraladigan tilga xos xususiyatlarning voqelanishini namoyon etadigan muayyan etnosning muloqot vositasi; idioetnik til.

5 Lingvomadaniyatshunoslikda: muayyan xalqning milliy tafakkuri va madaniyatining amal qilishi, aks etishi va mustahkamlashuvi vositasi; o‘zida madaniy axborotni saqlash va avloddan

avlodga uzatish vazifasini bajaruvchi hodisa.

6 Kognitiv tilshunoslikda: inson tomonidan obyektiv reallikni bilish jarayonida sodir bo‘luvchi qabul qilish, idrok etish, kategoriyalashtirish, konseptuallashtirish kabi mental jarayonlar, ularning shakl va turlarining hosil bo‘lishi bilan zich bog‘lanuvchi hamda ushbu kognitiv birliklarni lisoniy birliklar shaklida moddiylashtiruvchi, voqelantiruvchi vositalar tizimi; kognitiv tilshunoslikning tadqiq obyekti.

TIL EGASI *ayn. til sohibi.*

TIL EKOLOGIYASI Hududiy yaxlitlik, milliy madaniyat, ona tili an‘anaviy sohalarining saqlanishi, shuningdek, milliy o‘zlikni anglashning yuqori darajasi kabi etnik hamjamiyat va uning tilining o‘ziga xosligini saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan tabiiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlar.

TIL MAQOMI Tilning ijtimoiy-kommunikativ tizimdagi holati:

- 1) tilning yuridik maqomi – u yoki bu ijtimoiy-kommunikativ tizimda tilni qo‘llashning qonunchilik yo‘li bilan mustahkamlanishi;
- 2) tilning faktik maqomi – tilning real qo‘llanishi, uning vazifaviy yuklamasi.

TIL MA‘LUMOTLARINING KOGNITIV QAYTA ISHLANISHI Verbal muloqotda, mutolaa jarayonida, matnlar bilan tanishish vaqtida inson miyasi qabul qiladigan axborotning qayta ishlanishi.

TIL SIYOSATI Davlat, partiya, sinf, ijtimoiy guruh tomonidan til va til quyi tizimlarining mavjud vazifalarini, yangi yoki amaldagi lisoniy me‘yorlarni o‘zgartirish yoki saqlab qolish, ularni tartibga solish hamda rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuyi.

TIL SOHIBI Til sohibi tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlarda ta’riflangan. Jumladan: a) muayyan tilda nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi, ya’ni nutq tuzish va uni idrok etish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs; b) tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi, uni muloqotning ijtimoiy-madaniy, kundalik va professional doiralarida qo‘llovchi ijtimoiy-madaniy shaxs, kommunikant; d) o‘z millatining milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug‘at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs; muayyan til vakili.

TIL VA JAMIYAT. Zamonaviy tilshunoslikning markaziy muammolaridan biri. Bunda quyidagi muammolarning umumiy xususiyatlari o‘rganiladi: tilning vujudga kelishi, rivojlanishi va amal qilishi; uning jamiyat bilan aloqasining o‘ziga xos tabiati; tilni turli sohalarda qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan vazifaviy xilma-xillik; tildan foydalanishdagi ijtimoiy farqlar; ikki va ko‘pilli jamiyatdagi tillarning o‘zaro munosabatlari; tilning millatlararo aloqa vositasi sifatidagi roli, jamiyatning tilga ongli ta‘siri shakllari va b.

TIL VA MADANIYATNING KUMULYATIV VAZIFASI Til va madaniyatning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni saqlashi, avloddan avlodga uzatishi, madaniyatlararo muloqotni yuzaga keltirishi va uni rivojlantirishi. Bunda til ham madaniyat mahsuli, ham uning mavjudligining asosiy sharti bo‘lib, madaniyat qiyofasini belgilovchi, uning vorisiyligini ta‘minlovchi fenomen vazifasini bajaradi.

TIL ZICHLIGI Muayyan hududda yashaydigan aholining shu hududda qo‘llanadigan tillar soniga nisbatini ifodalovchi shartli miqdor.

TILLARNING SOTSIOLINGVISTIK TASNIFI Turli sotsiolingvistik mezonlar asosida amalga oshiriladigan tasnif; tipologik tasnif turlaridan biri. Tillarning sotsiolingvistik tasnifi bir necha nuqtayi nazardan amalga oshirilgan. Jumladan: 1) yozuvi mavjud yoki mavjud emasligiga ko‘ra: yozuvli va yozuvsiz tillar; 2) yozuvining yaratilish davriga ko‘ra: qadimgi yozuvli tillar; eski yozuvli tillar; yozuvi keyingi yaqin davr ichida shakllangan tillar; yangi yozuvli tillar; 3) yuridik maqomiga ko‘ra: davlat tillari, rasmiy tillar, kamsonli tub xalqlar tillari, noaniq maqomga ega tillar; 4) ijtimoiy vazifalari hajmiga ko‘ra: ko‘pvazifali tillar (xalqaro tillar, millatlararo aloqa tillari, xalqlar tillari, millatlararo aloqaning mintaqaviy tillari) va monofunksional tillar.

TILNI PLANLASH TIRISH *ayn. tilni rejalashtirish.*

TILNI REJALASH TIRISH Ijtimoiy hayotda tillarning yoki tilning quyi tizimlarining funksional nisbatlarini o‘zgartirish, til kodifikatsiyasi masalasini hal qilish, umuman, tilga aloqador muammolarning yechimini topish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar majmuyi. Tilni rejalashtirish lisoniy materiallarni keng miqyosda yig‘ish, muqobil rejalarni ko‘rib chiqish, turli

usullar bilan qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

TILNING IDIOETNIK XUSUSIYATI Muayyan etnos dunyoqarashining o'ziga xos jihatlari, ushbu etnosga oid mental va madaniy xususiyatlarning uning tilida aks etishi. Tilning idioetnik xususiyati tushunchasi lingvomadaniyatshunoslikda, asosan, olamning lisoniy manzarasiga nisbatan qo'llanadi. Bunga ko'ra, idioetniklik olamning lisoniy manzarasiga xos bo'lgan boshqa bir xususiyat-universallikka qarama-qarshi qo'yiladi.

TILNING KREOLLASHISHI Pidjinning jamiyatning barcha asosiy kommunikativ ehtiyojlariga xizmat qila boshlashi va pirovardida yangi avlodning yagona tili sifatida shakllanishiga, ko'p hollarda esa uning ona tiliga aylanishiga olib keluvchi jarayon.

TILNING RAMZIY VAZIFASI Muayyan til millatlararo va umumdavlat aloqasi vositasi bo'lmagan vaziyatda uning ichki integratsiya ramzi vazifasini bajarishi. Masalan, malay tili Singapurning rasmiy tili hisoblanadi, ammo u faqat ramziy vazifani bajaradi: unda davlat madhiyasi ijro etiladi. Muloqotning asosiy sohalarida boshqa tillar (ingliz, xitoy, tamil tillari) dan foydalaniladi.

TILNING SOTSIOLINGVISTIK PORTRETI Tillarning ijtimoiy vazifalari parametrlarining miqdoriy ko'rsatkichlardagi tizimiy ko'rinishi.

TIRIK TIL. So'zlashuvchilari soni turlicha miqdorda – bir nechta til sohiblaridan boshlab ko'p millionli adadgacha ega bo'lgan, zamonaviy jamiyatda qo'llanayotgan va tabiiy ravishda avloddan avlodga o'tib kelayotgan til. Tirik tillar funksional rivojlanishning turli darajalari bilan ajralib turadi: ular jahon miqyosida keng qo'llanadigan dunyo tili maqomida ham, shuningdek, kamsonli etnos a'zolari o'rtasida ishlatiluvchi til darajasida ham bo'lishi mumkin.

TOBE BILINGVIZM Ikkita tilda so'zlashuvchi shaxs uchun egallangan tillardan birining ustuvor ahamiyat kasb etishi va ushbu tilning boshqa tildan foydalanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishi.

TOPISHMOQ Lingvomadaniyatshunoslikda: til sohiblarining milliy-obrazli tafakkur tarzini va aksiologik munosabatini namoyon etuvchi, aksariyat hollarda lingvomadaniy kodlar vositasida

shakllantirilgan, topilishi talab etiladigan narsa yoki hodisani boshqa narsa yoki hodisaga o‘xshatish, o‘zaro qiyoslash, taqqoslash orqali gavdalantiriladigan, she’riy yoki nasriy shakldagi janr; olam lisoniy manzarasining kichik bir qismi.

TUSHUNMASLIK BILAN BOG‘LIQ TO‘SIQLAR Nutqiy muloqotda ma‘lumotni uzatish va tushunishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar. Bunga quyidagilar kiradi: semantik to‘siqlar, fonetik to‘siqlar, uslubiy to‘siqlar, mantiqiy to‘siqlar. *q. kommunikativ to‘siq.*

TUSHUNCHA Kognitiv tilshunoslikda: narsa va hodisalarning eng muhim, umumiy xususiyatlarini aks ettiruvchi konsept. Tushunchalar taqdimotlar va sxemalar vositasida yuzaga kelib, obyektning hissiy tarzda aniqlangan nomuhim belgilarini chiqarib tashlash yo‘li bilan hosil qilinadi. Masalan: *samolyot – havodan og‘ir uchish apparati.*

“TO‘NTARILGAN PIRAMIDA” TAMOYILI Eng muhim yangilikning matn boshidanoq anglashilishi; axborot yukining matnning dastlabki jumlasiga yuklanishi va matn oxiriga borgan sayin yangilik darajasining pasayib borishi.

“TO‘RT MAYDON” MODEL Konseptual integratsiya jarayonining “umumiy mental maydon”, “birinchi hamkor mental maydon”, “ikkinchi hamkor mental maydon” hamda “qorishiq mental maydon” deb nomlanuvchi asosiy unsurlarining o‘zaro munosabatini ifodalovchi tushuncha va ushbu tushuncha haqidagi nazariya.

U

UMUMINSONIY QADRIYATLAR Olam, tabiat va jamiyatning eng asosiy, eng muhim tomonlarini, qonun-qoidalarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan, hamma davrlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan qadriyatlar.

UNDASH NUTQIY NUTQIY AKTI Undash mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlar.

UNIVERSAL PRETSEDENT BIRLIKLAR Dunyo xalqlari lingvomadaniyatida keng tarqalgan pretsedent birliklar. Masalan:

Zevs, Napoleon, Gerostrat, Robinzon Kruzo, Gamlet, Don Juan, Amir Temur, Otello, Aleksandr Makedonskiy, Samarqand, Xirosima, Eyfel minorasi kabi mashhur nomlar; mashhur ibora va matnlar.

USLUBIY BELGIGA ASOSLANGAN ASSOTSIATSIYALAR [D.Lutfullayeva termini] Leksemalarning uslubiy belgisiga asoslangan assotsiatsiyalar. Masalan, ilmiy uslubga xos *virus – infeksiya, drama – komediya*; badiiy uslubga xos *shabboda – nasim, nur – ziyo* assotsiativ juftliklari umumiy uslubiy belgisi asosida yuzaga kelgan.

USLUBIY KONVERGENSIYA [M.Riffater termini] Uslubiy samaradorlikka erishish maqsadida matnning muayyan o‘rnida bir vaqtning o‘zida bir necha uslubiy vositaning qo‘llanishi va yagona stilistik maqsadga xizmat qilishi.

USLUBIY TO‘SIQLAR Axborotni taqdim etish shakli va uning mazmuni o‘rtasidagi munosabatlarning buzilishi, adresatning holati yoki nutq vaziyatini hisobga olmasdan aytilgan noo‘rin, nojo‘ya so‘zlar, gaplar tufayli yuzaga keladigan kommunikativ to‘siqlar. *q. kommunikativ to‘siq.*

UYG‘UN MATN Verbal va noverbal unsurlarning uyg‘unlashuvi natijasida hosil bo‘lgan o‘ziga xos matn. Uyg‘un matnda turli madaniy-semiotik maydonlar (til, musiqa, tasvir kabi) yagona vizual, tuzilmaviy va mazmuniy yaxlitlikni hosil qiladi. Reklama matnlari, kinomatnlar uyg‘un matnga misol bo‘la oladi.

V

VA‘DA NUTQIY AKTI Va‘da berish mazmuni ifodalangan nutqiy harakatlar.

VAQT LINGVOMADANIY KODI Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan vaqtga oid tushunchalarni anglatuvchi so‘z (yoki so‘zlar, so‘z birikmasi) tayanch komponent bo‘lgan lisoniy (nutqiy) birlik; lingvomadaniy kod turlaridan biri. Masalan: *kun sanamoq, yetti xuftonda, umr oqshomi* kabi.

VAZIFADOSH DEYKTIK BIRLIKLAR Ma‘lum bir nutq vaziyatidagina deyktik vazifani bajaruvchi til birliklari. (Ularning

bu vazifasi nutq vaziyatidan tashqarida yo‘qoladi).

VERBAL KONSEPTLAR Muntazam holda lisoniy birliklar vositasida ifodalanadigan konseptlar, konseptlarning tilda ifodalani-shiga ko‘ra tasnifiga kiruvchi turlaridan biri. (Ushbu tasnifga ko‘ra konseptlar verbal konseptlar hamda noverbal konseptlar guruhlariga bo‘linadi).

VERBAL TARMOQ Inson miyasidagi egallangan tilga oid birliklar ma‘nosini saqlaydigan va bu birliklarning bir yoki bir necha til sathlari doirasidagi aloqalarini ta‘minlaydigan neyroling-vistik tizim.

VERDIKTIVLAR Hukm chiqarish mazmunini bildiruvchi nutqiy harakatlar; J.Ostin tomonidan illokutiv fe‘llar asosida tasnif qilingan nutqiy aktlar guruhlaridan biri. *q. ekzersitivlar. q. komissivlar. q. bexabitivlar. q. ekspozitivlar.*

VERNIKE MARKAZI Miyaning yuqori chakka burmasida joylashgan, og‘zaki nutqning ovozli fonemik tahlilini ta‘minlovchi nutqiy zona. Nemis nevropatologi va psixiatri K.Vernike nomi bilan atalgan. Uning shikastlanishi Vernike afaziyasini keltirib chiqaradi, bunday afaziya turida individning og‘zaki nutqni tushunish faoliyati buziladi.

VERTIKAL KONTEKST [O.S.Axmanova va I.V.Gyubbenet termini] Matn mazmunidan assotsiativ ravishda idrok qilinuvchi ijtimoiy-tarixiy yoki filologik axborot.

VITAL METAFORALAR Jonsiz narsalarni jonlantirib tasvirlovchi metaforalar. Masalan: *u y g‘ o q shahar, q a y g‘ u l i osmon.*

VOSITASIZ AKT *ayn. birlamchi akt.*

VOSITACHI TILLAR Muayyan hududda uzoq vaqt davomida etnik guruhlar, millatlararo muloqotda foydalanilgan tillar.

X

XABAR MAZMUNLI MATN [M.Yo‘ldoshev termini] Biror voqea-hodisa haqida xabar berish maqsadida yaratilgan matn; badiiy matnning mazmuniy turlaridan biri. *q. hikoya mazmunli matn.*

XALQ TILI Muayyan tilning lahjalar, dialektlarni o‘zida birlashtirgan, umum tomonidan keng qo‘llanadigan, og‘zaki muloqot vositasi sifatida foydalaniladigan turi. Odatda, xalq tilining amal qilishi qat’iy va yagona orfoepik, leksik va grammatik me’yorlar bilan cheklanmaydi.

XALQARO SO‘Z Kamida uchta tilda qo‘llanadigan, fonetik shakli asosan saqlanib qolgan o‘zlashma so‘z.

XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASI Insonga nisbatan odoblilik, xushfe’llikka asoslangan munosabatni ifoda etishdan iborat til strategiyasi; lingvomadaniy va pragmalingvistik kategoriya. Axloqiy strategiyalar, nutqiy strategiyalar hamda barqaror lisoniy shakllar xushmuomalalik kategoriyasining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASI MAKSIMALARI
ayn. xushmuomalalik kategoriyasi tamoyillari.

XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASI TAMOYILLARI
J.Lich tomonidan qayd etilgan mazkur kategoriya tamoyillari oltita qoidani o‘z ichiga oladi. Jumladan: 1) nazokatlilik, xushmuomalalik tamoyili (Mazkur tamoyilda suhbatdoshga nazokat va ehtiyotkorlik bilan, odob doirasidan chetga chiqmagan holda, uning manfaatlarini hisobga olib yondashish nazarda tutiladi); 2) saxovat tamoyili (Suhbat jarayonida tinglovchi uchun qulaylik yaratish va iloji boricha uni noqulay holatga tushirmaslik tavsiya qilinadi); 3) ma’qullash tamoyili (Suhbatdosh fikrlarini ma’qullash va qo‘llab-quvvatlash nazarda tutiladi); 4) kamtarlik tamoyili (Ushbu tamoyilda o‘zini maqtashdan keskin qochishga amal qilish tavsiya qilinadi); 5) rozilik tamoyili (Suhbat vaqtida iloji boricha ziddiyatga yo‘l qo‘ymaslik, suhbatdosh fikrlariga qarshi chiqmaslik nazarda tutiladi); 6) xush yoqish tamoyili (Ushbu tamoyilda suhbatdoshda ijobiy munosabat paydo qilishga harakat qilish tavsiya qilinadi. Mazkur tamoyil yuqorida keltirilgan boshqa tamoyillarning muvaffaqiyatli amalga oshishi shartlaridan biri hisoblanadi).

Y

YOZUVSIZ TIL O‘z yozuvi mavjud bo‘lmagan, faqat og‘zaki tarzda amal qiladigan til.

“YULDUZLAR” ISHTIROKIDAGI REKLAMA Iste‘molchining “yulduzlar” tomonidan tovarlarning yuqori sifati haqidagi bildirilgan dalillariga bo‘lgan ishonchiga asoslangan reklama; reklama matnining kommunikativ modellaridan biri.

“YUMSHOQ KUCH” SIYOSIY STRATEGIYASI [J.Nay termini] Majburlashni nazarda tutuvchi “qattiq kuch”dan farqli o‘laroq, insonlarni ixtiyoriy ishtirok etish, xush yoqish va jozibadorlik asosida biror faoliyatga undash, ishontirish vositasida amalga oshiriladigan tashqi siyosiy strategiya shakllaridan biri. Ushbu termini fanga olib kirgan amerikalik siyosatunos Jozef Nay til va madaniyatni xalqaro munosabatlarga bevosita yoki bilvosita ta’sir o‘tkazuvchi va jahon siyosatida muhim o‘rin tutuvchi “yumshoq kuch” ga tenglashtirgan edi. Hozirgi vaqtda dunyoning yetakchi davlatlari o‘z tillarini dunyo xalqlari o‘rtasida targ‘ib qilishda “yumshoq kuch” omilidan foydalanishga katta e’tibor qaratmoqdalar.

YO‘NALISHLI METAFORALAR [J.Lakoff va M.Jonson termini] Muayyan tushunchaga “baland – past”, “ichki – tashqi”, “old tomon – orqa tomon”, “chuqur – sayoz”, “markaziy – chetki” kabi qarama-qarshiliklar asosida fazoviy yo‘nalish beruvchi metaforalar. Masalan, baxt, shodlik, taraqqiyot kabi tushunchalarning balandlik bilan bog‘liq tushunchalar vositasida (*yettinchi osmonda uchmoq*), salbiy narsa yoki holatlarning pastlik bilan bog‘liq tushunchalar vositasida (*yerga urmoq*) konseptuallashtirilishi; konseptual metafora turlaridan biri. *q. konseptual metafora.*

YO‘NALTIRILGAN ASSOTSIATIV TAJRIBA Sinaluvchilarga muayyan grammatik birlik yoki semantik ifoda bo‘yicha xotirasiga kelgan assotsiatlarni qayd etish vazifa qilib beriladigan psixolingvistik tajriba. Masalan, stimul so‘z bo‘yicha so‘z turkumiga mansub assotsiatsiyalarni qayd etish yoki stimul so‘zning antonimik assotsiatsiyalarini hosil qilish kabilar. *q. lingvistik assotsiativ tajriba metodi.*

Z

ZAMON DEYKSISI Deyksisning voqelikning yuzaga chiqish vaqti, muloqot kechayotgan paytga ishorani anglatuvchi turi.

ZANJIRLI ASSOTSIATIV EKSPERIMENT Sh.Usmonova hamda Sh.Shamsiyevalarning qayd etishicha, respondentlarning bir qancha soʻzlarga (masalan, 20 soniyaichida 10 ta reaksiya soʻz berish) assotsiatsiyalar berishi.

ZOHIRIY NUTQ *ayn. tashqi nutq.*

ZOOMORF LINGVOMADANIY KOD Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan hayvonot dunyosiga tegishli tushunchalarni anglatuvchi soʻz (yoki soʻzlar, soʻz birikmasi) tayanch komponent boʻlgan lisoniy (nutqiy) birlik; biomorf kod turlaridan biri. Masalan: *O t tepkisini ot koʻtaradi; Temir qoʻrgʻon ichida qizil t o y ch o q oʻynaydi (Til); t u l k i d a y ayyor* kabi.

ZOOMORF METAFORA Inson, narsa va hodisalarni hayvonlar, jonivor va parrandalar qiyofasi va sifatleri bilan qiyoslash orqali shakllantiriladigan metafora. Masalan: *boʻtaloq, toychoq, qoʻzichoq, qulun* soʻzlarining “bola”, “farzand” maʼnosida qoʻllanishi.

Oʻ

OʻLIK TILLAR Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va tarixiy oʻzgarishlar taʼsirida yoʻqolib borgan, yozma yodgorliklarda saqlanib qolgan, zamonaviy jamiyatda qoʻllanmayotgan til. Masalan, shumer, lotin, etrusk, yunon, qadimiy slavyan, pruss, ostgot, italiy, gall va b.

OʻXSHATISHLAR Lingvomadaniyatshunoslikda: til sohiblarining milliy-obrazli tafakkur tarzini va aksiologik munosabatini namoyon etuvchi, aksariyat hollarda lingvomadaniy kodlar vositasida shakllantirilgan, ikki obyekt oʻrtasidagi oʻxshashlik mazmunini ifodalovchi, til sohiblarining lisoniy xotirasida maʼlum bir qoliplar shaklida saqlanadigan konnotativ turgʻun birikmalar. Turgʻun oʻxshatishlarning oʻxshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan va milliy-etnik xususiyatga ega boʻladi. Masalan,

beozorlik etalonining o‘zbek tilida *musicha*, ingliz tilida *kabutar*, koreys tilida esa *sigir* tushunchasini bildiruvchi so‘zlar vositasida ifodalanishi.

O‘XSHATISHLARNING IZOHLI LUG‘ATI O‘xshatish etaloni vositasida ta’kidlanuvchi ma’no va uning reallashishi bilan bog‘liq jihatlar tavsiflanuvchi, semantik, uslubiy, lingvopoetik va lingvomadaniy kabi yondashuvlardan biri asosida tuzilgan lug‘at. Masalan: V.M.Mokiyenko, T.G.Nikitinaning “Большой словарь русских народных сравнений” (Москва, 2008), N.Mahmudov, D.Xudoyberganovanning “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 2013) nomli lug‘atlari.

“O‘ZINI NAMOYON QILISH” STRATEGIYASI Adresatda ijobiy taassurot shakllantirishga va muallifga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, yuksaltirishga yo‘naltirilgan nutqiy harakatlar ustuvor bo‘lgan kommunikativ strategiya.

SH

SHAKLIY ASSOTSIATSIYALAR Paronimlar yoki omonimlarning assotsiativ bog‘lanishi asosida hosil bo‘lgan assotsiatsiyalar. Masalan: *tanbur – tambur, ta’rif – tarif, kompaniya – kampaniya, nufuz – nufus; ot – ot, tur – tur, dam – dam, chang – chang* kabi.

SHAXS DEYKSISI Deyksisning so‘zlovchi, tinglovchi va o‘zgaga ishorani anglatuvchi turi.

SHAXSIY DISKURS So‘zlovchining ichki dunyosi, uning individual shaxs sifatidagi xususiyatlari ifodalanuvchi diskurs.

SHAXSIY KONSEPTLAR Alohida shaxsning mental olamida maxsus madaniy yoki ijtimoiy mazmun kasb etgan, individual qadriyat va obraz darajasida qabul qilingan konseptlar.

SHAXSIY QADRIYATLAR Shaxs, uning turmush tarzi, ma’naviy-axloqiy qiyofasi, nafosati va go‘zalligi, mehnati va iqtisodi, kamolot darajasi, iste’dodi va ijtimoiy mavqeyi, huzur-halovati bilan bog‘liq qadriyatlar.

SHAXSIY TO‘SIQLAR Muloqot ishtirokchilarining psixologik nomuvofiqligi, o‘zaro salbiy munosabatlari, shuningdek, dunyoqarashlari va sajiyasidagi qarama-qarshiliklar sababli yuzaga

keladigan kommunikativ to‘siqlar. *q. kommunikativ to‘siq.*

CH

CHOG‘ISHTIRMA LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK

Lingvomadaniyatshunoslikning ikki va undan ortiq qarindosh bo‘lmagan tillarning lingvomadaniy xususiyatlarini chog‘ishtirgan holda, muayyan millat lingvomadaniyatini boshqa til sohiblari lingvomadaniyati nuqtayi nazari bilan tadqiq etuvchi bo‘limi.

ILOVA

Kognitiv tilshunoslik terminlari

Aniq konseptlar

Frazeologik konseptlar

Freym

Hamkor mental maydonlar

Ideallashgan kognitiv modellar (IKM) nazariyasi

Geshtalt

Idrok intizomi

Emotsional konseptlar

Dunyo manzarasi

Dunyo obrazi

Dunyo tasviri

Birlamchi interpretatsiya

Blending nazariyasi

Badiiy konseptlar

Bilim

Input

Interpretatsiya

Individual-muallifiy konseptlar

Ikkilamchi interpretatsiya

Kategorial tahlil usuli

Kategoriyalashtirish

Kognitiv baza

Kognitiv grammatika

Kognitiv inqilob

Kognitiv semantika

Kognitiv tasniflagichlar

Kognitiv tilshunoslik

Kognitiv uslub

Kognitologiya

Kognitsiya

Konsept

Konseptlar tipologiyasi

Konseptning asosiy strukturaviy uzvlari

Konseptning informatsion mazmuni
Konseptning interpretatsiya maydoni
Konseptning kognitiv interpretatsiyasi
Konseptning nominativ maydoni
Konseptning nominativ zichligi
Konseptning obrazli uzvi
Konseptosfera
Konseptual integrallashuv
Konseptual integrallashuv nazariyasi
Konseptuallashtirish
Konseptual maydon
Konseptual tahlil usuli
Konseptual-taksonomik tahlil usuli
Konseptual tizim
Konseptual qo‘shilma
Lingvokognitiv konsept
Lisoniy interpretatsiya
Lisoniy ong
Manba maydoni
Mavhum konseptlar
Mental maydonlar
Metafora
Metaftonimiya
Nishon maydoni
Noverbal konseptlar
Kognitiv fan
Leksik konseptlar
Lingvokonseptshunoslik
Obrazli tafakkur
Olam manzarasi
Olam modeli
Olamning bevosita manzarasi
Olamning bilvosita manzarasi
Olamning frazeologik manzarasi
Olamning gender manzarasi
Olamning ilmiy manzarasi
Olamning kognitiv manzarasi

Olamning konseptual manzarasi
Olamning lisoniy manzarasi
Olamning lisoniy tasviri
Olamning oddiy manzarasi
Olamning sodda manzarasi
Ontologiya
Ong
Prototip
Prototiplar nazariyasi
Sintaktik konseptlar
Skript
Slotlar
Ssenariy
Strukturaviy metaforalar
Tafakkur
Tasavvur
Tashqi nutq
Tushuncha
“To‘rt maydon” modeli
Verbal konseptlar
Shaxsiy konseptlar

Lingvomadaniyatshunoslik terminlari

Allyuziv antroponim
Allyuziv kosmonim
Allyuziv math
Allyuziv nom
Allyuziv toponim
Allyuziv zoonim
Allyuziya
Allyuziya denotati
Allyuziya ko‘rsatkichi
Allyuziya manbasi
Antropomorfizm
Antropomorf lingvomadaniy kod
Artefakt

Arxetip
Asosiy madaniy kodlar
Biomorf lingvomadaniy kod
Denotativ madaniy kontekst
Diaxronik lingvomadaniyatshunoslik
Etalon
Etnik stereotip
Etnolingvistika
Etnosemantika –
Etnos
Evfemizm
Fazo lingvomadaniy kodi
Fitomorf lingvomadaniy kod
Fitomorf metafora
Ibora
Kiyim-kechak lingvomadaniy kodi
Konnotativ madaniy kontekst
Kross-madaniy yondashuv
Lakuna
Lingvokulturema
Lingvokulturologiya
Lingvomadaniyat
Lingvomadaniy birlik
Lingvomadaniy hamjamiyat
Lingvomadaniy kod
Lingvomadaniy konsept
Lingvomadaniy leksikografiya
Lingvomadaniy lug‘at
Lingvomadaniy salohiyat
Lingvomadaniy tip
Lingvomadaniyatshunoslik –
Lingvomadaniyatshunoslik maktablari
Lisoniy madaniyatshunoslik
Logoepistema
Madaniy artefakt
Madaniy jarayon
Madaniy noqulaylik

Madaniy kod
Madaniy konnotativlik
Madaniy kontekst
Madaniy moslashuv
Madaniy naturfakt
Madaniy semalar
Madaniy universalialar
Madaniy vorislik
Madaniy zaxira
Madaniyat
Madaniyat ekologiyasi
Madaniyat konstantalari
Madaniyatlararo muloqot
Madaniyatshunoslik
Makon lingvomadaniy kodi
Matnning pretsedent shakli
Ma'naviy lingvomadaniy kod
Ma'naviyat
Mentalitet
Mifologema
Mifonim
Millatlararo muloqot madaniyati
Milliy mentalitet
Milliy pretsedent nomlar
Milliy qadriyatlar
Milliy realiyalar
Milliylik
Milliy-madaniy konnotativlik
Milliy-psixologik lakunalar
Milliy stereotip
Nabotot lingvomadaniy kodi
Narsa-buyum lingvomadaniy kodi
Naturfakt
Madaniy makon
Maqol
Mentefakt
Me'morchilik lingvomadaniy kodi

Oziq-ovqat lingvomadaniy kodi
Predmetli kod
Pretsedent jumlar
Pretsedent matn
Pretsedent nomlar
Psixofakt
Qiyosiy lingvomfdaniyatshunoslik
Ramz
Raqamli lingvomadaniy kod
Rang-tus lingvomadaniy kodi
Somatik lingvomadaniy kod
Stereotip
Submadaniyat
Tasavvur asosidagi matnlar
Temporal lingvomadaniy kod
Tibbiyot lingvomadaniy kodi
Til
Til egasi
Til sohibi
Til va madaniyatning kumulyativ vazifasi
Tilning idioetnik xususiyati
Topishmoq
Universal pretsedent birliklar
Vaqt lingvomadaniy kodi
Zoomorf lingvomadaniy kod
O‘xshatishlar
O‘xshatishlarning izohli lug‘ati
Chog‘ishtirma lingvomadaniyatshunoslik

Pragmalingvistika terminlari

Asl deyktik birliklar
Assertivlar
Axloqiy to‘siqlar
Belgi deyksisi
Bexabitivlar
Bilvosita akt

Birlamchi akt
Birlamchi deyxsis
Buyruq nutqiy akti
Direktivlar
Deskriptiv bo‘lmagan so‘zlar
Deskriptiv so‘zlar
Deyksis
Deyktik birliklar
Deyktik elementlar
Deyktik iboralar
Deyktiklar
Deklarativlar
Diskurs
Diskurs deyxsis
Egotsentrik so‘zlar
Ekspozitivlar
Ekspressivlar
Ekspressiv tagma’no
Ekzersitivlar
Emotsional deyxsis
Estetik to‘siqlar
Fatik akt
Fonetik akt
Fonetik to‘siqlar
Ijtimoiy deyxsis –
Ijtimoiy to‘siqlar
Ikkilamchi akt
Ikkilamchi deyxsis –
Illokutiv akt
Illokutsiya kuchi
“Iltofot” muloqot cstrategiyasi –
Iltimos nutqiy akti
Istak nutqiy akti
Implikatura
Indeksikallar
Indikativ bo‘lmagan so‘zlar
Indikativ so‘zlar

Informema
Imperativlik
Implitsit ifoda
Individual illoperlokutiv akt
Introdukativ akt
Iste'molchilar ishtirokidagi reklama –
“Ishontirish” muloqot strategiyasi –
Kechirim nutqiy akti
Kinesika
Komissivlar
Kommunikant
Kommunikativ akt
Kommunikativ fon
Kommunikativ ong
Kommunikativ presuppozitsiya
Kommunikativ qadam
Kommunikativ strategiya
Kommunikativ tagma'no
Kommunikativ taktika
Kommunikativ to'siq
Kommunikativ xulq-atvor
Kommunikativ shaxs
Koordinativ bilingvizm
Lisoniy manipulyatsiya
Lokutiv akt –
Madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari
Madaniy to'siqlar
Makon deyksisi
Mantiqiy to'siqlar
Maslahat nutqiy akti
Matn deyksisi
Matnorti bilimlari
“Maqtov” muloqot strategiyasi
Ma'no qobig'i bo'sh so'zlar
Mental akt
Metaforik tagma'no
Miqdor deyksisi

Muloqot strategiyasi
Muloqot taktikasi
Muloqotning akustik tizimi
Muloqotning olfaktor sistemasi
Minnatdorchilik nutqiy akti
Morfopragmatika
Noimperativ shakl
Noverbal to‘siqlar
Nutqiy akt
Nutqiy bosim
Nutqiy etiket
Nutqiy faoliyat
Nutqiy janr
Nutqiy manipulyatsiya
“Obro‘sizlantirish” muloqot strategiyasi
“Obro‘sizlantirishdan himoyalanih” muloqot strategiyasi
Obyektiv to‘siqlar
Ogohlantirish nutqiy akti
Okulesika
Olfaksiya
Operatorlar
Perlokutiv akt
Pol grays maksimalari
Pol grays tamoyillari
Prezumpsiya
Proksemika
Propozitiv deyksis
Propozitsional akt
Pragmalingvistika
Pragmatika –
Pragmatik presuppozitsiya
Pragmatik to‘siq
Predmet deyksisi
Presuppozitsiya
Psixologik kontekst
Qiyosiy reklama
Rad etish nutqiy akti

Referensial tagma'no
Reklama-dialog
Reklama-ko'rsatma
Reprezentativlar
Sintaksopragmatika
Sintaktik pragmatika
Semantik presuppozitsiya
Semantik to'siqlar
Strategik dastur –
Subyektiv baho
Subyektiv interpretatsiya
Subyektiv-tahliliy strategiya
Syujetli reklama
So'roq nutqiy akti
Tagma'no
Taklif nutqiy akti
Talab nutqiy akti
Tashkiliy to'siqlar
Tushunmaslik bilan bog'liq to'siqlar
Undash nutqiy nutqiy akti
Uslubiy to'siqlar
Uyg'un matn
Va'da nutqiy akti
Vazifadosh deyktik birliklar
Verdiktivlar
Xushmuomalalik kategoriyasi
Xushmuomalalik kategoriyasi maksimalari
Xushmuomalalik kategoriyasi tamoyillari
“Yulduzlar” ishtirokidagi reklama
“O'zini namoyon qilish” strategiyasi
Zamon deyksisi
Shaxs deyksisi
Shaxsiy to'siqlar

Sotsiolingvistika terminlari

Aborijenlar
Adabiy til
Adresant
Adresat
Aloqaviy tillar
Alloetnonim
Aralash bilingvizm
Argo
Axborotchi
Avtoetnonim
Bemor til
Bilingvizm
Bir tillilik
Davlat tili
Dialekt
Diglossiya
Ekzogloss lisoniy vaziyat
Ekzotik leksika
Endogloss lisoniy vaziyat
Esperanto
Geterogen lisoniy vaziyat
Gomogen lisoniy vaziyat
Hududiy dialekt
Idiolekt
Ijtimoiy konnotatsiya
Ijtimoiy maqom
Ijtimoiy-kommunikativ tizim
Ijtimoiy rollap
Ijtimoiy variativlik
Informantlar
Individual bilingvizm
Ikki tillilik
Interferensiya
Interlingvistika
Intertekstual metafora

Intervyu
Jamiyat
Jargon
Kod
Kodlar almashinuvi
Kreol til
Kreolizativ matn
Korrelyatsion tahlil
Koyne
Ko‘ptillilik
Leksopragmatika
Lingva franka
Lingvopragmatik lisoniy ziddiyat
Lingvosotsiologiya
Lisoniy hamjamiyat
Lisoniy jarayonlar
Lisoniy ijtimoiylashuv
Lisoniy kompetensiya
Lisoniy prognozlash
Lisoniy qobiliyat
Lisoniy variativlik
Lisoniy vaziyat
Mahalliy til
Makrosotsiolingvistika
Mikrosotsiolingvistika
Monolingvizm
Multilingvizm
Muqobilsiz leksika
Muvofiqlashgan bilingvizm
Ona tili –
Pidjin
Polilingvizm
Rasmiy til
Sleng
Sof bilingvizm
Sotsial dialekt
Sotsial jargon

Sotsiofakt
Sotsiolekt
Sotsiolingvistik tadqiqot usullari –
Sotsiolingvistika
Sotsium
Subkod
Sun'iy bilingvizm
Sun'iy til
So'zlashuv tili
Til ekologiyasi
Til maqomi
Til siyosati
Til va jamiyat
Til zichligi
Tillarning sotsiolingvistik tasnifi
Tilni planlashtirish
Tilni rejalashtirish
Tilning kreollashishi
Tilning ramziy vazifasi
Tilning sotsiolingvistik portreti
Tirik til
Tobe bilingvizm
Vositachi tillar
Xalq tili
Xalqaro so'z
Yozuvsiz til
O'lik tillar

Psixolingvistika va neyrolingvistika terminlari

Agrammatizm
Akustik afaziya
Alaliya
Bixeviorizm
Botiniy nutq
Broka markazi
Dekodlash

Dinamik afaziya
Etnopsixolingvistika
Idrok
Lingvistik assotsiativ tajriba metodi
Lisoniy faollik
Matn atributsiyasi
Matn proyeksiyasi
Mazmuniy idrok
Mazmuniy persepsiya
Ma'noning empirik komponenti
Motor afaziya
Motor alaliya
Neyrolingvistika
Nutq ontogenezi
Nutq patologiyasi
Ontogenez
Ontolingvistika
Psixolingvistika
Patopsixolingvistika
Persepsiya
Pragmatik assotsiatsiyalar
Respondentlar
Retsipiyent
Sensor alaliya
Sensor afaziya
Stimul matn
Stimul so'z
Til ma'lumotlarining kognitiv qayta ishlanishi
Verbal tarmoq
Vernike markazi
Yo'naltirilgan assotsiativ tajriba
Zohiriy nutq
Zanjirli assotsiativ eksperiment

Assotsiativ tilshunoslik terminlari

Assotsiat

Assotsiativ psixologiya

Assotsianizm

Assotsiativ lug‘atlar

Assotsiativ maydon

Assotsiativ-verbal tarmoq

Assotsiatsiya

Bog‘li assotsiativ tajriba

Derivatsion assotsiatsiyalar

Dialektal belgiga asoslangan assotsiatsiyalar

Erkin assotsiativ tajriba

Gender xususiyatli assotsiatsiyalar

Ijtimoiy assotsiatsiyalar

Individual assotsiatlar

Leksik-grammatik assotsiatsiyalar

Matnning assotsiativ maydoni

Milliy-madaniy assotsiatsiyalar

Ohangdoshlik asosidagi assotsiatsiyalar

Semantik assotsiatsiyalar

Sinaluvchilar

Shakliy assotsiatsiyalar

Matn tilshunosligi va diskursshunoslik terminlari

Badiiy matn

Buyruq-istak mazmunli matn

Didaktik matn

Diskursiv tahlil metodi

Diskursshunoslik

Filologik vertikal kontekst

Global aloqadorlik

Hikoya mazmunli matn

Hissiy ifoda mazmunli matn

Ijtimoiy-tarixiy vertikal kontekst

Ilmiy diskurs
Institutsional diskurs
Intermatn
Intermatnlik
Intertekstuallik
Intertekstual matn
Izoh mazmunli matn
Kontekst
Kontent-tahlil
Lokal aloqadorlik
Makromatn
Makropropozitsiya
Matn
Matn-metafora
Matn-o‘xshatish
Mikromatn
Nobadiiy matn
Pedagogik diskurs
Reklama matni
Siyosiy diskurs
Semantik inersiya
Tibbiyot diskursi -
Tasviriy matn
Vertikal kontekst
Xabar mazmunli matn
Shaxsiy diskurs

Metaforashunoslik terminlari

Animalistik metaforalar –
Antropomorf metaforalar
Antropotsentrik metaforalar
Badiiy metaforalar
Bazaviy metaforalar
Fitomorf metaforalar
Konseptual metafora
Metaforashunoslik

Metaforologiya
Mortal metaforalar
Naturmorf metaforalar
Nominativ metafora
Nutqiy metaforalar
Olfaktor metaforalar
Ontologik metaforalar
Ornitomorf metaforalar
Texnomorf metaforalar
Vital metaforalar
Yo‘nalishli metaforalar
Zoomorf metaforalar

Medialingvistika terminlari

Axboriy-tahliliy matnlar
Media
Mediadiskurs
Medialingvistik tahlil usuli
Medialingvistika
Mediamatn
Mediamatn kanali
Mediamuhit
Medianutq
Mediatopik
Muallifsiz mediamatn
Oav tili
“To‘ntarilgan piramida” tamoyili

MUNDARIJA

So‘zboshi.....	4
A.....	8
B.....	15
D.....	18
E.....	21
F.....	24
G.....	25
H.....	26
I.....	27
J.....	33
K.....	33
L.....	44
M.....	50
N.....	61
O.....	64
P.....	68
Q.....	72
R.....	73
S.....	74
T.....	79
U.....	84
V.....	85
X.....	86
Y.....	88
Z.....	89
O‘.....	89
SH.....	90
CH.....	91
Ilova.....	92

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

Durdona Xudoyberganova

**ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK
TERMINLARINING IZOHLI LUG‘ATI**

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 08.02.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 4,6. Shartli bosma taboq 6,6.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru
t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10